

A. A. XASHIMOV
SH. A. MADJIDOV
N. M. MUMINOVA



INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

A.A. XASHIMOV, SH.A. MADJIDOV,
N.M. MUMINOVA

INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH

O'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi tomonidan 2014-yil 3-martdagi 79-sonli buyruqqa
asosan 79-010 raqam bilan ro'yxatga olinib nashrga tavsiya
etilgan lotin tilidagi qayta nashri

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2014

UO'K: 330.322.(075)

KBK: 65.9(50*)-56

X – 33

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti rektori,
texnika fanlari doktori,
professor Qadam JUMANIYAZOV tahriri ostida

Ilmiy muharrir:

X.X. Kamilova – *TTESI prorektori, professor*

Taqrizchilar:

N.H. Haydarov – *TMI prorektori, i.f.d., professor;*

S.N. Yuldashev – *TTESI «Menejment» kafedrası mudiri,*
i.f.n., dotsent.

X – 33 Xashimov A.A., Madjidov SH.A., Muminova N.M.
Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.
O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Sharq», 2014. – 248 b.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish va foydalanishni taqozo etadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirishni nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan.

O'quv qo'llanma 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) ta'lim yo'nalishidagi bakalavrlar, 5A230201 – «Menejment» (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligidagi magistrlar, iqtisodiyotga yo'naltirilgan fakultetlar talabalari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, shuningdek, kasb-hunar kollejarining shu sohadagi o'qituvchilari hamda korxonalarning iqtisodiy bo'lim xodimlari uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-26-122-8

UO'K: 330.322.(075)

KBK: 65.9(50*)-56

ISBN 978-9943-26-122-8

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014.

УДК: 330.322.(075)

ББК: 65.9(5Ў)-56

X – 33

Под редакции ректора Ташкентского института
текстильной и легкой промышленности,
д.т.н., профессора Кадама ЖУМАНИЯЗОВА

Научный редактор:

Х.Х.Камилова – проректор ТИТЛП, профессор;

Рецензенты:

Н.Х. Хайдаров – проректор ТФИ д.э.н., профессор;

С.Н. Юлдашев – заведующий кафедрой «Менеджмент»
ТИТЛП, к.э.н., доцент

X – 33 Хашимов А.А., Маджидов Ш.А., Муминова Н.М.
Организация и финансирование инвестиций. Учеб-
ное пособие. – Тошкент: «Sharq», 2014. – 248 с.

В национальной программе по подготовке кадров постав-
лены конкретные задачи по созданию и эффективному исполь-
зованию нового поколения учебников и учебных пособий, от-
вечающих требованиям рыночной экономики и реалиям сегод-
няшнего дня.

В данном учебном пособии широко освещены теоретиче-
ские и практические основы организации и финансирования ин-
вестиций.

Учебное пособие предназначено для бакалавров, обучаю-
щихся по направлению 5230900 – «Бухгалтерский учет и аудит»
(хлопковой, текстильной и легкой промышленности), магистрам
по специальности 5A230201 – «Менеджмент» (хлопковой, тек-
стильной и легкой промышленности), старших научных сотруд-
ников – соискателей, студентов экономического факультета, а
также преподавателей и работников экономических служб пред-
приятий.

ISBN 978-9943-26-122-8

УДК: 330.322.(075)

ББК: 65.9(5Ў)-56

UO*K: 330.322.(075)

KBK: 65.9(50')-56

Kh – 33

Edited by **Kadam JUMANIYAZOV**,
rector of Tashkent institute of textile and light industry,
doctor of technical sciences, professor.

Scientific editor:

Kh.Kh.Kamilova – *vice rector of TITLI, professor.*

Reviews by

N.Kh.Haydarov – *vice rector of TFI, doctor of economic sciences, professor.*

S.N.Yulдахsev – *head of chair the «Management» of TITLI, candidate of economic sciences, assistant professor.*

Kh – 33 Khashimov A.A., Madjidov Sh.A., Muminova
N.M. Organization and financing investment. Text-
book. – Tashkent: «Sharq», 2014. – 248 page.

The main tasks of cadre teaching national program are writing and effectively using new textbooks which are suitable to present requirement and market economic.

Theoretical and practical principles of organization and financing investments are widely presented in this textbook.

This textbook is written for bachelors who specialize for «Book keeping and audit» – 5230900 (cotton, textile and light industry), for masters who specialize for «Management» – 5A230201(cotton, textile and light industry), high scientific specialists, students of economic departments, teachers and workers of economic sections.

ISBN 978-9943-26-122-8

UO*K: 330.322.(075)

KBK: 65.9(50')-56

*«...investitsiyalarsiz modernizatsiya ham,
yangilanish ham bo'lmaydi»*

I.A. KARIMOV

KIRISH

Mamlakatimizda investitsion siyosatni shakllantirish va amalga oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb etishda, avvalo, ichki manbalarini safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jipozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi.

Mustaqillik yillarida bu yo'nalishda mamlakatimizda muhim natijalarga erishildi: respublikamizda 2012-yilda 2011-yilga nisbatan 14 foiz ko'p, ya'ni 11 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 22,9 foizini tashkil etadi.

Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 2 milliard 500 million AQSH dollarini, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 79 foizni tashkil qildi.

Prezidentimiz «...mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2013-yildagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda.

Bu o'rinda gap ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mamlakatimizdagi xomashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlari haqida bormoqda.

Ana shu maqsadlarga erishish uchun 2011–2015-yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard AQSH dollarini tashkil etgan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi»¹.

Hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yana bir muhim ustuvor yo'nalish – chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga ulkan e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda investorlar uchun o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Ko'rinib turibdiki, investitsiyaning respublikamiz iqtisodiyotidagi o'rni katta. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya tushunchasi bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, uning mohiyati va ahamiyati katta ekanligi bilan ajralib turadi.

¹ Karimov I.A. «Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar.

Bu tushuncha keng qamrovli bo'lib, iqtisodchi olimlarning investitsiyaga doir turli yondashuv va qarashlarini o'z ichiga oladi.

Tavsiya etilayotgan o'quv qo'llanma Oliy ta'limning 230000 – «Iqtisod» sohasidagi 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) ta'lim yo'nalishidagi bakalavrlar, 5A230201 – «Menejment» (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligidagi magistrlar uchun mo'ljallangan bo'lib, investitsiyalarni, ularning iqtisodiy mohiyati hamda makro (mikro) iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati; investitsion faoliyat va investitsiya dasturi; davlat investitsiya dasturi; iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati; real investitsiyalarni moliyalashtirish; investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning muhim shakllari (lizing); investitsiya loyihalarini baholash va investitsiya qarorlarini qabul qilish uslubiyati va uslubi; investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish; investitsiya tavakkalchiliklari va ularni pasaytirish yo'llari kabilarni o'z ichiga oladi.

Mazkur o'quv qo'llanma «Buxgalteriya hisobi va audit» (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fanining dasturi asosida yaratilgan.

I BOB

«INVESTITSİYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH» FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. Investitsiyaning iqtisodiy tushunchasi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni

Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va uni barqaror rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni muhimdir. Respublikamiz Prezidenti ta'kidlaganidek, «...biz iste'molni emas, balki investitsiyalarni ko'paytirdik. Bugungi kunga kelib, bu siyosat o'z samarasini bermoqda»¹. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya mohiyatini to'g'ri va to'la talqin etish katta ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy tizimning makro hamda mikro darajasida keng ishlatiladi. Hozirgi kunda iqtisodchi olimlar tomonidan bu iqtisodiy kategoriyaga turlicha ta'riflar berilgan bo'lsa-da, lekin nazariyotchi va amaliyotchilarni qondiradigan investitsiyaga berilgan yagona ta'rif mavjud emas.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda hamda ilmiy tadqiqotlarda investitsiya ta'rifiga doir turlicha qarashlar mavjud. Bu manbalarda investitsiyaga berilgan ta'riflar,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997. – 192–193-b.

asosan, kapitallarni oshirish yoki joriy daromad (foyda) olish manbai sifatida talqin etilgan. Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya subyektlari investitsiyalarni jalb etish orqali kapitallarini yoki daromadni (foydani) ko'paytirishdan manfaatdor. Shu bilan birga, ayrim hollarda, noiqtisodiy maqsadlar uchun ham investitsiyalardan foydalanishlari mumkinligi yetarli darajada o'z ifodasini topmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda «Investitsiya» bilan «Kapital qo'yilmalar» tushunchasi bir xil, o'xshash deb ifodalanagan, ya'ni investitsiya asosiy vositalarga kapital mablag'larning qo'yilishi sifatida e'tirof etilgan. Ma'lumki, investitsiya aylanma aktivlarning o'sishi, turli moliyaviy instrumentlar hamda nomoddiy aktivlarga ham yo'naltiriladi.

Bu tushunchaga quyidagicha ta'riflar berilgan: «Kapital qo'yilmalar, bu – xo'jalikning takror ishlab chiqarishini kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan xarajatlar majmuyidir»;

«Kapital qo'yilmalar asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish, kengaytirish hamda ularning sifat tarkibini yaxshilash xarajatlarning majmuyidir»;

«Kapital qo'yilmalarga asosiy vositalar foydalanishga topshirilgunga qadar ularni sotib olish uchun korxonaning sarflangan xarajatlari kiradi».

Kapital qo'yilmalar investitsiyaning tarkibiy qismi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Ayrim ta'riflarda investitsiya «uzoq muddatli qo'yilmalar», deb ta'kidlanadi. Darhaqiqat investitsiyaning ayrim turlari, birinchi navbatda, kapital qo'yilmalar, aksiyalar bo'yicha investitsiya va boshqalar uzoq muddatli xarakterga ega, lekin investitsiya qisqa muddatli bo'lishi ham mumkin, masalan, obligatsiyalar, qisqa

muddatli moliyaviy qo'yilmalar, bir yil muddatgacha bo'lgan davr uchun muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlariga yo'naltirilgan investitsiyalar.

Investitsiyadek murakkab iqtisodiy kategoriya tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida «Investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar», deb ta'rif berilgan.

Investitsiyaga doir ta'riflarga xorijiy iqtisodchi olimlar: «Investitsiyalar – joriy lahzada muayyan bir qiymatlikdan kelajakdagi (balki noaniq bo'lgan) qiymatlik uchun voz kechishdir» ya'ni «kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdir»; «Investitsiya, bu – ancha uzoq muddat tugagandan keyin kelajakda daromad olish maqsadida resurslarning sarflanishi»; «Investitsiyalar bu kapitalni joylashtirishning shunday usuliki, u kapital qiymatining saqlanishi yoki o'sib borishining ta'minlashi hamda daromadning ijobiy miqdorini keltirishi lozim»; «Investitsiya, bu kelajakda ko'proq iste'mol qilish sharoitiga ega bo'lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmaydigan, zaxiraga qoldiriladigan iste'mol buyumlari bo'lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir»; «Investitsiya, bu – moddiy zaxiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga xarajatlardir»; «Investitsiyalar faqat bir mamlakat ichida shu mamlakat fuqarolari va tashkilotlari tomonidan emas, balki chet davlatlar va ularning korxona, tashkilotlari tomonidan ham qo'yilishi mumkin. Ular xorijiy investitsiyalar deb atalib, milliy iqtisodiyotga xorijiy mamlakatlar valutasini, ya'ni pul mablag'lari,

qimmatbaho qog'ozlar, kreditlar ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarining barcha shakllarida namoyon bo'ladi»; «Mahsulot sifatini yaxshilash yoki ko'p miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun yangi obyektlarni yaratish, modernizatsiyalash, qayta ta'mirlashga kapitallarni yo'naltirish» kabi fikrlarni ilgari surganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan: «Investitsiyalar, bu – nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor tavakkalchiliklar hamda ko'zlanayotgan samaralarni baholash asosida, o'z va o'zga mablag'lar qiymatini kapitallashuvi va jamg'arilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog'lanishi»; «Investitsiyalar, bu – mulk shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir»; «Investitsiyalar nafaqat qimmatli qog'ozlarni moliyalashtirish, balki asosiy vositalar, aylanma mablag'larga sarflangan mablag'larni o'z ichiga oladi»; «Investitsiyalar, bu – davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning daromad olish va (yoki) boshqa ijobiy samaradorlikka erishish maqsadida mamlakat ichkarisida va tashqarisida yangi korxonalar tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish, ko'chmas mulk, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda aktivlarni sotib olishga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lari, mulkiy va intellektual boylikdir»; «Investitsiya, bu – foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish

uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boylikdir» singari investitsiya tushunchasining turli tomonlarini ilmiy izlanishlarda ifodalashgan. Ta'riflarda investitsiya tushunchasining o'xshash va o'zaro to'ldiruvchi tomonlari o'z ifodasini topgan. Iqtisodchi olimlarning fikrlari tahlili shundan dalolat beradiki, investitsiyalar nazariy va amaliy jihatdan murakkab va ko'p aspektli xususiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy kategoriyadir.

Investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilishi maqsadga muvofiq: *Investitsiya, bu – kapitalning barcha shakllarini xo'jalik faoliyatining turli obyektlariga foyda olish maqsadida kiritilishi hamda bozor tamoyillariga asoslangan tavakkalchilik, likvidlik va vaqt omiliga bog'liq bo'lgan iqtisodiy yoki noiqtisodiy samara olishdir.*

Shunday qilib, «Investitsiya» va «Kapital qo'yilmalar» tushunchalari mohiyatining yoritilishida ularning o'zaro o'xshash jihatlari va farqlariga, ya'ni kapital qo'yilmalarning investitsiyalar tarkibiy qismi ekanligiga e'tibor berish lozim.

1.2. Investitsiyani nazariy va iqtisodiy mazmuni va investitsiyalarning zarurligi. Investitsiyaning shakllari

Iqtisodiy nazariya va investitsion jarayonlarni amalga oshirishda investitsiyalarni turli ko'rinishini belgilovchi yuzdan ortiq tushunchalar mavjud.

Investitsiyalarni samarali boshqarish, tarmoq bo'yicha ilmiy asoslangan investitsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida investitsiyaga doir terminlarni tizimlashtirish va tasniflash lozim. Bu borada iqtisodchi olimlarning turli qarashlari mavjud.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar quyidagi xususiyatiga ko'ra tasniflangan: ishlatilish sohasi, amalga oshirish muddati, turi, ishlatilish yo'nalishi, hajmida, ishlatilishning funksional sohasi bo'yicha. Jumladan, investitsiyalar: real (kapital qo'yilmalar); moliyaviy (portfelli) investitsiyalar; nomoddiy aktivlarga investitsiyalar bo'lishlik fikrlari ilgari surilgan. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida mo'ljallangan obyektga ko'ra, investitsiyalar: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga bo'linadi.

Iqtisodchi olimlarning ilmiy risolalarida investitsiyalarning turli xususiyatlarini inobatga olgan holda tizimlashtirilishi va tasniflanishi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishni aniqlashda yuqorida keltirilgan tasniflanishlar yetarli darajada emasligi ko'rinmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, investitsiyalar (1-rasm)da keltirilgan xususiyatlariga qarab tasniflanishi maqsadga muvofiqdir.

Kapital qo'yilish obyektlariga ko'ra: investitsiyalar real va moliyaviyga bo'linadi.

Real investitsiyalar asosiy vositalarni vujudga keltirish, tovar-moddiy boyliklari zaxirasini oshirishga qo'yiladigan kapital, ya'ni korxonalarni bunyod etish hamda ularning bir maromda ishlashini ta'minlash uchun yetarli miqdorda zaxiralarni barpo etishga yo'naltiriladigan investitsiya miqdoridan iborat.

Moliyaviy investitsiyalar esa daromad olish maqsadida investitsiyalarni turli qimmatli qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar, banklarning depozit sertifikatlari va boshqalar) qo'yilishi nazarda tutiladi. Masalan, ipakchilik tarmog'idagi hissadorlik jamiyati shaklida

I-rasm. Investitsiyalarning tasniflanishi

Kapital qo'yilish obyektlariga ko'ra	Real, moliyaviy	Investitsion jarayonlarda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra	Takror ishlab chiqarish yo'nalishi- ga ko'ra	Daromadlarning bog'liqlik darajasiga ko'ra	Investor- korxonalarga bo'lgan munosabatga ko'ra
		Bevosita bilvosita intellektual	Yalpi renovatsiya sof	Ishlab chiqarish avtonom	Ichki, tashqi
Amalga oshirish muddatiga ko'ra	Uzoq, o'rta qisqa	Birgalikda amalga oshirilishiga ko'ra	Daromad- lilik darajasiga ko'ra	Tavakkalchilik darajasiga ko'ra	Likvidlik darajasiga ko'ra
		Bog'liq bo'lmagan o'zaro bog'liq bo'lga, bir-birini inkor etuvchi	Yuqori o'rta, kam daromad-siz	Tavakkalchiliksiz, past o'rta, yuqori	Yuqori, o'rta, past, nolikvidlik

Investitsiyalanadigan kapitalning hududlar (bozorlar) bo'yicha yo'naltirilishiga ko'ra	Yakka tartibda strategik	Korxona aktivlarini yaratishga ko'ra	Joriy investitsiyalar
Hududlar bo'yicha kapitalni jalb etish manbalariga ko'ra	Milliy xorijiy	Investitsiyalanadigan kapitalning hududlar (bozorlar) bo'yicha yo'naltirilishiga ko'ra	Qo'shimcha investitsiyalar
Investitsiyalash jarayonida kapitalning ishlatilishiga ko'ra	Dastlabki reinvestitsiyalar dezinvestitsiyalar	Ishlab chiqarishni kengaytirishga o'zgarishlarni amalga oshirishga investitsiya jarayonini rasionalizatsiya qilishga, mahsulot ishlab chiqarishning yangi dasturi bajarilishini ta'minlashga ishlab chiqarishda diversifikatsiyani amalga oshirishga, xavf-xatarning oldini olishga	Kapital va boshqa ta'mirlashlarni amalga oshirish dastgohlarni almashtirishga yo'naltirish
Investitsiyalanadigan kapitalning mulkchilik shakliga ko'ra	Xususiy, davlat xorijiy, aralash	O'zaro bog'liqlik darajasiga ko'ra	Tarmoqlarning klassifikatorlariga asosan, tarmoqlar kesimi va faoliyat doirasida

faoliyat ko'rsatayotgan «Kumush» HJning 35% aksiyasini Buyuk Britaniyaning «Kardxil Investment Kompani L.T.D.» kompaniyasi, «Alisher Navoiy to'qimachilik» HJning 43,3% aksiyasini Afg'onistonning «Stars Kompani Limeted» kompaniyasi, «Mustaffo» HJning davlat ulushi hisobidan 25% aksiyasini Chexiyaning «Klub-97» firmasi tomonidan sotib olinishi orqali investitsiyalar kiritilgan.

Investitsiyalar investitsion jarayonlarda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra: bevosita, bilvosita va intellektual investitsiyalarga bo'linadi.

Bevosita investitsiyalar investor tomonidan kapital qo'yilmalarni to'g'ridan to'g'ri investitsion obyektlarga yo'naltirilishini nazarda tutadi. Odatda, bevosita investitsiyalar boshqa korxonalarni ustav fondiga kapitallarning qo'yilishida namoyon bo'ladi.

Bilvosita investitsiyalar investorlar tomonidan vositachi moliyaviy tashkilotlar orqali kapital qo'yilmalarning qo'yilishi tarzida ifodalanadi. Masalan, ipakchilik tarmog'idagi qiymati 6,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan 4 ta pillakashlik korxonalarini modernizatsiyalash loyihasining 85%i Koreya Respublikasining «Eksimbank»i tomonidan moliyalashtirildi.

Intellektual investitsiyalar patentlar, litsenziyalar, nou-xaular, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga investitsiyalarning yo'naltirilishini nazarda tutadi. Hozirgi kunda to'qimachilik tarmog'ida investitsiyani bu turidan yetarli darajada foydalanilmaydi.

Takror ishlab chiqarish yo'nalishiga ko'ra: investitsiyalar yalpi, renovatsiya va sof investitsiyalarga bo'linadi.

Yalpi investitsiya ma'lum davr ichida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni vujudga keltirish uchun

sarflanadigan investitsion kapitalning umumiy hajmini ifodalaydi. **Renovatsiya investitsiyasi** asosiy vositalarni qayta tiklashga qo'yiladigan kapitalning hajmini ifodalaydi. Miqdoriy jihatdan renovatsiya investitsiyasi ma'lum davrdagi amortizatsiya ajratmalari summasiga tenglashtiriladi.

Sof investitsiya asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun investitsiyalanadigan kapital hajmini ifodalaydi. Miqdoriy jihatdan sof investitsiya ma'lum davrdagi yalpi investitsiyadan barcha turdagi amortizatsiyalanadigan kapitallarning amortizatsiya ajratmasi summasining ayirmasi sifatida hisoblanadi.

Daromadlarning bog'liqlik darajasiga ko'ra: investitsiyalar ishlab chiqarish va avtonom investitsiyalarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish investitsiyasi jamg'arish va iste'mol orqali sof daromad olish dinamikasini ifodalaydi.

Avtonom investitsiya sof daromad (foyda)ning shakllanishiga bevosita bog'liq bo'lmagan kapital qo'yilmalarni ifodalaydi. Texnologik jarayonlarni takomillashtirish uchun yo'naltiriladigan investitsiya bunga misol bo'ladi.

Investorlarning korxonalarga bo'lgan munosabatiga ko'ra investitsiyalar ichki va tashqiga bo'linadi.

Ichki investitsiya investor-korxonalar o'zlarining operatsion aktivlarini ko'paytirishga kapitalni yo'naltirishini ifodalaydi.

Tashqi investitsiya kapitalni boshqa korxonalarning real aktivlariga qo'yilishini ifodalaydi.

Amalga oshirish muddatiga ko'ra: shartli ravishda uzoq – 10 yil va undan ko'p; o'rta muddatli – 5 yildan 10 yilgacha va qisqa muddatli – 1 yildan 5 yilgacha

guruhlarga bo'linadi. Masalan, pillakashlik korxonalariga, asosan, qisqa muddatli investitsiyalar kiritiladi.

Investitsiyalar birgalikda amalga oshirilishiga ko'ra: bog'liq bo'lmagan, o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini inkor etuvchi investitsiyalarga bo'linadi.

Bog'liq bo'lmagan investitsiyalar investitsion dastur doirasidagi investitsion loyihaning tarkibiga kiruvchi o'zaro bog'liq bo'lmagan obyektlarga kapitalni yo'naltirishni nazarda tutadi. Masalan, pillakashlik korxonasi qurilishi jarayonida investitsiyalarning pilla chiqindilarini qayta ishlash sexini barpo etishga jalb etilishini shular qatoriga kiritish mumkin.

Ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan va o'zaro bog'liq bo'lgan investitsion obyektlarga **o'zaro bog'liq bo'lgan investitsiyalar** kiritiladi. Masalan, pillakashlik korxonasidagi saralash va pilla o'rash sexlariga shunday ko'rinishdagi investitsiyalar yo'naltiriladi.

Bir-birini inkor etuvchi investitsiyalar o'xshash texnologiyalar va mahsulot turlarini muqobillik asosida tanlashga qaratilgan investitsiyalardir.

Investitsiyalar daromadlilik darajasiga ko'ra: yuqori, o'rta, kam va daromadsiz investitsiyalarga bo'linadi.

Yuqori daromadli investitsiyalar investitsion bozorlardagi o'rtacha foyda me'yoriga nisbatan yuqori sof investitsion foyda darajasini ta'minlovchi loyihalarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

O'rta daromadli investitsiyalar investitsion bozorlarda shakllangan foyda me'yoriga mos keladigan, sof investitsion foydani olish imkoniyatini beradigan loyihalarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

Kam daromadli investitsiyalar sof investitsion foydaning darajasi, uning o'rtacha me'yoridan kam bo'lgan obyektlarga investitsiyalar yo'naltirilishini ifodalaydi.

Daromadsiz investitsiyalar investor tomonidan foyda olmaslik maqsadida investitsion obyektlarni investitsiyalashni ifodalaydi. Odatda, bunday investitsiyalardan ijtimoiy, ekologik va boshqa noiqtisodiy samara olish maqsad qilib qo'yiladi.

Investitsiyalar tavakkalchilik darajasiga ko'ra: tavakkalchiliksiz, past, o'rta va yuqoriga bo'linadi.

Tavakkalchiliksiz investitsiyalar hisoblangan, real, sof investitsion foyda olinishi kafolatlangan yoki kapitalni yo'qotish xavfi bo'lmagan investitsion obyektlarga mablag'lar qo'yilishini ifodalaydi.

Past tavakkalchilikli investitsiyalar bozordagi o'rtacha xavf-xatar darajasidan past bo'lgan investitsion obyektlarga kapital yo'naltirilishini ifodalaydi.

O'rta tavakkalchilikli investitsiyalar bozordagi o'rtacha xavf-xatar darajasiga mos keladigan investitsion obyektlarga kiritilgan kapital.

Yuqori tavakkalchilikli investitsiyalar bozordagi o'rtacha xavf-xatar darajasidan yuqori bo'lgan investitsion obyektlarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

Likvidlik darajasiga ko'ra: yuqori, o'rta, past, nolikvidli investitsiyalarga bo'linadi.

Yuqori likvidli investitsiyalarga joriy bozorda o'z qiymatini yo'qotmagan holda, qisqa muddat ichida (odatda bir oygacha) pul shakliga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lgan investitsion obyektlarga yo'naltiriladigan investitsiyalar kiradi.

O'rta likvidli investitsiyalar joriy bozorda o'z qiymatini yo'qotmagan holda, odatda, bir oydan olti oygacha bo'lgan muddat ichida pul shakliga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lgan investitsion obyektlarga kiritiladigan investitsiyalardir.

Past likvidli investitsiyalar joriy bozorda o'z qiymatini yo'qotmagan holda, uzoq muddatdan ke-

yin (yarim yil va undan ko'p) pul shakliga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lgan investitsion obyektlarga kiritiladigan investitsiyalar.

Nolikvidli investitsiyalar deganda alohida amalga oshirish imkoniyati bo'lmagan va investitsion bozorlardagi barcha mulk tarkibiga birgalikda kiritiladigan investitsiyalar tushuniladi.

Investitsiyalanadigan kapital mulkchilik shakliga ko'ra: xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga bo'linadi.

Xususiy investitsiyalar jismoniy shaxslar, shuningdek, nodavlat mulk shakliga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan kapitallarni to'qimachilik korxonalariga qo'yilishini ifodalaydi.

Davlat investitsiyalari kapitallarni davlat budjeti va budjetdan tashqari davlat fondlari hamda davlat korxonalari tomonidan qo'yilishini ifodalaydi.

Xorijiy investitsiyalar chet ellik investorlar foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shayotgan mulkiy boyliklarning va ularga nisbatan huquqlarning, shuningdek, intellektual mulkka nisbatan huquqlarning barcha turlari chet el investitsiyalari hisoblanadi.

Boyliklarning birlamchi yoki takror qo'shish shaklining biron bir tarzda o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi mohiyati o'zgarishiga olib kelmaydi. Masalan, hozirgi kunda yiliga 145 tonna xom ipak ipini ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «Xua-Lu» xorijiy pillakashlik korxonasi 100 % xorijiy investitsiya asosida ishlayotgan korxona hisoblanadi.

Aralash investitsiyalar investitsiya obyektlariga xususiy va davlat kapitali qo'yilishini ifodalaydi. Masalan, ipakchilik tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan 6 ta

qo'shma korxona aralash investitsiya asosida tashkil etilgan bo'lib, ularning 64,1% ini xorijiy investitsiyalar, qolgan 35,9% ini esa «O'zbekyengilsanoat» DAK ulushi tashkil etadi.

Investitsiyalash jarayonida kapital ishlatilishiga ko'ra: dastlabki investitsiyalar, reinvestitsiyalar, dezinvestitsiyalarga bo'linadi.

Dastlabki investitsiyalar o'z mablag'i hamda qarz shaklidagi moliyaviy resurslar hisobiga investitsion maqsadlar uchun qayta shakllangan kapital ishlatilishini ifodalaydi.

Reinvestitsiyalar investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

Dezinvestitsiyalar investitsion maqsadlar uchun qayta ishlatmaslik sharti bilan ilgari kiritilgan investitsion kapitalni investitsion oborotdan ajratib olish jarayonini ifodalaydi. Masalan, korxona ko'rgan zararni qoplash uchun yo'naltirilgan investitsiya.

Hududlar bo'yicha kapitalni jalb etish manbalariga ko'ra: milliy va xorijiy investitsiyalarga bo'linadi.

Milliy investitsiyalar mamlakatimizdagi turli investitsion obyektlarga korxonalar yoki davlat tashkilotlarining kapitali qo'yilishini ifodalaydi.

Xorijiy investitsiyalar respublikamizdagi investitsion obyektlarga xorijdagi yuridik yoki jismoniy shaxslarning kapitali qo'yilishini ifodalaydi. Bunday investitsiyalar davlat tomonidan kafolatlangan yoki to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar shaklida kiritiladi. Masalan, hozirgi kunda pillakashlik korxonalariga to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar kiritilmoqda.

Kapitalning hududlar (bozorlar) bo'yicha yo'naltirilishiga ko'ra, investitsiyalar ichki va xalqaro investitsiyalarga bo'linadi.

Ichki investitsiyalar mamlakat ichidagi turli shakldagi kapitallarning qo'yilishini ifodalaydi.

Xalqaro investitsiyalar (yoki xalqaro bozordagi investitsiyalar) mamlakatdagi turli shakldagi kapitallarni uning tashqarisida qo'yilishini ifodalaydi.

Korxona aktivlarini yaratishga ko'ra: yangi barpo etiladigan korxonalar yoki ular tarkibida barpo etiladigan shu'ba korxonalar aktivlarini yaratishini ifodalaydi. Bular, o'z navbatida, yakka tartibdagi va strategik investitsiyalarga bo'linadi.

Yakka tartibdagi investitsiyalar korxonaning joriy faoliyati davomida yangi ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish uchun ishlatiladigan investitsiya.

Strategik investitsiyalar strategik investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan investitsiyalar.

Tarmoq bo'yicha yo'naltirilishiga ko'ra tasniflanishda, tarmoqlar kesimi va faoliyat doirasida investitsiyalarning taqsimlanishi nazarda tutiladi. Bunday tasniflanish davlat tomonidan tarmoqlar bo'yicha investitsiyalash jarayonini boshqarishda hamda tarmoqlarning investitsion jozibadorligini baholashda qo'llaniladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 15-noyabrdagi PQ-512 sonli qarorida 2006-2010-yillar mobaynida xorijiy investitsiyalar kiritish asosida ipakchilik tarmog'i rivojlantirilishi belgilangan.

O'zaro bog'liqlik darajasiga ko'ra: yakka holda ajratilgan, tashqi omillarga bog'liq bo'lgan va tashqi omillarga ta'sir etuvchi investitsiyalarga bo'linadi.

Yakka holda ajratilgan investitsiyalar boshqa investitsiyalarga ehtiyoj qoldirmaydigan qo'yilmalar.

Tashqi omillarga bog'liq bo'lgan va ta'sir etuvchi investitsiyalar o'zaro bog'liq bo'lib, ular inflyatsiya

darajasi, ijtimoiy infrastruktura, ishlab chiqarishning mavjudligiga va boshqa omillarga bog'liq bo'lgan kapital qo'yilmalar.

Qo'shimcha investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirishga, o'zgarishlarni amalga oshirishga: investitsiya jarayonini ratsionalizatsiya qilishga, mahsulot ishlab chiqarish yangi dasturining bajarilishini ta'minlashga, ishlab chiqarishda diversifikatsiyani amalga oshirishga va xavf-xatarning oldini olishga investitsiyalar yo'naltirilishini ifodalaydi.

Joriy investitsiyalar kapital va boshqa ta'mirlashlarni amalga oshirish va dastgohlarni almashtirishga investitsiyalar yo'naltirilishini ifodalaydi.

Tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda, ishlab chiqilgan va tavsiya etilayotgan investitsiyalarning tasniflanishi investitsion jarayon ishtirokchilari (investorlar, tijorat banklari, kredit muassasalari, davlat, korxonalar va boshqa moliyaviy institutlar) uchun iqtisodiy axborot manbayi sifatida investitsiyaga doir qarorlarni qabul qilish uchun xizmat qiladi.

1.3. Davlat investitsion siyosati

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini boshqarish va nazorat qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar va takliflar bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantirish monitoringning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- respublika investitsiya dasturiga kiritilgan va birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

- davlat boshqaruvi organlarining, investitsiya jara-yoni boshqa qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning investitsiya loyihalarini, ular to'liq tugallangunga qadar, amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni o'z vaqtida hal etish yuzasidan javobgarligini oshirish;

- investitsiya loyihalari harakatiga ularni amalga oshirishning barcha bosqichlarida to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va o'rganish, shu jumladan, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan turli masalalarni ko'rib chiqish muddatlarini o'zgartirish yo'li bilan bartaraf etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish;

- investitsiya loyihalari tasdiqlangan hajmlar va muddatlarga qat'iy rioya qilingan holda investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va vakolatli banklar tomonidan mablag'lar bilan o'z vaqtida ta'minlanishi ustidan nazorat qilish;

- investitsiya loyihasi bo'yicha xorijiy sheriklar oldida qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishiga ko'maklashish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Aniq dasturga ega va O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining tarkibiy qismi bo'lgan investitsiya loyihalari monitoring obyekti hisoblanadi.

Investitsiya dasturining tarkibiy qismi bo'lgan ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan loyihalar bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantiriladi.

Unda:

- investitsiya loyihasining tashabbuskori tomonidan tasdiqlangan investitsiya loyihalarining aniq dasturiga kiritilgan investitsiya loyihasi pasporti;

- har bir investitsiya loyihasini amalga oshirishning investitsiya loyiholari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan reja-jadvallari;

- ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan investitsiya takliflari bo'yicha ishlab chiqiladigan yangidan boshlanayotgan ustuvor investitsiya loyihalarini olg'a surish chora-tadbirlari dasturi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihasi tashabbuskori tomonidan har oyda taqdim etiladigan axborot asosida shakllantiriladi.

Investitsiya loyihasi pasportida investitsiya loyihasi tashabbuskori, xorijiy sherik, loyihaning umumiy qiymati va barpo etilayotgan ishlab chiqarishning loyihadagi quvvati, mahsulotni eksport qilish, mablag' bilan ta'minlash manbalari va sxemasi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar, loyihaning qoplanish va qarz mablag'larini qaytarish muddatlari to'g'risidagi axborotlar, shuningdek, zarurat bo'lganda, xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxona bo'yicha ma'lumotlar ifodalanadi.

Reja-jadvalda yangi tashkil etilayotgan korxonaning texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish (zarurat bo'lganda), asosiy kontraktni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish, investitsiya loyihasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorini tayyorlash va qabul qilish, kredit bitimlarini imzolash, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash, milliy va xorijiy valutada mablag' bilan ta'minlashni boshlash, ishlab chiqarish

1.3.1-jadval

Viloyatlar kesimida ishga tushirilgan obyektlar

hududlar nomi	Loyihalar soni	Mahsulot quvvati	Loyihaning qiyamati (mln.USD)	Yangi ish o'rinlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4	Ip kalava – 12,2 ming t Trikotaj matosi – 1,5 ming t Trikotaj buyumlari – 1,8 mln. dona Tikuv buyumlari – 0,6 mln. dona	16 375,3	700
Andijon	3	Ip kalava – 5,0 ming t Trikotaj matosi – 2,5 ming t Trikotaj buyumlari – 1,3 mln. dona	11 703,3	584
Buxoro	3	Ip kalava – 1,0 ming t Mato – 7,5 mln. p. m. Tikuv buyumlari 0,5 mln. dona	3 970,0	220
Namangan	4	Ip kalava – 8,4 ming t Tikuv buyumlari – 2,0 mln. dona	12 427,0	440
Samarqand	2	Ip kalava – 0,9 ming t Trikotaj matosi – 0,2 ming t Trikotaj buyumlari – 1,2 mln. dona	2 663,6	117

Sirdaryo	2	Ip kalava – 7,25 ming t	10 000,0	175
Toshkent	4	Ip kalava – 11,3 ming t Tikuv buyumlari – 1,8 mln. dona	60 084,0	800
Farg'ona	2	Ip kalava – 8,0 ming t Bo'yalgan ip kalava – 2,0 ming tn.	18 500,0	150
Xorazm	2	Ip kalava – 5,5 ming t	26 100,0	200
Toshkent sh.	2	Ip kalava – 8,0 ming t	21 000,0	350
Jami:	28	Ip kalava 60,5 ming t, Mato 7,5 mln.p.m., Trikotaj matosi 6,2 ming t, Trikotaj buyumlari 3,7 mln. dona	194,8	3 736

maydonlarini va infratuzilma obyektlarini qurish, texnologik asbob-uskunalarini o'rnatish, korxonaning loyihadagi quvvatga chiqishi bo'yicha aniq muddatlar to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

Chora-tadbirlar dasturi Xalqaro moliya va iqtisodiy institutlar hamda donor mamlakatlar ishtirokida Investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish reglamentiga muvofiq ishlab chiqiladi va investitsiyalashdan oldin investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini tasdiqlash va mablag' bilan ta'minlashning aniq manbalarini belgilashgacha bo'lgan ishlar majmuasidan (ularni bajarishning prognozi muddatlarini ko'rsatgan holda) iborat.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi har oyda:

- xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish to'g'risida Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan yig'ma statistika axboroti bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan;

- markazlashtirilgan investitsiyalardan, shu jumladan, hukumat kafolati ostida jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan foydalanish bo'yicha – Moliya vazirligi va tijorat banklari tomonidan;

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha – Adliya vazirligi tomonidan;

- xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalari paketini xorijiy investorlarga sotish, mulkida davlat ulushi bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati bo'yicha – Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan;

- kichik va xususiy biznes sohasidagi, shu jumladan, jalb etilayotgan xorijiy kredit liniyalari ishtirokidagi investitsiya loyihalari bo'yicha – Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan;

- loyiha ko'rsatkichlari (loyihadagi quvvatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini barpo etish) investitsiya loyihasi tashabbuskori tomonidan bajarilishi yuzasidan taqdim etiladigan axborotlar asosida ma'lumotlar banki yangilab boriladi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari majlislarida ko'rib chiqiladi.

Investitsiya dasturi doirasida 2012-yilda 1,8-miliard AQSH dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish mo'ljallanganligi istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sish jarayonlari kuzatilishi kutilayotganligidan dalolat beradi. Mazkur xorijiy investitsiyalarning 75% i to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ulushiga to'g'ri keladi.

1.3.2-jadval

Ipakchilik tarmog'ida 2007–2012-yillar mobaynida amalga oshirilgan investitsion loyihalar

Korxonalarning nomi	Joylashgan hudud	Xom ipak ishlab chiqarish quvvati, t	Loyihaning qiymati, ming USD
QK «Romstar» (XXR)	Buxoro	100	1120
QK «helil Silk» (XXR)	Namangan	50	800
QK «Ravnaq Silk» (XXR)	Toshkent	50	550
XK «Singapore-Samarqand» (BAA)	Samarqand, Farg'ona	250	1970
MCHJ «Xorazm Ipagi» (O'zbekiston)	Xorazm	75	460
QK «Silver Silk» (Buyuk-Britaniya)	Farg'ona	225	2742
QK «Malobar Silk» (BAA)	Navoiy	30	330
SHK «Golden Silk» (Vetnam)	Namangan	100	1253
Xus.K «Surxon Termiz Silk» (O'zbekiston)	Surxondaryo	100	1500
Xus.F «Jizzax Kuxinur» (O'zbekiston)	Jizzax	75	750
SHK «Asia Silk» (Vetnam)	Qoraqalpog'iston Respublikasi	50	400
QK «Muborak Pure Silk» (XXR)	Namangan	50	500

MCHJ «Kumushkent Ipagi» (O'zbekiston)	Buxoro	50	400
Jami:		1205	12775

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini, bugungi va ertangi kutiladigan ta'sirini hisobga olgan holda, qat'iy, har tomonlama o'ylangan keng ko'lamli loyihalar bugun amalga oshirilmoqda».

Darhaqiqat, hozirgi kunda tashqi dunyo bilan ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalarimiz rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirishimizda xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyalariga asoslangan investitsiyalariga ehtiyoj mavjud. Qolaversa, jahon bozoridagi talabning pasayib borishi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarimizning eksport ko'lamiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunga asoslangan holda, hukumatimiz tomonidan Inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur Dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuyi o'z aksini topdi.

Bu holat milliy iqtisodiyotimizning yuqori investitsion salohiyatga ega bo'layotganligi va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Natijada 2011-yilda 1,5 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi, ularning 70% i to'g'ridan to'g'ri jalb qilinadigan investitsiyalar ulushiga to'g'ri keladi. Jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan real sektorlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan.

Test topshirig'i

1. Real investitsiyalar quyidagi maqsadlarda kiritiladi:

- A. Qonun tomonidan taqiqlanmagan har qanday tadbirkorlik faoliyatiga
- B. Moliyaviy vositalarni sotish va sotib olishga
- C. Asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarishga
- D. Tadbirkorlik faoliyatida asosiy va aylanma kapitalni tashkil etish maqsadida

2. Ichki investitsiyalar nima?

- A. Mazkur mamlakatda investitsiya faoliyatini yuritayotgan investor tomonidan yo'naltirilgan investitsiyalardir
- B. Boshqa mamlakatda investitsiya faoliyatini yuritayotgan investor tomonidan yo'naltirilgan investitsiyalardir
- C. Investitsiya faoliyatini yuritayotgan investor tomonidan yo'naltirilgan pul mablag'laridir
- D. Investor tomonidan boshqa investitsiya faoliyatini yuritayotgan investorga yo'naltirilgan investitsiyalardir

3. Kimlar investitsiya faoliyati qatnashchilari hisoblanadi?

- A. Investitsiya tashkilotlari, investitsiya fondlari, tijorat banklari
- B. Budjetdan tashqari fondlar, sug'urta kompaniyalari va tashkilotlari
- C. Faqat davlat va nodavlat korxonalari va tashkilotlari
- D. Qonun tomonidan ruxsat etilgan barcha jismoniy va yuridik shaxslar

4. Reinvestitsiya nima?

- A. Investitsiya faoliyati natijasida olingan foydani muomaladan chiqarish
- B. Investitsiya faoliyati natijasida olingan foydani qayta investitsiyalash
- C. Investitsiya faoliyati natijasida olingan foydani mulkdorlar o'rtasida taqsimlanishi va chet elga olib ketilishi
- D. Investitsiya faoliyati natijasida olinishi kutilgan foydani boy berilishi

5. **Kapital qo'yilmalar investitsiyalar tushunchasi bilan qanday farqlanadi?**
 - A. Farqlanmaydi
 - B. Kapital qo'yilmalar faqat qimmatli qog'ozlar sotib olishga yo'naltiriladi
 - C. Kapital qo'yilmalar investitsiyalar tarkibiga kirib, asosan, korxonalarning asosiy fondlarini tiklash, qayta ta'mirlash, butunlay yangilashga yo'naltiriladi
 - D. Kapital qo'yilmalar investitsiyalar tarkibiga kirib, asosan, korxonalarning asosiy fondlarini tiklash, qayta ta'mirlash, butunlay yangilashga yo'naltirilmaydi
6. **Moliyaviy investitsiyalar nima?**
 - A. Bu muomaladagi moliyaviy vositalar
 - B. Qimmatli qog'ozlar
 - C. Banklardagi qo'yilmalar
 - D. Bu muomaladagi moliyaviy vositalar, shuningdek, bank depozitlariga muayyan muddatga bog'langan investor mablag'lari
7. **Investitsiyalar mo'ljallangan obyektiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?**
 - A. Real, moliyaviy
 - B. Portfel, moliyaviy
 - C. Kapital, innovatsion, ijtimoiy
 - D. Venchur, real
8. **Tashqi investitsiya faoliyatini amalga oshirishda qanday omillar o'rganiladi?**
 - A. Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat
 - B. Mamlakatdagi ijtimoiy vaziyat
 - C. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat
 - D. Mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vaziyat
9. **hudud infratuzilmasining rivojlanganligi – bu qaysi omillar guruhiga kiradi?**
 - A. Ijtimoiy

- B. Siyosiy
- C. Intellektual
- D. Iqtisodiy

10. « _____ » – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsion risk darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir.

- A. Investitsiya muhiti
- B. Investitsiya faolligi
- C. Investitsiya jozibadorligi
- D. Investitsiya salohiyati

«Blits-so'rov» uchun savollar va topshiriqlar

1. Fanning predmeti haqida ma'lumot bering.
2. Fanning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
3. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
4. O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari masalalari.
5. Hududlarning investitsion faolligini baholash.
6. Investitsion bozorning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
7. Mintaqalarda korxonalarga investitsiyani jalb qilish qobiliyatini baholash.
8. Investitsion dasturning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
9. Investitsion dasturga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish monitoringi vazifasi nimalardan iborat?
10. Ma'lumotlar banki qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi?
11. Investitsiya loyihasi pasporti qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi?
12. Investitsiya loyihasini amalga oshirish Reja – Jadvali qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi?
13. Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi qaysi vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqiladi?

**«Aqliy hujum» usulidan
foydalanish uchun savollar va topshiriqlar**

1. Investitsion bozorning tuzilishi.
2. O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilish masalalari.
3. «Investitsiyalar». «Kapital qo'yilmalar» haqida nimalarni bilasiz?
4. Moliyaviy (portfel) investitsiyalar haqida ma'lumot bering.
5. Real (moddiy) investitsiyalar haqida ma'lumot bering.
6. Intellektual investitsiyalar haqida ma'lumot bering.
7. Investitsiya faoliyatining subyektlari va obyekti haqida ma'lumot bering.
8. «Kapital qo'yilmalar» deganda nimani tushunasiz?
9. Investitsiya va kapital qo'yilmalar o'rtasidagi o'xshashlik va farq nimadan iborat?
10. Investitsiya tushunchasi ta'rifiga doir iqtisodchi olimlarning yondashuvlariga munosabatingizni bildiring.
11. Investitsiyalarning qanday shakllarini bilasiz?
12. Investitsiyalar qanday xususiyatlariga qarab tasniflanadi?
13. O'zbekistonda investitsiya yo'naltiriladigan ustuvor tarmoqlardan qaysi birini bilasiz?
14. Iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalarini jalb etish zarurati va ahamiyatini sharhlab bering.
15. Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kiritilishi uchun qanday imtiyozlar belgilangan?

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda gi «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son, 10-modda.
2. «O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi

- Prezidentining qarori, 2006-yil 9-oktabr, PQ – 484-son. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-y. 41(229)-son 411-modda.
3. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997. – 192–193b.
 4. *Бирман Г., Шмидт С.* Экономический анализ инвестиционных проектов. / пер. с англ. / Под ред. Л.П. Белых. – М.: «Банки и биржи», ЮНИТИ, 1997. – 13 с.
 5. *Vohidov S.V.* va boshq. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 6 b.
 6. *Вахрин П.И., Нишантой А.С.* Инвестиции: Учебник. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2005. – 376 с.
 7. *Дэниелс Джон Д., Рабеда Ли Х.* Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции. Пер. с англ. 6-е изд. – М.: «Дело» ЛТД, 1994. – 10–11 с.
 8. *Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.YU., Mamatov B.S.* Investitsiya loyihalari tahlili. – T.: «Sharq» 2003. – 18b.
 9. *Иванов Г.И.* Инвестиции, сущность виды, механизмы, функционирование. – Ростов н/Д: «Феникс», 2002. – 250 с.
 10. *Лоренс Ж. Гитман, Майкл Д. Жонк.* Основы инвестирования. Пер. с англ. – М.: «Дело», 1999. – 10 с.
 11. *Клас Эклунд.* Эффективная экономика. Шведская модель. – М.: «Экономика», 1999. – 96 с.
 12. *Karimov A.A. va boshq.* Buxgalteriya hisobi. T.: Sharq, 2004. – 222 b.
 13. *Колтынок Б.А.* Инвестиции. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2000. – 422 с.
 14. *Макконелл К. Р., Брю С.Л.* Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том, – М.: Изд-во Республика, 1992. – 388 с.
 15. *Hasanov B., Egamberdiyeva S.* Kapital qo'yilmalar hisobi va auditini takomillashtirish. Monografiya. – T.: «Fan» nashriyoti, 2007. – 7 b.

16. *Чистов Л.М.* Эффективное управление социально-экономическими системами. Теория и практика. – СПб.: «Петрополис» 1998. – 9 с.
17. *Шарп У., Александр Г., Бейли Д.* Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА – М, 1999. – XII, - 1 с.
18. *G'ozibekov D.G'.* Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati – T.: 2002. – 6 b.
19. *Quziyeva N.R.* «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari» Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati – T.: 2007. – 10–11 b.
20. *Haydarov N.H.* «Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari» Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati – T.; 2005. – 6-b.

II BOB

INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGI VA VAQT KONTSEPSIYASI ASOSIDA INVESTITSION DAROMADLARNI HISOBLASH

Investitsion loyiha samaradorligini aniqlashda samaradorlikni aniqlash usuli va ko'rsatkichlarni tanlashga e'tibor beriladi. Jumladan, sanoat korxonalari uchun quyidagi ko'rsatkichlar samarali hisoblanadi:

- aktivlarning joriy qiymati asosida hisoblangan ishlab chiqarish rentabelligi;
- mahsulotni sotish hajmi rentabelligi;
- moddiy va mehnat resurslarining ishlatilish samaradorligi;
- jalb etiladigan investitsiyalardan olinadigan daromad.

Shu bilan bir qatorda, foyda hajmi va amortizatsiya ajratmasi ham korxonalar uchun investitsion loyihani baholashning asosiy mezonini sifatida qaraladi.

Aksariyat xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida investitsion loyiha samaradorligini baholashda vaqt mezonini hisobga oladigan quyidagi ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etilgan:

1. Diskontlash bo'yicha baholashga asoslangan «dinamik» usullar:

- investitsion loyiha samaradorligini diskontlashning sof joriy qiymat usuli asosida baholash – NPV (Net Present Value);
- investitsion loyiha samaradorligini diskontlashning investitsiyalar rentabellik indeksi asosida baholash – PI (Profitability Index);

- investitsion loyihaning samaradorligini diskontlashning foydaning ichki me'yori usuli asosida baholash – IRI (Internal Rate Index);

- investitsion loyihaning samaradorligini diskontlashning qoplash muddati usuli asosida baholash – DPP (Discounted Payback Period).

2. Hisoblash bo'yicha baholashga asoslangan «statistik» usullar:

- investitsiyani qoplash muddati usuli – PP (Payback Period);

- investitsiya samaradorligi koeffitsienti usuli – ARR (Accounted Rate of Return).

Real investitsion loyihalar samaradorligini baholashning asosiy ko'rsatkichlaridan foydalanish va hisoblash uslubi yotini batafsil ko'rib chiqamiz.

2.1. Investitsiyalarning muqobil variantlarini joriy etishda NPV-sof joriy qiymatni taqqoslash usuli

Investitsion loyihani samaradorligini diskontlashning sof joriy qiymat (NPV – Net Present Value) usuli investitsiyalashning natijalari to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumot olish imkonini beradi, ya'ni uning mutlaq summasidagi yakuniy samarasini.

Diskontlashning sof joriy qiymati, bu – muayyan vaqt oraliq'ida daromad va kapital qo'yilmalar orasidagi diskontlangan farqni ifodalaydi

Investitsion loyiha samaradorligini hisoblashning asosiy mezonini sifatida diskontlangan *NPV* usulidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi talqin qilinadi.

Investitsion loyihalarning **NPV** usuli qo'llanilishi natijasida investitsion xarajatlar bilan kelajakda olinadigan daromad orasidagi nisbat aniqlanadi. Shuning uchun amaliyotda **NPV** usulidan keng foydalaniladi.

Pulning vaqt va tavakkalchilik omillari ta'sirida o'zgarishi diskontlash koeffitsienti yordamida hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida o'z qiymatini sof joriy qiymatga teng miqdorda oshirishdan manfaatdor.

Pulda ifodalangan investitsion loyihani amalga oshirish mobaynida **NPV** ko'rsatkichi ijobiy (musbat) qiymatga ega bo'lishi dastlabki xarajatlar qoplanishini bildiradi.

Investitsion loyihaning **NPV** qanchalik yuqori bo'lsa, uning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va bu loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinadi.

Agar investitsion loyihani **NPV** salbiy (manfiy) qiymatga ega bo'lsa, belgilangan foyda normasi ta'minlanmaydi, ya'ni loyiha samarasiz (zararli) hisoblanadi. Bunday loyihaning tatbiq etilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Investitsion loyihaning **NPV** nolga tengligi uni faqatgina kapital xarajatlar qoplanishi va foyda keltirmasligini bildiradi. Bu xildagi loyihalarning ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq emas.

Pul oqimlari vaqtga bog'langan holda taqsimlanganligi sababli diskontlashtirish foiz stavkalari r bo'yicha amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, diskontlash stavkasi darajasining to'g'ri asoslanishi muhim hisoblanadi.

Investitsion xarajatlar amalga oshirilganda investitsion loyihaning **NPV** quyidagicha hisoblanadi:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{SPO_t}{(1+r)^t} - IX$$

bu yerda, SPO_t – alohida shakldagi investitsion loyihalar amalga oshirilgandagi sof pul oqimlari summasi;

IX – investitsion loyihalarning amalga oshirilgandagi investitsion xarajatlar summasi;

t – hisoblash davridagi n intervallar soni.

Investitsion xarajatlar bir necha bosqichda amalga oshirilsa, u holda investitsion loyihaning sof joriy qiymati NPV quyidagicha hisoblanadi:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{SPO_t}{(1+r)^t} - \sum_{t=1}^n \frac{IX_t}{(1+r)^t}$$

bu yerda, IX_t – investitsion loyihadan foydalanish davridagi intervallar bo'yicha investitsion xarajatlar summasi.

I-misol. Pillakashlik korxonasi qiymati 2 mln. USD ga teng bo'lgan loyihani tahlil qiladi. Quyidagi jadvalda sof pul tushumining qiymati keltirilgan.

(mln. USD)

yil	A loyiha	B loyiha
1	0,9	0,8
2	1,6	1,1
3	–	0,6

Investitsion loyihalar bo'yicha muqobil xarajatlar 12% ga teng.

Har bir investitsion loyiha bo'yicha NPV ni aniqlaymiz. Qaysi loyiha afzal?

A loyiha^{ning} sof joriy qiymati teng:

$$NPV = \frac{0,9}{1+0,12} + \frac{1,6}{(1+0,12)^2} - 2 = 0,08 \text{ mln. USD}$$

B loyihaⁿⁱ sof joriy qiymati teng:

$$NPV = \frac{0,8}{1+0,12} + \frac{1,1}{(1+0,12)^2} + \frac{0,6}{(1+0,15)^3} - 2 = 0,02 \text{ mln. USD.}$$

$0,08 > 0,02$ bo'lganligi sababli A loyiha qabul qilinadi.

1-topshiriq. Pillakashlik korxonasi ikkita 2,5 mln. USD ga teng bo'lgan investitsion loyihaⁿⁱ tahlil qiladi. Quyidagi jadvalda sof pul tushumining qiymati keltirilgan.

(mln. USD)

Yil	A loyiha	B loyiha
1	1,2	0,9
2	1,8	1,3
3	-	0,8

Investitsion loyihalar bo'yicha muqobil xarajatlar 11% ga teng.

Har bir investitsion loyiha bo'yicha *NPV* ni aniqlang. Qaysi loyiha afzal?

Yuqoridagi misol va topshiriqⁿⁱ zamonaviy kompyuter texnologiyasidan foydalanilgan holda hisoblaymiz.

(Microsoft Office Excel) dasturidagi f_x funksiya yordamida (*NPV* yoki *CHPS*) diskontlashni stavkasi, shuningdek, kelgusi to'lov qiymat (manfiy) va tushum (musbat) to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda investitsiya^{ning} sof joriy qiymatini aniqlaymiz.

1-misol ma'lumotlari yordamida hisoblash natijalari qo'yidagicha:

A loyihani $NPV(0,12; -2; 0,9; 1,6) = 0,08$ mln. USD;

B loyiha uchun $NPV(0,12; -2; 0,8; 0,6) = 0,02$ mln. USD.

2-topshiriq. Pillakashlik korxonasining investitsion loyihasi bo'yicha sof joriy qiymat summasini aniqlang:

– loyihani amalga oshirish muddati – 5 yil.

– loyiha bo'yicha umumiy investitsion xarajat hajmi 1000000 USD. Investitsion xarajatlar summasi yillar bo'yicha quyidagicha: 1 yil – 700000 USD; 2 yil – 300000 USD.

– loyiha bo'yicha sof pul oqimining hisoblangan summasi 1800000 USD, loyihaning uchinchi yildan boshlab bir maromda sof pul oqimi shakllanadi (yiliga 600000 USD)

– loyihaning diskontlangan stavkasi yiliga 10% ni tashkil qiladi.

Investitsion xarajatlar oqimining haqiqiy qiymati va investitsion loyiha bo'yicha sof pul oqimini hisoblang.

1) Diskontlangan stavka 10%, quyidagi formula orqali hisoblaymiz: $D = 1/(1+r)^n$

$$D = 1/(1+0,1)^0 = 1,0;$$

$$D = 1/(1+0,1)^1 = 0,909;$$

$$D = 1/(1+0,1)^2 = 0,826;$$

$$D = 1/(1+0,1)^3 = 0,751;$$

$$D = 1/(1+0,1)^4 = 0,683.$$

2) Hozirgi qiymatdagi loyiha bo'yicha umumiy investitsion xarajat hajmi: $700000 \times 1,0 = 700000$;
 $300000 \times 0,909 = 272000$ USD.

(USD)

Investitsion loyihaga oid ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Loyihani amalga oshirish yillari					Umumiy haqiqiy qiymat	Umumiy qiymat	Umumiy haqiqiy qiymat
	1	2	3	4	5			
Loyiha bo'yicha umumiy investitsion xarajat hajmi	700000	300000	-	-	-	-	1000000	-
Sof pul oqimi	-	-	600000	600000	600000	-	1800000	-
Diskontlangan stavka, 10%	1,000	0,909	0,826	0,751	0,683	-	-	-
Hozirgi qiymatdagi loyiha bo'yicha umumiy investitsion xarajat hajmi	700000	272000	-	-	-	-	-	972000
Hozirgi qiymatdagi sof pul oqimi	-	-	496000	451000	410000	-	-	1357000

3) Hozirgi qiymatdagi sof pul oqimi:

$$600000 \times 0,826 = 496000; \quad 600000 \times 0,751 = 451000 \text{ USD}; \\ 600000 \times 0,683 = 410000 \text{ USD}.$$

Investitsion xarajatlarning umumiy summasi va sof pul oqimining hozirgi qiymatini hisobga olgan holda, investitsion loyiha bo'yicha sof joriy qiymat summasini aniqlaymiz.

$$NPV = 1357000 - 972000 = 385000 \text{ USD}.$$

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsion loyihani amalga oshirish natijasida sof joriy qiymat summasi 385000 USD ni tashkil etadi.

2.2. Investitsiyalarning muqobil variantlarini joriy etishda daromadning ichki me'yori asosida taqqoslash usuli – IRI (Internal Rate Index)

Daromadning ichki me'yori (IRI) hisoblash usuli. Daromadning ichki me'yori deb, loyihaning sof joriy qiymati 0 ga teng bo'lgan foiz stavkasi tushuniladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida, kapital qo'yilmalarni tahlil qilishning dastlabki bosqichi sifatida **IRI** ko'rsatkichidan foydalaniladi. Loyihalar tanlovida keyingi bosqichga **IRI** ko'rsatkichi 10–20% dan kam bo'lmagan investitsion loyihalar tanlab olinadi.

Bu mezon investitsiyadan pul oqimining kelajakdagi qiymatini diskont stavkasi bilan belgilangan investitsion mablag'larning hozirgi qiymatiga keltirilgan aniq bir investitsion loyihaning daromadlilik darajasini ifodalaydi.

Daromadning ichki me'yoriga investitsion loyiha foydaliligining kafolatlangan quyi darajasi, deb qarash mumkin.

Agar **IRI** ishlab chiqarish tarmog'i kapitalini o'rtacha qiymatidan yuqori va loyiha bo'yicha tavakkalchilik darajasi inobatga olingan bo'lsa, loyiha iqtisodiy samarali deb hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan, **IRI** loyihaga jalb etilayotgan moliyalashtirish manbalari uchun maksimal to'lov stavkasi bilan bog'liqlikni bildiradi. Bunga investitsion xarajatlar samaradorligini baholashda kredit bo'yicha maksimal stavka belgilanishini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shunday qilib, **IRI** «to'siq ko'rsatkichi» hisoblanadi: agar kapitalning qiymati **IRI** ko'rsatkichining sonli qiymatidan yuqori bo'lsa, bunday investitsion loyiha rejalashtirilgan darajadagi pulni ko'paytirish va sarflangan mablag'ni qaytarish uchun yetarli bo'lmaydi. Demak, bunday turdagi investitsion loyihalar qabul qilinmaydi.

Investitsion loyihalarni solishtirma iqtisodiy baholashda **IRI** ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Investitsiyaning sof joriy qiymati $NPV(r_0) < 0$ bo'lgan hol uchun diskontlash stavkasi qiymati r_0 tanlaymiz.

Shuningdek, investitsiyaning sof joriy qiymati $NPV(r_0) > 0$ bo'lgan hol uchun diskontlash stavkasi qiymati r_1 tanlaymiz.

Bunda daromadning ichki me'yori quyidagicha aniqlanadi:

$$IRI = r_0 - \frac{(r_1 - r_0)NPV(r_0)}{NPV(r_1) - NPV(r_0)}$$

2-misol. 1-misoldagi ma'lumotlar asosida **B** variantdagi loyihaning daromadni ichki me'yorini hisoblaymiz.

B loyiha sof joriy qiymatining r diskontlash stavkasiga teng:

$$NPV(r) = \frac{0,8}{1+r} + \frac{1,1}{(1+r)^2} + \frac{0,6}{(1+r)^3} - 2 = 0,02$$

$r_i = 0,12$ sof joriy qiymat $NPV(r_i) = NPV(0,12) = 0,02$ mln. AQSH dollari > 0 .

$r_i = 0,15$ sof joriy qiymat $NPV(r_i) = NPV(0,15) = -0,08$ mln. AQSH dollari < 0 .

Demak daromadning ichki me'yori teng:

$$IRR = 0,15 - \frac{(0,12 - 0,15)(-0,08)}{0,02 - (-0,08)} = 0,126 = 12,6\%$$

3-topshiriq. 1-topshiriqdagi ma'lumotlar asosida **B** variantdagi loyiha daromadning ichki me'yorini hisoblaymiz.

(Microsoft Office Excel) dasturidagi f_x moliyaviy funksiya (**VSD**) yordamida hisoblaymiz, ya'ni $f_x \rightarrow \text{moliyaviy} \rightarrow \text{VSD} \rightarrow \text{OK}$. Kompyuterni muloqot oynasi (*диалоговое окно*) ni to'ldiramiz. (*Предложения*) grafasida kutilayotgan qiymat stavkasi kattaligi ko'rsatiladi (kattalik ko'rsatilmagan bo'lsa, 10% qilib olinadi). (**OK**) tugmachasi bosiladi. 2-misolda (**VSD**) $(-2; 0,8; 1,1; 0,6) = 13\%$.

Daromadning ichki me'yori asosida samaradorlikni aniqlashda quyidagi shart bajarilishi talab etiladi: hisoblanayotgan investitsion loyihaning **IRI** o'rnatilgan daromadlilik stavkasidan yuqori bo'lsa, loyiha samarali, aks holda samarasiz hisoblanadi.

2.3. Investitsiyalarning muqobil variantlarini joriy etishda loyihani qoplash muddati usuli – PP (Payback Period)

Investitsion loyihani qoplash muddati (QM) usuli. Investitsion loyihalar samaradorligini baholovchi qoplash muddati keng tarqalgan ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Amaliyotda muqobil investitsion loyihalarning samaradorlik darajasini baholashda QM dan dastlabki mezon sifatida foydalanilgan.

Qoplash muddati – amalga oshirilgan investitsiyaning (kapital qo'yilmaning) qaytarilishi kutilayotgan yili sifatida ifodalanadi.

Likvidlik bilan bog'liq investitsion tavakkalchilik darajasini baholash va kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlashda QM dan foydalanish mumkin. Ya'ni loyihani amalga oshirishda QM qanchalik ko'p bo'lsa, investitsion tavakkalchilik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Demak, belgilangan QM dan kam bo'lgan har qanday investitsion loyihalar amalga oshirish uchun qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion QM ning yagona me'yori mavjud emas.

Investitsiyaning QM , odatda, yillar bo'yicha o'lchanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda QM oddiy va diskontlangan turlariga ajratiladi.

Agar dastlabki investitsiya (kapital qo'yilma) loyihasini amalga oshirish davomida yillik pul oqimlari o'zaro teng bo'lsa, investitsiyani QM quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$QM = \frac{K_n}{P_n}$$

Bu yerda, K_n – investitsion loyihadagi kapital qo'yilmalar hajmi, so'm;

P_n – yillik pul oqimlari (daromad) miqdori, so'm.

Bu usuldan foydalanish ba'zi muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Jumladan, investitsiyalarni qoplash muddati sof foyda qiymati bo'yicha emas, balki yalpi foyda hisobida amalga oshiriladi.

Amaliyotda barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lagandan keyin korxona ixtiyorida qolgan mablag'lar majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga yetarli bo'lmasligi mumkin.

Bunday sharoitda investitsiyani **QM** mohiyatini yo'qotadi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda korxona o'z mablag'i hamda jalb etilgan mablag'lardan foydalanishi mumkin. Odatda, oddiy **QM** bo'yicha hisoblash ishlari amalga oshirilganda o'z mablag'i yoki qarzga olingan kapitalning turli xildagi bahosi hisobga olinmaydi. Bu esa ushbu usulning kamchiligi sifatida qaraladi.

3-misol. 1-misolda keltirilgan ma'lumotlar asosida har bir investitsion loyihaning **QM** ni aniqlaymiz.

Pillakashlik korxonasi uchun dastlabki, qiymati 2,0 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan **A** investitsion loyihaning qoplanishi uchun birinchi yilda 0,9 mln. AQSH dollari va ikkinchi yilda $(2,0 - 0,9) = 1,1$ mln. USD ikkinchi yilga rejalashtirilgan (1,6 mln.USD dan) investitsiya yo'naltirish lozim. Shunda **A** loyihaning $QM = 1 + 1,1/1,6 = 1,7$ yilga teng.

Qiymati 2,0 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan **B** investitsion loyihaning qoplanishi uchun birinchi yilda 0,8 mln. USD; ikkinchi yilda 1,1 mln. USD va uchinchi yilda $2,0 - (0,8 + 1,1) = 0,1$ mln. USD (0,6 mln.USD dan) investitsiya yo'naltirish lozim. Shunda **B** loyihani $QM = 1 + 1 + 0,1/0,6 = 2,2$ yilga teng.

$1,7 < 2,2$ bo'lganligi sababli **A** loyihaning qabul qilinishi maqsadga muvofiq, ya'ni **QM** qisqa bo'lgan loyiha.

Amaliyotda qoplash muddati usuli, asosan, investitsion loyihalar bo'yicha umumlashgan ma'lumotlar olishda foydalaniladi.

Bunga sabab bu usul **QM** tugagandan keyingi pul oqimlarini hisobga olmaydi.

2.4. Inflyatsiya. Inflyatsiya sharoitida kelgusida pulning qadrini hisoblash

Inflyatsiya – milliy valutaning qadrsizlanishi, ya'ni uning sotib olish xususiyati pasayishi va mamlakatda baponing oshishini ifodalaydi.

Inflyatsiya bo'lmagan sharoitda sotib olish qiymatiga ega bo'lgan pulni S bilan belgilaymiz.

Inflyatsiya sharoitida sotib olish qiymatiga ega bo'lgan pulni esa S_a bilan belgilaymiz. Bunda bir xildagi tovarlarni sotib olish nazarda tutiladi. Demak, $S_a > S$ bo'ladi.

$\Delta S = S_a - S$ deb belgilaymiz. Bunda $a = (\Delta S - S)/S$ bo'ladi. Uni inflyatsiya darajasi deyiladi, ya'ni o'sish indeksi. Bu ko'rsatkich o'rganilayotgan davrda bahoning o'rtacha necha foizga oshganini ko'rsatadi. $\Delta S = S_a - S \rightarrow S_a = S + \Delta S$ lekin, $a = \Delta S/S \rightarrow \Delta = aS$. Demak,

$$S_a = S + \Delta S = S + a$$

$1+a$ kattaligi *inflyatsiya indeksi* deb yuritiladi. Bu o'sish indeksi. Bu o'rganilayotgan davrda baho o'rtacha necha marotaba oshganini ko'rsatadi.

4-misol. Har oyda baho 1,5 % ga oshmoqda. Inflyatsiya darajasi bir yilda qancha bo'ladi?

Bunda $12 \times 1,5 = 18\%$ noto'g'ri javob hisoblanadi. Sababi 1,5% ni har oyda yerishilgan natijaga qarab hisoblash zarur, ya'ni murakkab foiz stavkasi orqali.

To'g'ri hisoblash quyidagicha bo'ladi:

$I_1^{12} = (1 + 0,015)^{12} = 1,2$, ya'ni baho bir yilda 1,2 marotaba yoki 20 % ga oshadi.

5-misol. Inflyatsiya darajasi yanvar oyida 2%, fevral oyida 1% va mart oyida 3 % ni tashkil qilgan.

Demak, o'rganilayotgan davrda inflyatsiya indeksi necha foizni tashkil etadi?

$\text{Inflyatsiya darajasi} = (1+0,02)(1+0,01)(1+0,03) = 1,061$ ya'ni, o'rganilayotgan davrda inflyatsiya darajasi 6,1% ni tashkil etadi.

Fisher formulasi yordamida oddiy foizli hol uchun inflyatsiyani hisobga oluvchi stavka. D -dastlabki summa, p - hisoblash davri, i -ssuda foizining yillik oddiy stavkasi. Bunda $S=D(1+ni)$ summani tashkil etadi. Bu summa inflyatsiyani hisobga olmaydi.

O'rganilayotgan davrda inflyatsiya darajasi n teng a .

S_a – bu inflyatsiya sharoitidagi pulning sotib olish qobiliyati inflyatsiya bo'lmagan holdagi S pulni sotib olish qobiliyatiga teng. Demak,

$$S_a = S(1+a) = D(1+ni)(1+a)$$

Lekin, S_a summani D ni dastlabki summasini n muddatga i_a ssuda foizini oddiy stavkasi bo'yicha inflyatsiyani hisobga olgan holda hisoblash ham mumkin bo'ladi, ya'ni,

$$S_a = D(1+ni_a)$$

Shu yerda, $D(1+ni_a)(1+a) = D(1+ni) \rightarrow (1+ni)(1+a) = 1+ni_a \rightarrow 1+ni+a+ni_a = i_a = (ni+a+ni_a)/n$.

Demak, i -yillik oddiy ssuda foizi stavkasi bo'yicha real daromad olish uchun o'rganilayotgan davrda inflyatsiya darajasi a bo'lgan dastlabki summani n muddatda joylashtirish lozim.

Agar $n=1$ yil bo'lsa, $i_a = i + a + i_a$ ga teng bo'ladi. Bu Fisher formulasidir. $a + i_a$ kattaligi *inflyatsiya mukofoti* deyiladi.

6-misol. Hisoblash davri $n=3$ oy, kutilayotgan oylik inflyatsiya darajasi 2%. Yillik $i=5\%$ real daromadni ta'minlash uchun dastlabki summani qanday foizli oddiy ssuda stavkasi bo'yicha qo'yish lozim?

Hisoblash davri uchun kutilayotgan inflyatsiya $n=3$ oy 0,25 yil $I_1 = (1+0,02)^3 = 1,061$, ya'ni o'rganilayotgan davr uchun inflyatsiya darajasi $a=0,061$. Bunda $i_a = (ni + a + nia)/n = i_a = (0,25 \times 0,05 + 0,061 + 0,25 \times 0,05 \times 0,061)/0,25 = 0,297$ ($=29,7\%$ yiliga).

7-misol. Yillik $i_a=15\%$ oddiy ssuda stavkasi sharti bilan aprel-iyun oylari uchun dastlabki summa qo'yilgan. Aprel oyida inflyatsiya darajasi 1%, may oyida 1,5% va iyun oyida 2% ni tashkil etgan. Oddiy stavkali ssuda foizining yillik real daromadi qanday?

O'rganilayotgan davrda inflyatsiya indeksi $n=3$ oy $=0,25$ yil $I_1 = (1+0,01)(1+0,015)(1+0,02) = 1,046$, ya'ni o'rganilayotgan davrda inflyatsiya darajasi $a=0,046$ ga teng. Bunda $i = (ni_a - a)/(n+na)$ $i = (0,25 \times 0,15 - 0,046)/(0,25 + 0,25 \times 0,046) = -0,033$ ($=-3,3\%$ yiliga, ya'ni operatsiya zararli).

Murakkab foizli hol uchun inflyatsiyani hisobga oluvchi stavka. O'rganilayotgan davrda dastlabki summa i_a – murakkab foizli ssuda stavkalari va n – muddatga, a – inflyatsiya darajasi bo'yicha investitsiyalangan sharoitda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$i = (1 + i_a) / \sqrt[n]{1 + a} - 1$$

8-misol. Hisoblash davri $n=3$ yil, kutilayotgan yillik inflyatsiya darajasi 14%. Yillik $i=5\%$ real daromadni

ta'minlash uchun dastlabki summani qanday foizli murakkab ssuda stavkasi bo'yicha qo'yish kerak?

Hisoblash davri uchun kutilayotgan inflyatsiya $n=3$ yil $I=(1+0,14)^3=1,48$, ya'ni inflyatsiya darajasi a ko'rilayotgan davr uchun $a=0,48$. Bunda,

$$i_a=(1+i) \sqrt[3]{1+a}-1=(1+0,05) \sqrt[3]{1+0,48}-1=0,197(=19,7\% \text{ yiliga})$$

9-misol. Dastlabki summa $n=3$ yilga murakkab yillik foizli ssuda stavkasi $i_a=20\%$ bo'yicha qo'yilgan. Inflyatsiya darajasi birinchi yilda 16% , ikkinchi yilda 14% va uchinchi yilda 13% ni tashkil etgan. Murakkab stavkali ssuda foizining yillik real daromadi qanday?

Inflyatsiya darajasi o'rganilayotgan davrda $n=3$ yilda $I_t=(1+0,16)(1+0,14)(1+0,13)=1,494$, ya'ni inflyatsiya darajasi a o'rganilayotgan davrda $a=0,494$. Bunda murakkab yillik foizli ssuda stavkasi

$$i=(1+0,2)/\sqrt[3]{1+0,494}-1=0,05 (=5\% \text{ yiliga}).$$

2.5. Inflyatsiya sharoitida keltirilgan qiymatni hisoblash usuli

Inflyatsiya pul oqimi qiymatiga ta'sir etadi, ya'ni pulning sotib olish qobiliyatini pasaytiradi.

Inflyatsiya sharoitida sof joriy qiymatni baholashning ikkita turi mavjud: nominal stavka (inflyatsiyani hisobga oladigan diskontlash stavkasi) va real stavka (inflyatsiyani hisobga olmaydigan diskontlash stavkasi).

Real diskontlash stavka = $((1 + \text{nominal stavka}) / \text{inflyatsiya indeksi}) - 1$

10-misol. Shoyi to'qish korxonasi investitsion loyihani ko'rib chiqmoqda. Dastlabki xarajat $3,0$ mln.

USD ga teng, qoldiq qiymat – 0, loyihani amalga oshirish muddati 3 yil.

(mln. USD)

Yil	Soliq to'lagandan keyingi kutilayotgan foyda
1	1,4
2	1,5
3	1,7

Investitsiya bo'yicha alternativ xarajat 15% ga teng, kutilayotgan yillik inflyatsiya darajasi – 7%. Inflyatsiya sharoitida investitsion loyihaning sof joriy qiymatini aniqlaymiz.

1-usul. Nominal pul oqimi va nominal stavkani ishlatilishi.

Inflyatsiyani hisobga olgan holda, pul oqimini aniqlaymiz va jadvalni to'ldiramiz.

Yil	Inflyatsiya indeksi	Inflyatsiyani hisobga olgan hol uchun pul oqimi
1	1,07	$1,4 \times 1,07 = 1,50$
2	$1,07^2 = 1,145$	$1,5 \times 1,145 = 1,72$
3	$1,07^3 = 1,225$	$1,7 \times 1,225 = 2,08$

Jadvalning 3-ustunini to'ldirishda soliq to'lagandan keyingi kutilayotgan foyda tegishli inflyatsiya indeksiga ko'paytiriladi. Bunda, loyihaning sof joriy qiymati teng: $(1,50/1,15 + 1,72/1,15^2 + 2,08/1,15^3) - 3 = 0,972$ mln. USD.

2-usul. Real pul oqimlari va real diskontlash stavkalarining ishlatilishi.

$$\text{Real diskontlash stavkasi} = (1 + 0,15)/1,07 - 1 = 0,075$$

Bunda loyihaning sof joriy qiymati teng:

$(1,4/1,075 + 1,5/1,075^2 + 1,7/1,075^3) - 3 = 0,969$ mln. USD.

Raqamlar yaxlitlanib olinganligi sababli natijalar bir oz farq qiladi.

2.6. Investitsion qarorlarni baholashni taqqoslash usuli (WACC usuli)

Kapitalning turli manbalari qiymatini aniqlagan-dan keyin pillakashlik korxonasini uzoq muddatli mo-liyalashtirish qiymatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Kapitalni o'rtacha qiymati *WACC* (ingl. Weigh-ted average cost of capital) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$WACC = \sum i \cdot \text{i-kapital manbayini x i-kapital manbayining qiymatini salmog'i}$$

Bu ma'lumotlar asosida investitsion loyihalarni ba-holash uchun kerak bo'ladigan diskontlash koeffitsienti hisoblanadi.

II-misol. Pillakashlik korxonasi kapitalining manbayi yillik foizlarda qiymati va bozor qiymati jadvalda keltirilgan.

Kapital manbalari	Qiymati	Bozor qiymati
Kredit	10	0,5
Oddiy aksiya	16	1,9
Obligatsiya	8	0,6

Pillakashlik korxonasi kapitali o'rtacha qiymatini aniqlaymiz va quyidagi jadvalda rasmiylashtiramiz.

Kapital manbasi	Qiymati	Bozor qiymati	Bozor qiymati bo'yicha salmog'i	WACC
1	2	3	$4=3/(3 \text{ summa})$	$5=2 \times 4$
Kredit	10	0,5	0,167	1,67
Oddiy aksiya	16	1,9	0,633	10,128
Obligatsiya	8	0,6	0,2	1,6
Summa	—	3	1	13,398

Demak, pillakashlik korxonasi kapitalini o'rtacha qiymati $WACC = 13,398$ yillik foizni tashkil etadi.

2.7. Annuitet va uning turlari

Annuitet (moliyaviy renta), bu – bir xil vaqt oralig'ida ketma-ket to'lovlar hisoblanadi. Masalan: nafaqa fondiga badallar.

Renta oralig'i, bu – ikkita ketma-ket to'lovlar oralig'idagi vaqt. Agar to'lovlar o'zaro teng bo'lsa, bu *doimiy renta*, aksincha *o'zgaruvchan renta* deyiladi. R , bu – alohida renta to'lovining kattaligi. *Renta muddati* t , bu – rentani dastlabki va oxirgi to'lovigacha bo'lgan vaqt.

Renta to'lovlari to'lash muddatining oxirida amalga oshirilsa uni «*postnumerando*» va renta oralig'ining boshida amalga oshirilsa «*prenumerando*» deyiladi.

Diskontlangan to'lovlarni hisoblashda i – murakkab foiz stavkasidan foydalaniladi.

Rentani kelgusi summasi S , bu – to'lov muddati kelganda to'lovlar va foizlarning birgalikda to'lanishi.

Rentani hozirgi qiymati A , bu – matematik diskontlash yordamida rentani to'lov muddatining boshida foizlar bilan birgalikda to'lanishini ifodalaydi.

2.8. Annuitetni kelgusi qiymati va keltirilgan qiymatini hisoblash usullari

«Postnumerando» shaklida rentani kelgusidagi summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$S = R \frac{(1+i)^n - 1}{i}$$

12-misol. Mijoz $n=5$ yil muddatda tijorat bankida $R=1\,000\,000$ so'm pul mablag'ini saqlagan. Omonat bo'yicha foizlar murakkab foiz stavkasi bo'yicha yillik $i=15\%$ miqdorida hisoblab borilgan. Rentani kelgusidagi summasi quyidagini tashkil qiladi:

$$S = 1000000 \frac{(1 + 0,15)^5 - 1}{0,15} = 6742380 \text{ so'm}$$

«Prenumerando» shaklida rentani kelgusidagi summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$S = R(1+i) \frac{(1+i)^n - 1}{i}$$

13-misol. (Misol 12) da keltirilgan ma'lumotlar asosida «Prenumerando» shaklida rentani kelgusidagi summasini hisoblaymiz.

$$S = 1000000 (1 + 0,15) \frac{(1 + 0,15)^5 - 1}{0,15} = 7753740 \text{ so'm}$$

Oddiy rentani hozirgi qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$A = R(1+i) \frac{1 - 1/(1+i)^n}{i}$$

14-misol. Oddiy rentani hozirgi qiymati (Misol 12) dagi ma'lumotlar asosida hisoblaymiz.

$$A = 1000000(1 + 0,15) \frac{1 - 1/(1 + 0,15)^5 - 1}{0,15} = 3854978 \text{ so'm}$$

Oddiy rentani alohida to'lovlari – R «postnumerano» shaklida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R = \frac{Si}{(1 + i)^n - 1}$$

15-misol. $n=3$ yilda $S=50000$ ming so'mni jamg'arish uchun murakkab yillik foiz stavkasi $i=12\%$ ni tashkil etgandagi yillik to'lovlar miqdorini hisoblaymiz.

$$R = \frac{50000 \times 0,15}{(1 + 0,12)^3 - 1} \text{ ming.so'm}$$

16-misol. (Misol 15)da keltirilgan ma'lumotlar asosida yil boshiga to'lovlarning amalga oshirilishini hisoblaymiz.

$$R = \frac{Si}{(1 + i)(1 + i)^n - 1} = \frac{50000 \times 0,15}{(1 + 0,12)(1 + 0,12)^3 - 1} = 13229,87 \text{ ming.so'm}$$

17-misol. Mijoz $n=3$ yilgacha yillik $i=14\%$ $A=50000$ ming so'mlik kredit oldi. Yil oxirida to'lovning so'ndirilish miqdorini hisoblaymiz.

$$R = \frac{Ai}{1 - 1/(1 + i)^n} = \frac{50000 \times 0,14}{1 - 1/(1 + 0,14)^3} = 21536,7 \text{ ming.so'm}$$

18-misol. (Misol 17)da keltirilgan ma'lumotlar asosida har yili boshiga to'lovlarning amalga oshirilishini hisoblaymiz.

$$R = \frac{Ai}{(1 + i)(1 - 1/(1 + i)^n)} = \frac{50000 \times 0,14}{(1 + 0,14)(1 - 1/(1 + 0,14)^3)} = 118891,73 \text{ ming. so'm}$$

Oddiy renta muddatini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$n = \ln(1 + \frac{Si}{R(1+i)}) / \ln(1+i)$$

Bu yerda:

R – alohida to'lov kattaligi;

i – foiz stavkasi;

S – kelgusi summa;

A – hozirgi qiymat.

19-misol. Yillik to'lovlar miqdori $R=5000$ ming so'm, foiz stavkasi $i = 12\%$, kelgusi summa $S = 30000$ ming so'm. «Postnumerando» va «Prenumerando» shaklida oddiy renta muddatlarini hisoblaymiz:

1) «Postnumerando» renta uchun $n = \ln(1 + Si/R) / \ln(1+i)$

$n = \ln(1 + 30000000 \times 0,12/5000000) / \ln(1+0,12) = 4,8$ yil.

2) «Prenumerando» renta uchun $n = \ln(1 + Si/R(1+i)) / \ln(1+i)$

$n = \ln(1 + 30000000 \times 0,12/5000000(1+0,12)) / \ln(1+0,12) = 4,4$ yil.

20-misol. «Postnumerando» va «Prenumerando» shaklidagi rentalar uchun $A=30000$ ming so'm, yillik to'lovlar $R=9000$ ming so'm va foiz stavkasi $i=15\%$ hol uchun kreditni yillik so'nishini hisoblaymiz.

1) «Postnumerando» renta uchun $n = -\ln(1 - Ai/R) / \ln(1+i)$

$n = -\ln(1 - 30000000 \times 0,15/9000000) / \ln(1+0,15) = 5$ yil.

2) «Prenumerando» renta uchun $n = -\ln(1 - Ai/R(1+i)) / \ln(1+i)$

$n = -\ln(1 - 30000000 \times 0,15/9000000(1+0,15)) / \ln(1+0,15) = 4,1$ yil.

Mustaqil ish uchun topshiriq

1-topshiriq. Pillakashlik korxonasining qiymati a mln. USD ga teng bo'lgan loyihasi tahlil qilinadi. Quyidagi jadvalda sof pul tushumining qiymati keltirilgan.

yil	A loyiha	B loyiha
1	b	d
2	c	e
3	–	f

Investitsion loyihalar bo'yicha muqobil xarajatlar $g\%$ ga teng. har bir investitsion loyiha bo'yicha NPV ni aniqlang? Qaysi loyiha afzal?

2-topshiriq. Ipak yigiruv korxonasining qiymati a mln. USD ga teng bo'lgan loyihasi tahlil qilinadi. Quyidagi jadvalda sof pul tushumining qiymati keltirilgan.

yil	A loyiha	B loyiha
1	b	d
2	c	e
3	–	f

Investitsion loyihalar bo'yicha muqobil xarajatlar $g\%$ ga teng. Har bir investitsion loyiha bo'yicha IRR ni aniqlang.

3-topshiriq. Shoyi to'quv korxonasining qiymati a mln. USD ga teng bo'lgan loyihasi tahlil qilinadi. Quyidagi jadvalda sof pul tushumining qiymati keltirilgan.

yil	A loyiha	B loyiha
1	b	d
2	c	e
3	–	f

Investitsion loyihalar bo'yicha muqobil xarajatlar $g\%$ ga teng. Har bir investitsion loyiha bo'yicha QM ni aniqlang.

(topshiriq variantlari 1–3)

T/r.	<i>a</i>	<i>b</i>	<i>c</i>	<i>d</i>	<i>e</i>	<i>f</i>	<i>g</i>
1.	2,1	1,1	1,5	0,8	1,2	1,6	11
2.	2,3	1,2	1,6	0,9	1,3	1,7	12
3.	2,4	1,3	1,7	0,7	1,4	1,8	13
4.	2,6	1,4	1,8	0,6	1,5	1,9	14
5.	2,8	1,5	1,9	0,5	1,6	1,8	15
6.	2,3	1,1	1,8	0,8	1,5	1,7	11
7.	2,7	1,2	1,7	0,9	1,4	1,6	12
8.	2,8	1,3	1,6	0,7	1,3	1,5	13
9.	2,9	1,4	1,5	0,6	1,2	1,4	14
10.	2,4	1,5	1,4	0,5	1,1	1,3	15
11.	2,1	1,2	1,5	0,9	1,2	1,7	11
12.	2,3	1,3	1,6	0,7	1,3	1,8	12
13.	2,4	1,4	1,7	0,6	1,4	1,9	13
14.	2,6	1,5	1,8	0,5	1,5	1,8	14
15.	2,8	1,1	1,9	0,8	1,6	1,7	15
16.	2,3	1,2	1,8	0,9	1,5	1,6	11
17.	2,7	1,3	1,7	0,7	1,4	1,5	12
18.	2,8	1,4	1,6	0,6	1,3	1,4	13
19.	2,9	1,5	1,5	0,5	1,2	1,3	14
20.	2,8	1,1	1,4	0,8	1,4	1,6	15

4-topshiriq. Har oyda baho $a\%$ ga oshmoqda. Inflyatsiya darajasi bir yilda qancha bo'ladi?

5-topshiriq. Inflyatsiya darajasi yanvar oyida $b\%$, fevral oyida $c\%$ va mart oyida $d\%$ ni tashkil qilgan.

Demak, o'rganilayotgan davrda inflyatsiya indeksi necha foizni tashkil etadi?

6-topshiriq. Hisoblash davri e oy, kutilayotgan oylik inflyatsiya darajasi $f\%$. Yillik $g\%$ real daromadni ta'minlash uchun dastlabki summani qanday foizli oddiy ssuda stavkasi bo'yicha qo'yish lozim?

7-topshiriq. Yillik $h\%$ oddiy ssuda stavkasi sharti bilan yanvar-iyun oylari uchun dastlabki summa qo'yilgan. Yanvar oyida inflyatsiya darajasi $i\%$, fevral oyida $j\%$, mart oyida $k\%$, aprel oyida $l\%$, may oyida $m\%$ va iyun oyida $n\%$ ni tashkil etgan. Oddiy stavkali ssuda foizining yillik real daromadi qanday?

(topshiriq variantlari 4–7)

T/r.	a	b	c	d	e	f	g	h	i	j	k	l	m	n
1.	2,0	3	4	3	6	1,6	3	15	0,3	2,0	1,6	0,4	3	1,7
2.	1,6	1	2	1	3	1,7	4	16	0,4	1,6	1,7	0,5	4	1,8
3.	1,7	2	3	2	9	1,8	5	17	0,5	1,7	1,8	0,6	5	1,9
4.	1,8	3	4	3	12	1,9	6	18	0,6	1,8	1,9	0,7	3	2,1
5.	1,9	4	5	4	3	2,1	7	19	0,7	1,9	2,1	0,8	4	2,2
6.	2,1	2	3	2	9	2,2	4	20	0,8	2,1	2,2	0,9	4	2,3
7.	2,2	3	4	3	6	2,3	3	21	0,9	2,2	2,3	0,5	3	2,4

8.	2,3	1	2	1	12	2,4	6	22	0,5	2,3	2,4	0,6	5	2,5
9.	2,4	2	3	2	3	2,5	5	23	0,6	2,4	2,5	0,8	5	2,6
10.	2,5	3	4	3	6	2,6	8	24	0,8	2,5	2,6	0,7	4	2,7
11.	2,6	3	4	3	12	2,7	7	25	0,7	2,6	2,7	0,6	5	2,8
12.	2,7	1	2	1	9	2,8	3	26	0,6	2,7	2,8	0,4	3	2,9
13.	2,8	2	3	2	6	2,9	4	27	0,4	2,8	2,9	0,3	4	1,5
14.	2,9	3	4	3	3	1,5	6	28	0,3	2,9	1,5	0,5	5	1,4
15.	1,5	4	5	4	9	1,4	7	29	0,5	1,5	1,4	0,6	3	1,3
16.	1,4	3	4	3	12	1,3	8	30	0,6	1,4	1,3	0,4	4	1,2
17.	1,3	2	2	2	6	1,2	6	15	0,4	1,3	1,2	0,5	4	1,1
18.	1,2	1	2	1	9	1,1	7	16	0,5	1,2	1,1	0,8	3	1,0
19.	1,1	2	3	2	3	1,0	3	17	0,8	1,1	1,0	0,3	3	2,0
20.	1,0	3	4	3	12	2,0	5	19	0,3	1,0	2,0	0,4	5	1,1

8-topshiriq. Hisoblash davri o yil, kutilayotgan yillik inflyatsiya darajasi $p\%$. Yillik $q\%$ real daromadni ta'minlash uchun dastlabki summani qanday foizli murakkab ssuda stavkasi bo'yicha qo'yish kerak?

9-topshiriq. Dastlabki summa r yilga murakkab yillik foizli ssuda stavkasi $s\%$ bo'yicha qo'yilgan. Inflyatsiya darajasi birinchi yilda $t\%$ va ikkinchi yilda $u\%$ ni tashkil etgan. Murakkab stavkali ssuda foizining yillik real daromadi qanday?

(topshiriq variantlari 8–9)

T/r.	<i>o</i>	<i>p</i>	<i>q</i>	<i>r</i>	<i>s</i>	<i>t</i>	<i>u</i>
1.	3	10	4	2	15	13	14
2.	2	11	5	1	16	14	15
3.	1	12	6	2	14	12	13
4.	4	13	7	1	13	11	12
5.	5	14	8	2	12	10	11
6.	3	15	4	3	15	13	14
7.	2	10	5	1	16	14	15
8.	1	11	6	2	17	15	16
9.	5	12	7	3	13	11	14
10.	4	13	8	2	14	12	13

T/r.	<i>o</i>	<i>p</i>	<i>q</i>	<i>r</i>	<i>s</i>	<i>t</i>	<i>u</i>
11.	2	10	5	3	16	14	15
12.	1	11	6	2	14	12	13
13.	4	12	7	1	13	11	12
14.	5	13	8	2	12	10	11
15.	3	14	4	1	15	13	14
16.	2	15	5	2	16	14	15
17.	1	10	6	3	17	15	16
18.	5	11	7	1	13	11	12
19.	3	12	8	2	14	12	13
20.	2	10	5	3	15	13	14

10-topshiriq. Shoyi to'qish korxonasi investitsion loyihani ko'rib chiqmoqda. Dastlabki xarajat *a* mln. USD ga teng, qoldiq qiymat – 0, loyihani amalga oshirish muddati 3 yil.

Yillar	Soliq to'lagandan so'ng kutilayotgan foyda
1	<i>c</i>
2	<i>b</i>
3	<i>d</i>

Investitsiya bo'yicha alternativ xarajat *g*% ga teng, kutilayotgan yillik inflyatsiya darajasi – *f*%. Inflyatsiya sharoitida investitsion loyihani *NPV* ni aniqlang.

(topshiriq variantlari 10)

T/r.	a	b	c	d	f	g
1.	2,1	1,1	1,5	0,8	6	11
2.	2,3	1,2	1,6	0,9	7	12
3.	2,4	1,3	1,7	0,7	8	13
4.	2,6	1,4	1,8	0,6	9	14
5.	2,8	1,5	1,9	0,5	8	15
6.	2,3	1,1	1,8	0,8	7	11
7.	2,7	1,2	1,7	0,9	6	12
8.	2,8	1,3	1,6	0,7	5	13
9.	2,9	1,4	1,5	0,6	4	14
10.	2,4	1,5	1,4	0,5	3	15

N _o	a	b	c	d	f	g
11.	2,3	1,5	1,4	0,5	3	12
12.	2,4	1,1	1,5	0,8	6	13
13.	2,6	1,2	1,6	0,9	7	14
14.	2,8	1,3	1,7	0,7	8	15
15.	2,3	1,4	1,8	0,6	9	11
16.	2,7	1,5	1,9	0,5	8	12
17.	2,8	1,1	1,8	0,8	7	13
18.	2,9	1,2	1,7	0,9	6	14
19.	2,4	1,3	1,6	0,7	5	15
20.	2,1	1,4	1,5	0,6	4	11

11-topshiriq. Pillakashlik korxonasi kapitalining manbayi yillik foizlarda qiymati va bozor qiymati jadvalda keltirilgan.

Kapital manbalari	Qiymati	Bozor qiymati
Kredit	<i>a</i>	<i>x</i>
Oddiy aksiya	<i>b</i>	<i>y</i>
Obligatsiya	<i>c</i>	<i>m</i>

Pillakashlik korxonasi kapitalining o'rtacha qiymatini aniqlang.

(topshiriq variantlari 11)

T/r.	a	b	c	x	y	m
1.	11	14	4	1,5	0,8	0,2
2.	12	15	5	1,4	0,9	0,6
3.	13	16	6	1,3	0,7	0,7
4.	14	16	6	1,2	0,6	0,8
5.	15	18	8	1,1	0,5	0,9
6.	11	15	5	1,2	0,6	0,2
7.	12	17	7	1,3	0,7	0,1
8.	13	15	5	1,4	0,8	0,3
9.	14	17	7	1,5	0,9	0,4
10.	15	17	7	1,6	0,9	0,5

T/r.	a	b	c	x	y	m
11.	15	14	5	1,4	0,8	0,2
12.	11	15	6	1,3	0,9	0,6
13.	12	16	6	1,2	0,7	0,7
14.	13	16	8	1,1	0,6	0,8
15.	14	18	5	1,2	0,5	0,9
16.	15	15	7	1,3	0,6	0,2
17.	11	17	5	1,4	0,7	0,1
18.	12	15	7	1,5	0,8	0,3
19.	13	17	7	1,6	0,9	0,4
20.	14	17	4	1,5	0,9	0,5

12-topshiriq. Mijoz n yil muddatda tijorat bankida R so'm pul mablag'ini saqlagan. Omonat bo'yicha foizlar murakkab foiz stavkasi bo'yicha yillik $P\%$ miqdorida hisoblab borilgan. Rentaning kelgusidagi summasini aniqlang.

13-topshiriq. Mijoz n yil muddatda tijorat bankida R so'm pul mablag'ini saqlagan. Omonat bo'yicha foizlar murakkab foiz stavkasi bo'yicha yillik $P\%$ miqdorida hisoblab borilgan. «*Prenumerando*» shaklida rentaning kelgusidagi summasini aniqlang.

14-topshiriq. Mijoz n yil muddatda tijorat bankida R so'm pul mablag'ini saqlagan. Omonat bo'yicha foizlar murakkab foiz stavkasi bo'yicha yillik $P\%$ miqdorida hisoblab borilgan. Oddiy rentaning hozirgi qiymatini aniqlang.

15-topshiriq. n yilda S ming so'mni jamg'arish uchun murakkab yillik foiz stavkasi $P\%$ ni tashkil etganda yillik to'lovlar miqdorini aniqlang.

16-topshiriq. n yilda S ming so'mni jamg'arish uchun murakkab yillik foiz stavkasi $P\%$ ni tashkil etganda yil boshiga to'lovlarning amalga oshirilishini aniqlang.

17-topshiriq. Mijoz n yilgacha yillik $P\%$ li A ming so'mlik kredit oldi. Yil oxirida to'lovning so'ndirilish miqdorini aniqlang.

18-topshiriq. Mijoz n yilgacha yillik $P\%$ li A ming so'mlik kredit oldi. Har yili boshiga to'lovlarning amalga oshirilishini aniqlang.

19-topshiriq. Yillik to'lovlar miqdori R ming so'm, foiz stavkasi $P\%$, kelgusi summa S ming so'm. «Postnumerando» va «Prenumerando» shaklida oddiy renta muddatlarini aniqlang.

20-topshiriq. «Postnumerando» va «Prenumerando» shaklidagi rentalar uchun A ming so'm, yillik to'lovlar R ming so'm va foiz stavkasi i hol uchun kreditning yillik so'nishini aniqlang.

(topshiriq variantlari 12–20)

T/r.	n	i	R	S	A
1.	3	12	1000	30000	50000
2.	2	13	2000	40000	60000
3.	5	14	3000	50000	70000
4.	4	15	4000	60000	80000
5.	3	14	5000	70000	90000
6.	2	13	6000	80000	20000

7.	5	12	7000	90000	30000
8.	4	15	8000	20000	40000
9.	3	14	9000	30000	50000
10.	5	13	1000	40000	60000
11.	4	12	2000	50000	70000
12.	2	15	3000	60000	80000
13.	3	14	4000	70000	90000
14.	5	13	5000	80000	30000
15.	4	12	6000	90000	40000
16.	3	14	7000	30000	50000
17.	2	15	8000	40000	60000
18.	5	13	9000	50000	30000
19.	2	12	1000	60000	50000
20.	3	13	2000	30000	60000

Test topshirig'i

1. Investitsion loyihaning diskontlangan qoplash mudati qaysi formula yordamida hisoblanadi?

A. $DQM = \sum_{t=0}^n \frac{UX}{(1+n)^t} / \sum_{t=0}^n \frac{CNO}{(1+r)^t}$

B. $QM = \frac{K}{P}$

C. $SJQ = \sum_{t=0}^n \frac{CNO}{(1+DIDIM)^t} - UX = 0$

D. Barcha javoblar to'g'ri.

2. Investitsion loyiha tarkibiga quyidagilar kiradi:

- A. Loyihaning qisqacha tavsifi, loyihaning asosiy g'oyasi
- B. Bozor tahlili va marketingi, xomashyo va uni yetkazib berish
- C. Loyihalashtirish va texnologiya, investitsion obyektning joylashishi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

3. Investitsion loyihalar nechta guruh bo'yicha tasniflanadi?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- C. 4 ta
- D. 5 ta

4. Moliyalashtirish manbalariga doir investitsion loyihalar.

- A. Ichki imkoniyatlar hisobiga amalga oshirish
- B. Aksiyalarning emissiyasi hisobiga moliyalashtirish
- C. Tijorat banklarining krediti hisobiga moliyalashtirish
- D. Barcha javoblar to'g'ri

5. Investitsion loyiha – bu...

- A. Ma'lum harakatlarini amalga oshiruvchi, ya'ni kelgusida foyda olish maqsadida kapital qo'yilishiga asoslangan, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob-kitob hujjatlari tizimi.
- B. Korxona, tarmoq, hududida investitsion jozibadorlikni ta'minlovchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarning obyektiv jamlamasi.
- C. Investitsiya obyektlarini tasniflash va baholash, reyting orqali taqqoslashni amalga oshirish, turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va darajasidagi xo'jalik hamda investitsion jarayonlarni qiyoslash orqali tahlil qilish.
- D. O'zining mablag'i hamda qarz shaklidagi moliyaviy resurslar hisobiga investitsion maqsadlar uchun qayta shakllangan kapital ishlatilishni ifodalaydi.

6. Korxonaning investitsion loyihalarini amal qilish muddatlari qanday?

- A. Qisqa muddatli
- B. O'rta muddatli
- C. Uzoq muddatli
- D. Qisqa, o'rta va uzoq muddatli

«Blits-so'rov» savollari:

- 1. Daromadning ichki me'yori qanday ko'rsatkich hisoblanadi?
- 2. Daromadning ichki me'yori ko'rsatkichi qanday hollarda qo'llaniladi?
- 3. Qoplash muddati usulini hisoblash formulasi qanday ko'rinishga ega?
- 4. Diskontlashning qoplash muddati investitsiyalarni qoplash muddatidan nimasi bilan farq qiladi?
- 5. Diskontlashning qoplash muddati usuli nima maqsadda qo'llaniladi?

«Aqliy hujum» usulidan foydalanish uchun savollar va topshiriqlar

- 1. Sof joriy qiymat usulining ta'rifini aytib bering.
- 2. Sof joriy qiymatni hisoblash formulasi qanday ko'rinishga ega?
- 3. Pul oqimini diskontlashga asoslangan baholashning investitsiyalar rentabelligi indeksi usulidan qanday hollarda foydalaniladi?
- 4. Investitsiyalar rentabellik indeksini hisoblash formulasi-ni keltiring.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Великий П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: Теория и практика: Учеб. пособие. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Дело, 2004. – 317–319 с.
2. Джонс Эрнест. Деловые финансы: Пер. с англ. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 1998. – 654 с.
3. Jo'raev A.S., Xo'jamqulov D.YU., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili; Akad. M.Sharifxo'jaev tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2003. – 256-b.
4. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. – М.: МАЭП; ИИК «Калита», 2000. – 144 с.
5. Кочетков И.А., Никешин С.Н., Рудаков Ю.П. и др. Управление проектами (зарубежный опыт). – СПб.: «ДваТри», 1993. – 458 с.
6. Mahmudov N.M., Madjidov Sh.A. Ipakchilik tarmog'ida investitsion faoliyatning samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 166 bet.
7. Шарп У., Александр Г., Бейли Д. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: Инфра-М, 1999–XII. – 251–259 с.

III BOB

QAT'IIY BELGILANGAN DAROMAD KELITIRUVCHI INSTRUMENTLARNING BOZOR QIYMATINI ANIQLASH

3.1. Kuponli obligatsiyalar daromadliligi turlari va ularning bozor bahosini aniqlash qoidasi. Nominal bahoda sotiladigan kuponli obligatsiyalar daromadliligi

Kredit munosabatlari tizimida obligatsiyalar chiqarish va sotib olish muhim ahamiyatga ega. Obligatsiyalar chiqarish va sotib olishda emitent - qarzidor, investor esa kreditor hisoblanadi. Emitent davlat yoki korxona, investor esa korxona yoki fuqarolar bo'lishi mumkin. Haqiqatan ham, obligatsiyalarning zamonaviy tushunchasi pul hujjati sifatida tushuniladi, unda qarzdorning kreditorga muayyan muddatga foydalangan vaqti uchun muayyan miqdorda pul summasini qaytarish bo'yicha majburiyatlari qayd etiladi.

Obligatsiya zayomlarining subyektlari faqat bank yoki mijozlardan tashqari emitentlar va investorlar ham bo'lishi mumkin. Davlat emitent sifatida namoyon bo'ladi. Odatda davlat obligatsiyalari budjet vositalaridagi yetishmovchiliklarni to'ldirish uchun ishlab chiqariladi, oborotda mavjud bo'lgan kredit vositalari yoki to'g'ridan to'g'ri pul emissiyasi hisobidan emas, balki qo'shimcha, harakatsiz vositalarni jalb qilish orqali chiqariladi. Bu aholi yoki korxonaning pul jamg'armalari bo'lishi mumkin.

Demak, obligatsiya zayomi, birinchidan, qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qiladi, ikkinchidan, juda keng

doiradagi kreditorlar manfaatlarini mujassamlaydi, ular muayyan darajada bank tizimining monopoliyalariga qarshi tura oladi.

Obligatsiyalarning yana bir muhim xususiyati shundaki, kredit munosabatlarining ushbu tipida kreditor obligatsiya zayomini butun davri mobaynida kreditor bo'lib qolish majburiyatini olmaydi. Agar dastlabki kreditor ushbu rolda qolishni istamasa, u qarzdorlik majburiyatini sotish huquqiga ham ega.

Shunday qilib, obligatsiya maxsus qimmatli qog'oz bo'lib, fond bozorida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Qimmatli qog'ozlarning boshqa turlaridan farqli o'laroq, obligatsiyalar o'z egasiga ikkita huquqni beradi: 1) qo'yilgan omonatning ishonchliligi, chunki u qaytarilishi kerak; 2) qo'yilgan kapitalga qayd etilgan va kafolatlangan daromad olish huquqi.

Shubhasiz, ushbu huquqlar obligatsiyalarga investorlar doirasining qiziqishini kuchaytiradi, ayniqsa, tavakkalchilikni ma'qul ko'rmaydiganlar uchun u barqaror daromad keltiruvchi manbadir.

Obligatsiyalarni har xil belgilarga ko'ra tavsiflash mumkin. Agar emitent (ssuda oluvchi)ning xususiyatlariga qarab turkumlasak, unda quyidagi obligatsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- davlat obligatsiyalari o'ta ishonchli bo'lib, ular bo'yicha daromad unchalik yuqori emas;

- munitsipal obligatsiyalar, ular bo'yicha daromad ancha kam, vositalarni qaytarish kafolati mutlaq emas, shunday bo'lsa-da, ushbu obligatsiyalar tezda o'z investorini topadi, chunki ular maqsadli ijtimoiy dasturni moliyalash uchun chiqariladi;

- korxonaning obligatsiyalari, ularning ishonchliligi davlat va munitsipalga qaraganda kam, ayniqsa, ular uzoq muddatga - 10-20 yilga chiqarilsa, ammo ushbu

tavakkalchilik qandaydir miqdorda oshirilgan kupon stavkasi orqali qoplanadi.

Xorijiy obligatsiyalar investorlar uchun ancha qulay, ayniqsa, faoliyati chet mamlakatlar bilan bog'liq kishilar uchun kerakdir.

Obligatsiyalar bir shaxsning nomiga ham chiqarilishi mumkin, bunda obligatsiya bosma qog'ozida uning birinchi egasining familiyasi ko'rsatiladi.

Daromadlilik belgisiga qarab obligatsiyalarni quyidagicha turkumlash mumkin:

- foizli (daromadli) obligatsiyalar, ular zayomning butun muomala davri mobaynida daromad olib turadi, ushbu daromadlarni to'lash shakli har xil bo'lishi mumkin;

- foizsiz (maqsadli) obligatsiyalar, ular bo'yicha pul daromadi to'lanmaydi. Bunday obligatsiyalarni odatda korxonalar konkret dastur bo'yicha chiqaradi;

- konvertirlangan (almashinadigan) obligatsiyalar, ularning egasi emitentning e'loniga muvofiq o'z obligatsiyalarini o'sha emitentning aksiyasiga konvertirlangan baholarda almashtirib olishi mumkin.

Daromadli obligatsiyalar yutuqli bo'lishi mumkin, emitent avvaldan ushbu nashrda yutuqlar o'ynalishi mumkin, deb e'lon qiladi.

Yutuqli obligatsiyalar yutuq bahosi bilan darrov kuyadi, qolgan obligatsiyalar esa zayomning amal qilish davri tugashi bilan ular bo'yicha tegishli daromad to'langandan keyin kuyadi.

Daromad to'lashning muhim shakli diskont obligatsiyalar chiqarilgan hollarda qo'llaniladi. Bunday obligatsiyalar ularning nominal qiymatidan past baholarda, ya'ni diskont (chegirma) bilan sotiladi.

Kupon chegirmasi bilan chiqariladigan obligatsiyalar bo'yicha daromad ham har xil uslublar bilan to'lanadi.

Agar chiqarish shartida qayd etilgan stavkadan boshqa shartlar bo'lmasa, bu shuni bildiradiki, har yili uning egasi ushbu stavkaga teng daromad oladi.

Ko'plab obligatsiyalarni ularning asosiy shartlariga qarab birlashtirish mumkin. Bunday sharoitlar jumlasiga shuni kiritish mumkinki, obligatsiyalarning barcha turlari bo'yicha daromad emitentning xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liq emas, u birinchi navbatda, boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lanadi.

Obligatsiyalarning tugashi (kuyishi) bo'yicha javobgarlik ularni chiqargan subyektlar zimmasida bo'ladi. Emitent ushbu majburiyatni bajarmasa, unda mazkur masala qonuniy tartibda hal qilinadi.

Obligatsiyalarga investorlarning qiziqishlari qimmatli qog'ozlarning yana bir muhim xususiyatlarning tugash (qo'yish) muddatini belgilashga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Obligatsiyalarning tez muddatligi investorlangan vositalarni qaytarish kafolati bilan birga, ularni ma'lum darajada inflyatsion jarayonlardan himoya qilishga ham yordam beradi. Ushbu himoyalanganlik uzoq muddatli zayomlar sharoitida qo'shimcha iqtisodiy richaglar bilan ham qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

Bundan tashqari, kreditning obligatsion shakli emitentni jalb qiluvchi xususiyatlarga ega. Eng avvalo, obligatsiya yetarli darajada barqaror kredit resursga ega, undan obligatsion zayom amal qilishining butun davri mobaynida foydalanish mumkin. Zayom vositalarining ushbu turi uchun to'lov amalda bozor kon'yunkturasiga bog'liq emas. Qarzдорlik majburiyatining ushbu turi cheklangan davrga ega ekan, shu tufayli u istiqbolli investitsion siyosatni shakllantirishga qat'iy ta'sir ko'rsata olmaydi, aksincha, ular muayyan investitsion dasturni amalga oshirishga maqsadli ta'sir ko'rsatadi.

Obligatsiyalarning yuqorida sanab o'tilgan barcha afzalliklariga qaramay, boshqa qimmatli qog'ozlar kabi o'zining muammolariga ham ega. Obligatsiyalar uchun,

shubhasiz, ularni sotib o'tkazuvchi bozor muammosi mavjud ekan, demak, emitentlar manfaatini ham himoya qiluvchi choralar tizimini ishlab chiqish lozim.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda davlat qarz majburiyatlari chiqarishning mexanizmini yaratishda boy tajriba to'plangan. AQSHda davlat organlarining qarz majburiyatlari (qo'yish muddati bir yilgacha bo'lsa) g'aznachilik vekseli deb yuritiladi, 10 yilgacha bo'lgan zayomlar – o'rtacha muddatli kredit chiptalari (notalar), 10 yildan 30 yilgacha – federal bon (obligatsiyalar) deb yuritiladi. G'aznachilik veksellari bozorda keng qo'llaniladigan davlat majburiyatidir.

Moliya vazirligining o'rtacha muddatli qarz majburiyatlari (notalari) g'aznachilik chiptalaridan farqli ularoq, chegirma bilan sotilmaydi. Bundan tashqari, ular bo'yicha foizli to'lovlar majburiyatlar tugagandan so'ng emas, balki yarim yilliklar bo'yicha amalga oshiriladi. Yarim yillik to'lovlarning miqdori (kupon stavkasi) zayom chiqarish shartlari orqali belgilanadi. Muddat tugagandan so'ng oxirgi foiz to'lovi majburiyatining nominal qiymati bilan birga to'lanadi.

Ishonchliligiga qarab korxona obligatsiyalari (debenturlar) saqlanuvchi (zakladnoy) va saqlanmaydigan bo'ladi. Saqlanuvchi obligatsiyalar korxonaning jismoniy va pul aktivlari – emitent tomonidan maxsus hujjat – zakladnoy orqali ta'minlanadi. Bu huquqiy hujjat korxonaning, ya'ni emitentning roziligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, ushbu obligatsion zayom bo'yicha qarz to'lanmasa, u o'ziga tegishli mulkini (yoki yerni) sotish huquqiga ega. Bu zakladnoy bankda yoki depozitariyda saqlanishi mumkin. Zakladnoy operatsiyalarining bir necha xili mavjud.

Dastlabki saqlashga qo'yiladigan obligatsiyalar firmaning «katta» qimmatli qog'ozlari hisoblanadi. Ular asosiy kapital miqdorida chiqariladi. Dastlabki saqlashga

qo'yiladigan obligatsiyalar muomalada bo'lsa, korxona ikkilamchi saqlanadigan obligatsiyalarni chiqarishi mumkin.

Konvertirlangan obligatsiyalarga kiritiladigan investitsiyalarning o'z-o'zini qoplashi qimmatli qog'ozlarning himoya qilish darajasini xarakterlovchi muhim ko'rsatkichdir. U obligatsiyalarga bo'lgan daromad konversiya bahosida taklif qilinadigan mukofotni qoplashi kerak.

Har qanday obligatsiyalarning investitsion sifatini baholashda ularning daromadlilikini aniqlash muhimdir.

Obligatsiyalarga vositalar kiritishning daromadliliği yoki qulayliliği ancha o'zgarishi mumkin. U ko'p jihatdan zayoni kapitalining bozor qiymati bilan bog'liq. Eng avval, bu tebranişlar bank kreditidan foydalanishning foiz stavkalari o'zgarishi bilan bog'liq. Bozor har doim barcha turdagi zayom va bank vositalari, obligatsion zayomlar qiymatini tenglashtirishga intiladi.

Bank stavkasi – o'zgaruvchan, kupon stavkasi esa avvaldan muayyan muddatda qayd qilingan bo'lgani uchun ushbu moslashtirish obligatsiyaning bozor bahosini o'zgartirishi hisobiga bo'ladi.

Agar banklardagi kredit stavkalari kamaysa, unda avval belgilangan yuqori stavkalarda obligatsion zayomlarga mablag' (vositalar) kiritish investor uchun ancha qulaylik tug'diradi.

Shuning uchun obligatsiyalarning daromadliliği faqatgina kupon stavkalariga emas, obligatsiyalarning bozor qiymati o'zgarishiga ham bog'liq. Obligatsiyalar daromadi belgilangan foiz miqdorida olinadigan investitsiyalar (foydalanilgan daromad) yoki investitsiyalar qiymatining (bozor baholarining) o'zgarishidan keladigan daromad vujudga keladi.

Obligatsiyalar bo'yicha ushbu ikki xil daromad faqatgina qulay vaziyat vujudga kelgan paytdagina nisbatan mustaqil mavjud bo'ladi.

Obligatsiyalar bo'yicha daromadning uch xil turi mavjud:

- nominal daromad yoki kupon stavkasi bo'yicha belgilanadigan foydalanilgan daromad;
- obligatsiyalarning bozor bahosining o'zgarishini hisobga oladigan joriy daromad stavkasi bo'yicha belgilanadigan joriy daromad;
- qarzdin kechish paytida olinishi mumkin bo'lgan, bank stavkasi bo'yicha belgilanadigan umumiy yoki va'da qilinadigan daromad.

Kupon stavkasi bo'yicha har yili to'lanadigan summa sifatida belgilanadigan nominal bo'yicha daromad obligatsiyalarning bozor qiymati o'zgarishini bildirmaydi. Bu hisob-kitob obligatsiyalar birinchi marta emissiya qilinganda ularning investitsion sifatini baholashda qo'llaniladi. Ikkilamchi bozorda esa ushbu hisob-kitob o'z mazmunini yo'qotadi, ya'ni obligatsiyalarning bozor bahosini belgilaydigan omillar harakatga keladi. Bunday paytda obligatsiyalarning joriy daromadlilik zarur. Joriy daromadlilik stavkasi yillik kupon to'lovlarining joriy bozor bahosiga munosabati sifatida aniqlanadi.

Obligatsiyani kupon foizlarini to'lash va obligatsiyani nominal qoplaydigan «*Postnumerando*»ning oddiy rentasi sifatida qarash mumkin. Shuning uchun obligatsiyaning joriy qiymati rentaning hozirgi qiymatiga teng bo'ladi.

i – joriy bozor foiz stavkasi, r – kuponli foiz stavkasi, P – obligatsiyaning nominal qiymati, n – obligatsiyaning so'ndirilishigacha bo'lgan davr, $R=rP$ – kupon to'lovi, A_n – obligatsiyani joriy bozor qiymati bo'lsa, u holda

$$A_n = R \frac{1 - 1 / (1 + i)^n}{i} + P / (1 + i)^n$$

teng bo'ladi.

Bu «*Postnumerando*» shaklidagi oddiy rentaning zamonaviy qiymatini aniqlash formulasi.

1-misol.

Obligatsiyaning nominal qiymati $P=500000$ so'm, kuponli foiz stavkasi $r=15\%$, obligatsiyaning so'n-dirilishigacha bo'lgan davr $n=3$ yil, joriy bozor foiz stavkasi $i=12\%$.

Obligatsiyaning joriy bozor qiymatini aniqlaymiz.

Kupon to'lovi kattaligi $R=rP=0,15*500000=7500$ so'm. Bunda obligatsiyaning joriy bozor qiymati:

$A_n = 7500 * (1 - 1/(1 + 0,12)^3) / 0,12 + 500000 / (1 + 0,12)^3 = 54464,29$ so'm, $i < r$ holda obligatsiyaning bozor qiymati katta obligatsiyaning nominal qiymati P dan katta bo'ladi.

Obligatsiyaning yana bir muhim xarakteristikasi bo'lib *foyda normasi* hisoblanadi. Foyda normasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

Foyda normasi =	$\left(\begin{array}{lll} \text{kupon} & \text{obliga-} & \text{obliga-} \\ \text{to'lovi} + & \text{tsiyani -} & \text{tsiyani :} \\ & \text{oxirgi} & \text{boshlang'ich} \\ & \text{davrdagi} & \text{davrdagi} \\ & \text{bahosi} & \text{baffosi} \end{array} \right)$	obligatsiyaning boshlang'ich davrdagi bahosi
-----------------	--	--

2-misol.

Kuponli foiz stavkasi $r=10\%$ bo'lgan nominal qiymati $P=100000$ so'mlik obligatsiya yil boshida $a=120000$ so'mga sotib olingan, ya'ni obligatsiyaning bahosi uni nominal qiymatidan yuqori.

Kupon to'lovi olingandan keyin yil oxirida obligatsiya $S=117500$ so'mga sotildi.

Yillik foyda normasini aniqlaymiz.

Kupon to'lovi miqdori:

$$R=rP=0,1*100000=10000 \text{ so'm.}$$

Foyda normasi:

$$(10000 + 117500 - 120000) / 120000 = 0,0625 \text{ (6,25\%)}$$

Yuqoridagi misolni ikki usul orqali chiziqsiz tenglama yechimini ko'rib chiqamiz, ya'ni:

- o'rtacha usuli;
- interpolyatsiya usuli.

1. O'rtacha usulda:

O'rtacha usulda obligatsiyaning daromadliligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$\text{Obligatsiyaning daromadliligi} = \text{bir davr uchun o'rtacha foyda} \left/ \begin{array}{l} \text{obligatsiyaning} \\ \text{o'rtacha qiymati} \end{array} \right.$

3-misol.

Nominal qiymati $P=100000$ so'm. Kupon foiz stavkasi $r=10\%$ va so'ndirish muddati $n=10$ yil bo'lgan obligatsiya 120000 so'mga sotib olindi. O'rtacha usul yordamida obligatsiyani daromadliligini aniqlaymiz.

Kupon to'lovining miqdori:

$$R=rP=0,1 \cdot 100000=10000 \text{ so'm.}$$

Bunda umumiy to'lov summasi

$$n \cdot R + P = 10 \cdot 10000 + 100000 = 200000 \text{ so'm.}$$

$\text{Umumiy foyda} = \text{Umumiy to'lov summasi} - \text{obligatsiyani sotib olish bahosi}$
--

$$\text{Umumiy foyda} = 200000 - 120000 = 80000 \text{ so'm.}$$

$\text{Bir davr uchun o'rtacha foyda} = \text{umumiy foyda} \left/ \begin{array}{l} \text{davrlar} \\ \text{soni} \end{array} \right.$
--

Shuning uchun, bir davr uchun o'rtacha foyda = $80000 / 10 = 8000$ so'm.

$$\text{Obligatsiyaning o'rtacha qiymati} = \left(\frac{\text{obligatsiyaning nominal qiymati} + \text{obligatsiyaning sotib olish bahosi}}{2} \right)$$

Obligatsiyaning o'rtacha qiymati = $(100000 + 120000)/2 = 110000$ so'm.

Obligatsiyaning daromadliligi = $8000/110000 = 0,073$ (7,3%).

2. Interpolyatsiya usulida:

Interpolyatsiya usulida obligatsiyaning daromadliligi o'rtacha usulda hisoblanganga nisbatan aniq qiymatga ega bo'ladi.

Interpolyatsiya usulida obligatsiyaning daromadligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$i = i_0 + \frac{A_n - A_n(i_0)}{A_n(i_1) - A_n(i_0)} (i_1 - i_0)$$

4-misol.

Nominal qiymati $P=100000$ so'm. Kupon foiz stavkasi $r=10\%$ va so'ndirish muddati $n=10$ yil bo'lgan obligatsiya 120000 so'mga sotib olindi. Interpolyatsiya usuli yordamida obligatsiyaning daromadliligini aniqlaymiz.

O'rtacha usul yordamida obligatsiyaning daromadliligi qiymati $i=0,073$ aniqlangan. $i_0=0,07$ va $i_1=0,08$ hamda obligatsiyani joriy qiymatining bozor foiz stavkalarini hisoblaymiz:

$$A_n(i_0) = 10000 * (1 - 1/(1+0,07)^{10})/0,07 + 100000/(1+0,07)^{10} = 121071 \text{ so'm.}$$

$$A_n(i_0) = R \frac{1 - 1/(1+i_0)^n}{i_0} + P/(1+i_0)^n$$

$$A_n(i_p) = 10000 * (1 - 1 / (1 + 0,08)^{10}) / 0,08 + 100000 / (1 + 0,08)^{10} = 113420 \text{ so'm.}$$

$$A_n(i_1) = R \frac{1 - 1 / (1 + i_1)^n}{i_1} + P / (1 + i_1)^n$$

Demak, obligatsiyalarning daromadlilik qiymati:

$$i = 0,07 + (120000 - 121071) / (113420 - 121071) * (0,08 - 0,07) = 0,071 \text{ (7,1\%).}$$

Mustaqil ish uchun topshiriq

1-topshiriq.

Obligatsiyaning nominal qiymati P so'm, kuponli foiz stavkasi r %, obligatsiyaning so'ndirilishigacha bo'lgan davr n yil, joriy bozor foiz stavkasi i %.

Obligatsiyaning joriy bozor qiymatini aniqlang.

T/r.	P	n	i	r
1.	600000	2	16	18
2.	700000	3	11	13
3.	800000	4	13	15
4.	500000	3	12	19
5.	650000	4	9	12
6.	550000	2	13	16
7.	750000	3	12	15
8.	530000	3	8	10
9.	640000	2	7	9
10.	790000	4	14	17

T/r.	P	n	i	r
11.	800000	3	11	13
12.	500000	4	13	19
13.	650000	3	12	15
14.	550000	4	9	12
15.	750000	2	13	16
16.	530000	3	12	15
17.	640000	3	8	10
18.	790000	2	7	9
19.	600000	4	14	17
20.	700000	2	15	18

2-topshiriq.

Kuponli foiz stavkasi r % bo'lgan nominal qiymati P so'mlik obligatsiya yil boshida a so'mga sotib olingan, ya'ni obligatsiyaning bahosi uning nominal qiymatidan yuqori.

Kupon to'lovi olingandan keyin yil oxirida obligatsiya S so'mga sotildi.

Yillik foyda normasini aniqlang.

3-topshiriq.

Nominal qiymati P so'm. Kupon foiz stavkasi r % va so'ndirish muddati n yil bo'lgan obligatsiya S so'mga sotib olindi. O'rtacha usul yordamida obligatsiyani daromadlilikini aniqlang.

4-topshiriq.

Nominal qiymati P so'm. Kupon foiz stavkasi r % va so'ndirish muddati n yil bo'lgan obligatsiya S so'mga sotib olindi. Interpolyatsiya usuli yordamida obligatsiyaning daromadlilikini aniqlang.

(topshiriq variantlari 2–4)

T/r.	P	n	S	a	r
1.	130000	10	140000	150000	10
2.	140000	11	150000	160000	11
3.	150000	12	160000	170000	12
4.	100000	13	103000	108000	13
5.	100000	14	110000	120000	14
6.	100000	15	105000	110000	15
7.	170000	10	180000	190000	10
8.	160000	11	170000	180000	11
9.	170000	12	180000	190000	12

10.	130000	13	140000	150000	13
11.	150000	14	160000	170000	14
12.	100000	15	103000	108000	15
13.	100000	14	110000	120000	14
14.	151000	13	161000	171000	13
15.	169000	12	179000	189000	12
16.	148000	11	158000	168000	11
17.	159000	10	169000	179000	10
18.	175000	15	185000	195000	15
19.	155000	14	165000	175000	14
20.	166000	13	176000	186000	13

Test topshirig'i**1. Obligatsiya – bu...**

- A. O'z qiymatiga nisbatan qat'iy belgilangan foiz shaklida daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozdir
- B. Emitentning qisqa muddatli qarz majburiyatidir
- C. O'z egasiga dividend olish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir
- D. Noto'g'ri javob yo'q

2. Obligatsiya

- A. Korxona va tashkilotlar qo'lidagi pul mablag'larini to'plash maqsadida chiqariladi
- B. Joriy yildagi budjet kamomadini qoplash maqsadida chiqariladi
- C. Aktsiyadorlik jamiyati faoliyatini moliyalashtirish uchun qo'shimcha mablag' yaratish maqsadida chiqariladi
- D. Noto'g'ri javob yo'q

3. Obligatsiyaning aksiyadan farqi shundaki...

- A. O'z egasiga mazkur aksiyadorlik jamiyatiga a'zo bo'lib kirish huquqini beradi
- B. Uni sotib olgan investor emitentning kreditoriga aylanadi
- C. Jamiyat foyda ololmay qolgan hollarda uning egasi dividend ololmay qolishi mumkin
- D. Noto'g'ri javob yo'q

4. Quyidagi tashkilotlarning qaysi birlari obligatsiyalarni chiqarishga haqli?

- A. Respublika hukumati
- B. Korxonalar va tashkilotlar
- C. Aksiyadorlik jamiyatlari
- D. Noto'g'ri javob yo'q

5. Omonat obligatsiyalari – bu...

- A. Kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozdir
- B. Omonatchining nomiga qayd qilib qo'yilgan qimmatli qog'oz bo'lib, egasi uni sotolmaydi
- C. Omonatchining nomiga qayd qilib qo'yilgan qimmatli qog'oz bo'lib, egasi uni xohlagan paytda sota olishi mumkin
- D. Noto'g'ri javob yo'q

6. Investitsion loyihani moliyalashtirishning qarzga olingan manbasi – bu...

- A. Obligatsiya, budjetdan tashqari fondlardan olingan kreditlar, bank kreditlari
- B. Hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar
- C. Davlat budjeti mablag'lari va budjetdan tashqari fond mablag'lari
- D. Ipoteka ssudalari

«Blits-so'rov» savollari:

1. Obligatsiyalar bahosi va daromadliligi qanday hisoblanadi?
2. Obligatsiyaning o'rtacha qiymati qanday aniqlanadi?
3. Bir davr uchun o'rtacha foyda qanday aniqlanadi?
4. Foyda normasi qanday aniqlanadi?
5. Obligatsiyalar bo'yicha daromadning nechta turi mavjud?

«Aqliy hujum» usulidan foydalanish uchun savol va topshiriqlar

1. Obligatsiyalarning qiymati va daromadliligini tushuntiring.
2. Daromadlilik belgisiga qarab obligatsiyalarni qanday turkumlash mumkin?
3. Obligatsiyalarni belgilariga ko'ra tavsiflab bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Butikov I. «Qimmatli qog'ozlar bozori». – T. «Sharq»: 2006-y. 156-b.
2. G'ulomov S.S., Boyev H.I. Valuta barqarorligi ta'minlansa. «Iqtisod va hisobot». № 7 – 8. 1997. 3-b.
3. Abdullayev YO., Shoha'zamiy Sh. Qimmatli qog'ozlar. 100 savol va javob. – T.: Mehnat 1997-y. 96-b.
4. Иванов А.П. Финансовые инвестиции на рынке ценных бумаг. – М.: «Дашков и К», 2004 г.
5. Месцеров Н.В. «Организованные рынки ценных бумаг». – М.: «Логос» 2000 г.
6. Берединова Г.Б. «Рынок ценных бумаг и биржевое дело». – М.: «ИНФРА», 2000 г.

IV BOB

INVESTITSION LOYIHA VA UNING TAHLILI

4.1. Investitsion loyihaning biznes rejasi asosiy qismlarining tuzilishi. Investitsion loyihaning hayotiy siklga egaligi

Korxonalarning investitsion faoliyatini rivojlantirish istiqbollari investitsion dastur doirasida hamda alohida ilmiy asoslangan loyihalarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

Barpo etiladigan korxonalar real investitsiyalar shaklidagi investitsion loyihalar asosida bunyod etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda «investitsion loyiha» tushunchasi turlicha talqin qilinadi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Jons Ernest «Investitsion loyiha, bu – vaqt bilan chegaralangan, resurs va mablag'larning belgilangan miqdordagi sarfi va natijalar sifatida qo'yiladigan talablar asosida tizimning o'zgarishidir», deb ta'kidlagan.

Investitsion loyihaning keng qamrovli tushunchasini I.A. Kochetkov ifodalagan. Unga ko'ra, «Investitsion loyiha, bu – barpo etilayotgan yoki modernizatsiya qilinayotgan obyektlar, texnologik jarayonlar va ular uchun texnik va tashkiliy hujjatlar, moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarni yaratish bilan bog'liq tadbirlar va boshqaruv qarorlari bajarilishini o'z ichiga oladigan maqsad tizimidir».

Investitsion loyihalar tushunchasiga doir qarashlarda investitsion loyihaning turli xususiyatlarini qamrab olgan fikrlar turlicha bo'lishiga qaramay, ular ko'p jihatdan bir-biriga yaqin.

Investitsion loyihani quyidagi ta'rif aniq belgilaydi: ***ma'lum harakatlarni amalga oshiruvchi, ya'ni kelgusida foyda olish maqsadida kapital qo'yilishiga asoslangan, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob-kitob hujjatlari tizimidir.***

Investitsion loyihalar turli shakl va mazmunga ega. Ular korxonalarni barpo etish, turli obyektlarni qurish, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Korxona o'zining investitsion imkoniyatlaridan va investitsion faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, investitsion loyihalarni ishlab chiqadi.

Investitsion loyihalar turli belgilarga qarab tasniflanadi.

Hozirgi kunda investitsion loyihaning tasniflanishiga doir turli yondashuvlar, qarashlar mavjud.

Investitsion loyihalarning tasniflanishlari qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'zaro o'xshash yoxud shakl jihatdan farq qilsa-da, mazmunan bir xil yoki juda yaqin.

Korxonalarining investitsion loyihalari 4.1.1-rasmda keltirilgan tarzda bo'lishi lozim.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga doir investitsion loyihalar tasniflanishning muhim belgilaridan hisoblanib, o'z ichiga sakkizta guruhni oladi.

Ular quyidagicha: mahsulot hajmi o'sishini; mahsulot turlari kengaytirilishini; mahsulot sifati oshirilishini; mahsulot tannarxi pasaytirilishini ta'minlaydigan; yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish; mavjud texnologiyalarni takomillashtirish; mehnat va boshqaruvni tashkil etishni

Korxonaning investitsion loyihalari tasnifi

Korxona iqtisodiy samara-
dorligini ta'minlashga doir
investitsion loyihalar

- mahsulot hajmi o'sishini ta'minlaydigan
- mahsulot turlari kengaytirilishini ta'minlaydigan
- mahsulot sifatini oshirishni ta'minlaydigan
- mahsulot tannarxini pasaytirishni ta'minlaydigan
- yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish
- mavjud texnologiyalarni takomillashtirish
- mehnat va boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash
- sanatsiya (korxonani sog'lomlashtirish)

Amalga oshirish
muddatiga doir
investitsion loyihalar

- qisqa muddatli
- o'rta muddatli
- uzoq muddatli

Moliyalashtirish manba-
lariga doir investitsion
loyihalar

- ichki imkoniyatlar hisobiga amalga oshiriladigan
- aksiyalar emissiyasi hisobiga moliyalashtiriladigan
- tijorat banklarining krediti hisobiga moliyalashtiriladigan
- xorijiy moliyaviy institutlar hisobiga moliyalashtiriladigan
- aralash moliyalashtirish shaklidagi

Tavakkalchilik munosabatiga doir investitsion loyihalar:

- tavakkalchilikli; tavakkalchiliksiz

Investitsion resurslar hajmiga doir investitsion loyihalar:

- kichik; - o'rta; - yirik

Investitsion loyihaning amalga oshirilishiga ko'ra – boshqa investitsion loyihalarni amalga oshirishga bog'liq bo'lmagan investitsion loyiha – boshqa investitsion loyihaning bajarilishiga bog'liq bo'lgan investitsion loyiha – boshqa investitsion loyiha o'rniga amalga oshirilgan investitsion loyiha	←
---	---

4.1.1-rasm. Korxonalar investitsion loyihalarining tasniflanishi

yaxshilash; sanatsiya (korxonani sog'lomlashtirish) yo'nalishidagi investitsion loyihalar.

Bu guruhdagi investitsion loyihalarning har biri korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga olib keladi. Korxonaning tijorat faoliyati asosida foyda olish, ya'ni daromadning xarajatdan ustunligini ta'minlash loyiha asosida turadi.

Ko'p hollarda daromad olishni boshqarish murakkab jarayon hisoblanadi, chunki u raqobat muhitiga bog'liq. Xarajatlarni esa boshqarish imkoniyati mavjud. Jumladan, tejamkorlik va unumdorlikka asoslangan dastgohlarni o'rnatish, mehnatni tashkil etishning ilg'or uslublarini joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va boshqalar xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Tasniflashdagi *mahsulot hajmini kengaytirishni ta'minlaydigan investitsion loyihalar* bozor segmentida mahsulotga bo'lgan talab oshib ketishi natijasida korxona quvvatini oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday investitsion loyihalar yangi dastgohlarni sotib olish, xodimlar sonini ko'paytirish, sotib olinadigan xomashyo va materiallar hajmini ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

Mahsulot turlarini kengaytirishni ta'minlaydigan investitsion loyihalar korxonadagi mavjud ishlab chi-

qarish maydonlaridan unumli foydalanish natijasida quvvatlarni oshirish, yangilarini barpo etish, boshqa korxonalar mulkini butunligicha sotib olib, qayta moslashtirish kabi maqsadli tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Korxonani modernizatsiya qilish va rekonstruksiyalash hamda ilg'or texnologiyalarni joriy etish natijasida *mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni ta'minlaydigan investitsion loyihalarning* ishlab chiqilishi va ulardan pillakashlik korxonalarida foydalanilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosi hisoblanadi.

Tejamkor texnologiyalar, ilg'or ishlab chiqarish usullari, mehnat motivatsiyasi, zamonaviy materiallardan foydalanish natijasida xarajatlarni kamaytirish maqsadlariga erishishda *mahsulot tannarxini pasaytirishni ta'minlaydigan investitsion loyihalar* amalga oshiriladi.

Yangi ishlab chiqarishni barpo etish orqali korxona quvvatini yoxud texnologik tizimdagi boshqa ishlab chiqarishni tashkil etish, masalan, pillakashlik korxonalarida shoyi to'qish *ishlab chiqarishini barpo etishga asoslangan investitsion loyihalar* korxona foydasini ko'paytirishni ta'minlaydi.

Mavjud texnologiyalarni takomillashtirishga doir investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki takomillashtirilgan texnologiyalardan foydalanish korxonaning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini oshiradi.

Mehnat va boshqaruvni tashkil etishga doir investitsion loyihalar orqali korxona xodimlari qo'nimsizligini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, mehnat motivatsiyasi orqali ishlab chiqarish samaradorligini

oshirishga erishiladi, yangi mehnat munosabatlarini shakllantirishga asos bo'ladi.

Korxonaning bankrotlik holatini oldini olish yoki raqobatbardoshlik darajasini oshirishda **sanatsiyaga doir investitsion loyihalar** amalga oshiriladi.

Amalga oshirish muddatiga ko'ra, korxonaning investitsion loyihalari quyidagicha guruhlanadi:

Qisqa muddatli investitsion loyihalar. Bunday loyihalar bir yilgacha muddatda amalga oshirilib, asosan, ma'lum turdagi yangi dastgohlarni sotib olish, innovatsiyani investitsiyalash, moddiy aylanma aktivlar zaxirasi o'sishini investitsiyalash bilan bog'liq bo'ladi.

O'rta muddatli investitsion loyihalar. Bu turdagi loyihalarni amalga oshirish muddati bir yildan uch yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, asosan, korxonaning texnik vositalarini modernizatsiyalash, uni rekonstruksiyalash, yaxlit mulklarni tayyorlash va unga egalik qilish ishlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

Uzoq muddatli investitsion loyihalarning muddati uch yildan ko'p bo'lib, bu davrda yangi yirik qurilish ishlari yoki korxonada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida to'la rekonstruksiya ishlari bajariladi.

Moliyalashtirish manbalariga ko'ra, investitsion loyihalar beshta guruh bo'yicha tasniflanadi. Ular quyidagilar: ichki imkoniyatlar hisobiga amalga oshiriladigan; aksiyalar emissiyasi hisobiga moliyalashtiriladigan; tijorat banklari krediti hisobiga moliyalashtiriladigan; xorijiy moliyaviy institutlar hisobiga moliyalashtiriladigan; aralash moliyalashtirish shaklidagi investitsion loyihalar.

Ichki imkoniyatlar hisobiga amalga oshiriladigan investitsion loyihalarni moliyalashtirish aylanma moddiy aktivlar, uning zaxiralari o'sishini ta'minlash, ma'lum turdagi dastgohlarni yangilash, qiymati katta bo'lmagan

nomoddiy aktivlarga egalik qilishda foydalaniladigan kichik loyihalarga xos.

Aksiyalar emissiyasi hisobiga moliyalashtiriladigan investitsion loyihalardan o'rta va yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda foydalaniladi.

Tijorat banklarining krediti hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalar, odatda, dastgohlarning moliyaviy lizingi bilan bog'liq bo'ladi.

Xorijiy moliyaviy institutlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsion loyihalar, korxonaga chet el investitsiyasi, shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning jalb etilishi natijasida amalga oshiriladi.

Aralash moliyalashtirish shaklidagi investitsion loyihalar hozirgi kunda investitsiya amaliyotida eng keng tarqalgan guruh hisoblanadi.

Tavakkalchilikka sezgirligiga ko'ra investitsion loyihalar ikki xilga: **tavakkalchilikli va tavakkalchiliksizga** bo'linadi. Davlat buyurtmasi asosida bajariladigan loyihalarning tavakkalchiligi kam; eng ko'p tavakkalchilik yangi ishlab chiqarish va texnologiyalarni yaratishga doir investitsion loyihalardir.

Xalqaro amaliyotda investitsion resurslar hajmi bo'yicha korxona darajasidagi investitsion loyihalar quyidagilarga bo'linadi:

- qiymati 100 ming AQSH dollarigacha bo'lgan kichik investitsion loyihalar;
- qiymati 100 mingdan 1000 mln. AQSH dollarigacha bo'lgan o'rta investitsion loyihalar;
- qiymati 1 mln. AQSH dollaridan oshadigan yirik investitsion loyihalar.

Bu belgiga ko'ra tasniflashda tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda, loyihaga o'zgartirishlar kiritiladi.

Xorijiy tajriba va amaliyotni inobatga olgan holda,

masalan, pillakashlik korxonalarining xususiyatlarini hisobga olib, investitsion resurslar hajmi quyidagi miqdorlarda bo'linadi:

- 10 ming AQSH dollaridan 100 ming AQSH dollarigacha bo'lgan kichik investitsion loyiha;
- 100 ming AQSH dollaridan 500 ming AQSH dollarigacha bo'lgan o'rta investitsion loyiha;
- 500 ming AQSH dollaridan oshadigan yirik investitsion loyihalar.

Amalga oshirilishiga ko'ra, investitsion loyihalar uch xil belgiga asosanib tasniflanadi:

Boshqa investitsion loyihalarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lmagan investitsion loyiha. Korxonada real investitsiya kiritish orqali investitsion maqsadlarga erishishda muqobillikka asoslangan loyihalardan foydalaniladi. Bu muqobillik, ayniqsa, loyihani bajarish jarayonida ko'proq namoyon bo'ladi.

Boshqa investitsion loyiha boshqarilishiga bog'liq bo'lgan investitsion loyiha. Korxonadagi investitsion loyihalar majmuasining alohida qismlari texnologik yoki vaqt bo'yicha ketma-ketlikka asoslangan investitsion loyihalarni amalga oshirishda foydalaniladigan loyihalar.

Boshqa investitsion loyiha o'rniga amalga oshiriladigan investitsion loyiha. Bunday loyihalarga muqobillikni inkor etadigan aniq investitsion maqsadlarni amalga oshirishda foydalaniladigan loyihalar kiritiladi.

Tasniflangan investitsion loyihalarni ishlab chiqishda ularga differentsiyalangan talablar qo'yiladi.

Korxona mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan kichik loyihalarning tarkibiy qismi va ko'rsatkichlari soni kamaytirilgan bo'ladi.

Investitsion loyiha tarkibi amalga oshirish maqsadi, uning asosiy ko'rsatkichlari, moliyaviy mablag'lar hajmi, investitsiyani amalga oshirishning samaradorlik

ko'rsatkichlari hamda investitsion loyihaning kalendar rejasidan iborat bo'ladi.

Tashqi moliyaviy manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan o'rta va yirik investitsion loyihalar xalqaro va milliy standartlar talabi asosida ishlab chiqiladi.

Yirik investitsion loyihalar Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorida keltirilgan tartibda tegishli ekspertizadan o'tkaziladi.

Ishlab chiqilayotgan investitsion loyihalar mantiqiy tizim asosida bir xil shaklga keltiriladi.

Ayrim hollarda, tarmoq xususiyatlari va real investitsiya shakliga qarab, o'ziga xos investitsion loyihalarni ishlab chiqish mumkin.

Investitsion loyihalarni asoslash ularning tizimlashtirilishini nazarda tutadi. Investitsion loyihalarni moliyaviy boshqarishda ularning quyidagi «hayotiy davri» shaklidagi qismlari yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtiriladi:


- investitsiyalashdan oldingi bosqichda investitsion qarorlarning muqobil variantlari ishlab chiqiladi, ular baholanadi va aniq bir variant bo'yicha to'xtamga kelinadi;

- investitsion bosqichda qabul qilingan investitsion qaror bevosita amalga oshiriladi;

- investitsion bosqichdan keyingi davrda loyihadagi ko'rsatkichlar darajasi nazorat qilinadi.

Investitsion loyiha qismlarining funksional yo'nalishi bo'yicha tizimlashtirilishi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar asosida amalga oshiriladi.

Investitsion loyihaning tarkibi quyidagi (4.1.2-rasm) da keltirilgan qismlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.



4.1.2-rasm. Investitsion loyiha tarkibi
va qismlarining tasniflanishi

Loyihaning qisqacha tavsifi. Investitsion loyihaning bu qismi tayyorlangan barcha muqobil variantlarning ko'rib chiqilganligi va ularni amalga oshirish shakllari asoslanganligi to'g'risidagi xulosalardan iborat.

Investitsion loyihaning bu qismi investorlarga investitsion strategiyasi va faoliyati yo'nalishiga oid hamda investitsion loyihaning amalga oshirilishi va qo'yilgan kapitalning qaytarilishi muddatlari va shunga o'xshash ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Loyihaning asosiy g'oyasi qismida bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, loyiha obyektining

joylanishi, resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirish grafigi kabi loyihaning muhim ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topadi.

Bozor tahlili va marketing konsepsiyasi qismi tarkibiga quyidagilar kiradi: marketing tadqiqotlarining natijalari; marketing konsepsiyasining budjetini ishlab chiqish; bozor tuzilmasi va mahsulot tavsifi, uning bozorda raqobatga bardoshlilik; tarmoqning salohiyati, raqobatchi korxonalar, tarmoqni rivojlantirish istiqbollari va muammolarni baholash, hududiy joylashtirish, mahsulot sifati; tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning ustuvorliklari; mavjud talab, uning o'sishini prognoz qiluvchi asosiy omillar va ko'rsatkichlar; import va uning kelgusidagi tendensiyalari, hajmi va narxlari; bozorlarning joylashgan joyi, bozor segmentatsiyasi; mavjud potensial, mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kutilayotgan raqobat; sotish dasturi, sotishni tashkil etish; sotish bashorati; foydalaniladigan savdo markalari va mahsulotning patent tozaligi; marketing xarajatlarini baholashga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xomashyo va uni yetkazib berishga doir qismi ishlatiladigan xomashyo va materiallarga bo'lgan ehtiyoj, hududda xomashyoning mavjudligi va ta'minlanishi darajasi, xomashyo sifatiga va uni tayyorlash usullariga qo'yiladigan talablar, mahalliy xomashyoning texnologiyalar talablariga muvofiqligi, xomashyoni yetkazib berish dasturi va ular bilan bog'liq xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat.

Investitsion obyektning joylanishi, qurilish maydonchasi haqidagi ma'lumot qismida loyihaning joylanishi, tabiiy muhitni loyihaning amalga oshirishiga ta'siri, hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va investitsion muhiti, ishlab chiqarish va tijorat infra-

tuzilmasi, qurilish maydonchasining muqobillik asosida tanlanganligi, qurilish maydonchasini o'zlashtirish bilan bog'liq xarajatlar to'la tavsiflanadi.

Loyihalashtirish va texnologiya qismi. Bu qism quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: ishlab chiqarish dasturi va korxona quvvati tavsifi; texnologiyalarni tanlash va uni joriy etishga doir takliflar; dastgohlar ro'yxati va ularga texnik xizmat ko'rsatish; yillar bo'yicha o'zlashtiriladigan holda ishlab chiqarish quvvati; texnologiya va asbob-uskunalar, texnologik jarayon sxemalarini tanlashni asoslash, afzalliklar va kamchiliklar, asbob-uskunalarining ishonchliligi va yetkazib beruvchining kafolati; texnologiyaning atrof-muhitga ta'siri; asbob-uskunalar joylashtirish sxemasi; nou-xauga egalik qilish shartlari, xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash; ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro ISO 9000 standarti talablariga muvofiqligini ta'minlash tadbirlari hamda ularni amalga oshirishga doir xarajatlar.

Boshqaruvni tashkil etish. Loyihaning bu qismida korxonaning tashkiliy chizmasi va boshqaruv tizimi; javobgarlik markazlari va faoliyat sohalari bo'yicha tashkiliy boshqaruv tuzilmasi asoslanadi; boshqaruvga doir xarajatlar smetasi ko'rib chiqiladi.

Mehnat resurslari. Bu qism xodimlarning tarkibi bo'yicha funksiyalari, hududda ularni shakllantirish imkoniyatlari; xodimlarni qabul qilishni tashkil etish, o'qitish va qayta tayyorlash rejasi va u bilan bog'liq xarajatlarga qo'yiladigan talablardan iborat.

Loyihani amalga oshirish rejasi. Bu qismda loyihaning alohida qismlarini amalga oshirish bosqichlari grafigi va budjeti asoslanadi.

Moliyaviy reja va investitsiya samaradorligini baholash. Bu qism investitsiya bo'yicha to'liq xara-

jatlar; ularning samaradorligini baholash usullari, loyihani moliyalashtirish; sotilgan mahsulotga to'liq chiqimlar; qarz mablag'larining qoplanishini va o'z vaqtida qaytarilishini hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni baholash, valutaning qoplanishi; loyihaning asosiy tavakkalchiliklarga sezgirliigi; sof joriy qiymat ko'rsatkichlari va kapital qo'yilmalarning ichki qaytariluvchanligi me'yorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Korxona investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida:

- moliyalashtirish manbalari va hal etilishi lozim bo'lgan vazifalardan kelib chiqqan holda, tavsiya etilayotgan loyihalardan birini yoki bir nechtasini tanlashi mumkin;

- korxonaning investitsion salohiyati va raqobatbardoshligi investitsion loyihalarning to'g'ri tanlanishi orqali amalga oshiriladi;

- korxona iqtisodiy samaradorligini oshirishda investitsion imkoniyat va investitsion loyihalarning qismlar bo'yicha bajarilishi monitoringini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Korxona ma'lum bir vaqt oralig'ida turli xildagi mahsulotlarni ishlab chiqarib, uzluksiz ravishda rivojlanib boradi.

Korxonaning «rivojlanish aylanuvchanligi» va foydasi o'zgarishini davrlarga bo'lishlik fikrini xorijlik olimi N.I. Laxmetkina ilgari surgan¹. Unga ko'ra:

- «bolalik davri» – odatda, bu davrda moliyaviy natijalar manfiy bo'ladi, aylanuvchanlikning o'sish sur'atlari yuqori bo'lmaydi;

¹ Лакметкина Н.И. Инвестиционная стратегия предприятия. – М.: КНОРУС, 2006. – 21 с.

– «o'smirlik davri» – aylanuvchanlikning tezda oshishi, dastlabki foydani olish bilan bog'liq davr;

– «yetuklik davri» – aylanuvchanlik o'sishining pasayib borishi va foyda kamayishiga xos bo'lgan davr;

– «keksalik davri» – aylanuvchanlik va foydaning keskin kamayishi davri.

Bu davr o'z ichiga 20–25 yilni olib, undan keyin korxona o'z faoliyatini to'xtatadi yoki yangi asosda, yangi mulk egalari va boshqaruvchilar bilan faoliyatini davom ettiradi.

Korxonaning «hayotiy faoliyati davri» tushunchasi uning ishlashi mobaynida vujudga keladigan turli muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va investitsion jozibadorlikni baholash imkonini beradi.

«Bolalik» davrida, korxona asosan pul mablag'lari yetishmasligi natijasida bozorda o'z o'rnini topa olish bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Buning uchun korxona kelajakda rivojlanishi uchun qisqa muddatli moliyalashtirish, shuningdek, yetarli darajadagi investitsion manbalarni topishi lozim.

«O'smirlik» davrida korxona iqtisodiy ko'tarilish yo'nalishida faoliyat ko'rsatadi. Bu davrda o'rta va uzoq muddat davomida investitsiyalash mablag'lari orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ehtiyoj tug'iladi.

«Yetuklik» davrida korxona barcha imkoniyatlardan maksimal darajada foyda olishga intiladi, ya'ni ishlab chiqarish, texnologik, tijorat imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. O'zini mablag' bilan ta'minlash imkoniyati oshadi.

Mahsulotlarning bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida, korxonaga investitsiya kiritish bu davrga xos belgilardan hisoblanadi.

Keyinchalik texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalash natijasida marketing sohasidagi yuqori

o'rinlarni saqlab qolish uchun va kiritilayotgan mablag'larning qisqa muddatlarda qoplanishini inobatga olgan holda, investitsiya kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

«Keksalik» bosqichidagi korxonalarga mahsulotning keng qamrovli diversifikatsiya qilinishi, korxona faoliyatining boshqa turga aylantirilishi, ya'ni tarkibiy o'zgartirishlarning amalga oshirilishidan tashqari hollarda investitsiya kiritilishi samarasiz hisoblanadi.

Hayotiy faoliyat davrlariga bo'lishda korxonaning oxirgi bir necha yildagi mahsulot hajmini belgilovchi ko'rsatkichlar, aktivlarning umumiy summasi, o'z kapitali va foydasining miqdorlarini tahlil qilish asosida belgilanishi mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Yana bir xorijlik iqtisodchi olim I.A. Blank ham korxonaning «hayotiy faoliyat davri»ga qarab investitsion jozibadorlikni baholash g'oyasini ilgari surgan¹. U N.I. Laxmetkinadan farqli o'laroq, «o'smirlik» davrini «dastlabki o'smirlik» va «oxirgi o'smirlik» davrlariga ajratilishini taklif etgan.

Korxonada «dastlabki o'smirlik» va «oxirgi o'smirlik» davrlarini aniq belgilash mushkul.

Shu nuqtayi nazardan, investitsion jozibadorlikni baholashda korxonani «hayotiy faoliyat davri»ga bo'lish g'oyasiga qo'shilgan holda, uning 4.1.1-jadvalda keltirilgan shaklda talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

¹ Бланк И.А. Инвестиционный менеджмент. – Киев.: 2-е изд. «Ника-Центр» 2006. – 219-221 с.

4.1.1-jadval

Korxonaning «hayotiy faoliyat davrlari»da investitsion jozibadorlikni baholashni belgilovchi ko'rsatkichlar tasnifi

«Hayotiy faoliyat» davri	Investitsion jozibadorlik belgilovchi ko'rsatkichlar
Bolalik	- real investitsiyalashning yuqori sur'atlarini ta'minlash; - investitsion faoliyatning «zararsiz»ligini ta'minlash.
O'smirlik	- real investitsiya hajmini kengaytirish; - real investitsiya yo'nalishini diversifikatsiyalash; - joriy investitsion foydaning minimal darajadagi me'yorini ta'minlash; - investitsion kapitalning yetarli darajadagi o'sishini ta'minlash.
Yetuklik	- erishilgan maksimal investitsiya miqdorini saqlab qolish; - noiqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan real investitsiyani rivojlantirish; - moliyaviy investitsiya portfelini shakllantirish; - real va moliyaviy shakldagi investitsiyalashni keng ko'lamda diversifikatsiyalash; - investitsiyalash daromadini o'rtacha me'yorini ta'minlash.
Keksalik	- amortizatsiyalanadigan aktivlarning o'z vaqtida renovatsiyasini ta'minlash; - kam miqdordagi yo'qotishlarga erishish uchun samarasiz investitsion obyektlarga kapitalni yo'naltirmaslik.

Korxona investitsion jozibadorligining baholanishini ularning moliyaviy faoliyatining tahlil qilinishi asosida ham amalga oshirish mumkin¹.

¹ Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С., Негашев Е.В. Методика финансового анализа. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2002. – 82 с.

Bu usuldan, asosan, investitsiya mablag'laridan kutilayotgan daromadni baholash, ularni muddatida qaytarish, shuningdek, korxonaning moliyaviy holatiga sezilarli darajada ta'sir etuvchi investitsion tavakkalchiliklarni aniqlashda foydalanish mumkin.

Keys 1.

I. «CASE STUDY»

1. Investitsion loyiha va uning tahlili mavzusi *keys tarzida* talabalar bilan birgalikda o'zlashtiriladi.

2. Ushbu keysning maqsadi – talabalar tomonidan pillakashlik korxonasining real qo'shma korxona barpo etish biznes rejasini ishlab chiqishdan iborat.

Keysdan kutilayotgan natijalar – talabalar tomonidan pillakashlik korxonasining investitsion biznes rejasini ishlab chiqishda loyihaning tarkibiy qismlarini hisoblash va har bir loyiha bo'yicha alohida qarorlar qabul qila olishni o'rganishdan iborat.

3. Bu tashkiliy-institutsional keys bo'lib, korxonaning real faoliyati asosida ishlab chiqilmagan.

4. Keysning obyekti pillakashlik korxonasi. U strukturaviy va kichik hajmdagi keys-topshiriqdir.

5. Didaktik maqsadlari bo'yicha – trening keysi hisoblanib, amaliy mashg'ulot davomida berilgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan. Shu boisdan keysda alohida vaziyatda vujudga kelgan muammoni tahlil qilib, ijobiy hal etish uchun vazifalar, uni yechish ketma-ketligi, axborot manbalari berilgan.

6. Keysning axborot manbayi bo'lib investitsion loyihaning texnik-iqtisodiy ma'lumotlari hisoblanadi.

Ushbu keysda pillakashlik korxonasini barpo etish uchun investitsion loyihalardan eng maqbuli, samaralisini

tanlab olish yo'nalishida hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.

Berilgan keysni yechishda quyidagi o'quv natijalarga erishish mumkin:

- o'rganilgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash;
- muammoni alohida va guruhlararo tahlil qilishga va baho berishga o'rganish;
- mustaqil qaror qabul qilishga o'rganish;
- o'quv ma'lumotlarini o'rganish darajasini tekshirish;
- investitsion loyihalarni tahlil etish asosida ularga baho bera olish.

II. TALABALAR UCHUN METODIK KO'RSATMALAR

M u a m m o:

Pillakashlik korxonasining barpo etiladigan investitsion loyihalarini tahlil etish va ulardan eng samaralisini tanlab olish.

V a z i f a l a r:

1. Investitsion loyihaaning biznes rejasi asosiy qismlarining tuzilishini o'rganish.
2. Ishlab chiqarish rejasini tuzish.
3. Sotish rejasini ishlab chiqish.
4. Mahsulot tannarxini hisoblash.
5. Moliyaviy rejani hisoblash.
6. Texnik iqtisodiy asosni hisoblash.
7. Loyihaaning muqobil variantlarini taqqoslash.

Y e c h i s h k e t m a - k e t l i g i:

1. Ishlab chiqarish rejasi tuziladi.
2. Sotish rejasini aniqlash uchun tavsiya qilingan jadvallar ma'lumot manbalari yordamida to'ldiriladi.

3. To'la quvvat bilan ishlash sharoitida xomashyo sarfi aniqlanadi.

4. Xomashyo yetkazib berish dasturi hisob-kitob qilinadi.

5. To'la quvvatda ishlayotgan korxonada energoresurslari qiymati hisoblanadi.

6. Energoresurs to'lovlari uchun xarajatlarni hisoblashda tavsiya qilingan jadval ma'lumotlar orqali to'ldiriladi.

7. Korxonaning mehnat resurslari hisoblanadi.

8. Mehnat resurslari xarajatlari hisoblanadi.

9. Bojxona xarajatlari hisob-kitob qilinadi.

10. To'la investitsion xarajatlar aniqlanadi.

11. Moliyalashtirish manbalari aniqlanadi.

12. Investitsiyalash grafigi ishlab chiqiladi.

13. Amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

14. Sotilgan mahsulotlarning to'la xarajatlari hisoblanadi.

15. Iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi.

16. Naqd pul oqimi aniqlanadi.

17. Loyiha bo'yicha investitsiya loyihasining qoplanishi hisoblanadi.

18. Ko'p maqsadli optimallashtirish usuli orqali investitsion loyiha ning samaradorligi baholanadi.

4.2. Ishlab chiqarish rejasi

Pillakashlik korxonasi biznes rejasining asosiy qismlaridan biri bo'lib ishlab chiqarish rejasi hisoblanadi. Quyida pillakashlik korxonasi investitsion loyihasining real ma'lumotlar asosida hisoblanishi va uning biznes reja shaklida rasmiylashtirilishi o'z aksini topgan. Jadval 4.2.1 da korxonaning biznes rejasini tuzish uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan.

4.2.1-jadval

Ishlab chiqarish rejasi

Mahsulot turlari	O'lbhav birligi	To'la quvvatdagi miqdori	Yil oxiridagi zaxiralar darajasi, %	Umumiy sotuvda eksportning salmog'i, %	1 tn mahsulotning eksport bahosi (USD)	1 tn mahsulotning ichki bahosi (USD)	
Quvvatlarni o'zlashtirish	%	50	85	100	100	100	
Xom ipak ipi 429/1	t	110,4	6	100	32500		
Xom ipak ipi 310/1	t	16,8	6	90	30500	30000	
Jami xom ipak ipi	t	127,2					
Los	t	31,8	6	0	0	5876	
Xolst 1-o'tim	t	10,9	6	0	0	4657	
Xolst 2-o'tim	t	12,6	6	0	0	4058	
G'umbak	t	118	6	0	0	588	
Nostandart pilla	t	39	6	0	0	2463	
Ishlab chiqarish yillar bo'yicha		1 yil 50%	2 yil 85%	3 yil 100%	4 yil 100%	5 yil 100%	10 yil 100%
Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori							
Xom ipak ipi 429/1	tn	55,20	93,84	110,4	110,4	110,4	110,4
Xom ipak ipi 310/1	tn	8,4	14,28	16,8	16,8	16,8	16,8
Jami xom ipak ipi	tn	63,6	108,12	127,2	127,2	127,2	127,2

Los	t	15,9	27,03	31,8	31,8	31,8	...	31,8
Xolst 1-o'tim	t	5,45	9,27	10,9	10,9	10,9	...	10,9
Xolst 2-o'tim	t	6,3	10,71	12,6	12,6	12,6	...	12,6
G'umbak	t	59,0	100,3	118,0	118,0	118,0	...	118,0
Nostandart pilla	t	19,5	33,15	39,0	39,0	39,0	...	39,0
Yil oxiridagi zaxira								
- 10. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashda qanday tadbirlar amalga oshiriladi?**
 - A. Talab va taklif bashoratlarini hisobga olgan holda mahsulotlar bozorini baholash
 - B. Xomashyolarni bashorat qilish orqali zaxira resurslaridan foydalanganlikni baholash
 - C. Obyekt manzilgohi, infrastrukturani baholash
 - D. Texnologik qarorlarni tanlash, loyihaning samaradorligi va hayotiyligini baholash

«Blits-so'rov» savollari

1. Investitsion loyiha tushunchasi nima?
2. Investitsion loyihalar qanday tasniflanadi?
3. Investitsion loyihalar qanday xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi?
4. Korxona iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga doir investitsion loyihalar tarkibi nimalardan iborat?
5. Moliyalashtirish manbalariga ko'ra investitsion loyihalar qanday guruhlarga bo'linadi?
6. Investitsion loyihalarning tarkibiy qismi nimalardan iborat?

«Aqliy hujum» usulidan foydalanish uchun savollar

1. Loyihaviy moliyalashtirish bosqichlari.
2. Loyihalarning texnik ekspertizasi.
3. Loyihalarning iqtisodiy tahlili.
4. Loyihalarning moliyaviy tahlili.
5. Investitsiyaning qoplanish muddati.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yirik investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish byurosida maqsadli dasturlar, konsepsiyalar va investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va tavsiyalar tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 91-son Qarori, 2006-yil 22-may, 91-son. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-y. 20–21 (208–209)-son.
2. Джонс Эрнест. Деловые финансы: Пер. с англ. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 1998. – 654 с.3.
Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili; Akad. M.Sharifxo'jayev tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2003. – 256-b.
4. Кочетков И.А., Никешин С.Н., Рудаков Ю.П. и др. Управление проектами (зарубежный опыт). – СПб.: «ДваТри», 1993. – 458 с.
5. Gulomov S.S. Investitsiyalarning loyihaviy tahlili. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998.
6. Mahmudov N.M., Madjidov Sh.A. Ipakchilik tarmog'ida investitsion faoliyatning samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 166 bet.

V BOB

INVESTITSION LOYIHANI MOLİYALASHTIRISH MANBASI VA TARTIBLARI

5.1. Moliyalashtirish manbalari va ularning tuzilishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkdan foydalanish va unga egalik qilishning o'ziga xos bo'lgan «lizing» ko'rinishi jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Lizing tushunchasi inglizcha «leasing» so'zining to'g'ridan to'g'ri talaffuz shakli bo'lib, asosi «lease» ya'ni o'zbekcha «ijara» yoki «ijaraga berish» so'zlariga to'g'ri keladi. Shu nuqtayi nazardan, aksariyat hollarda lizingga ijara xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'rif beriladi. Shunday holatni O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Lizing to'g'risida»gi Qonunida ham kuzatish mumkin. Mazkur Qonunning 2-moddasida lizing tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Lizing (moliyaviy ijara) ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi».

Yuqoridagi Qonunda lizing munosabatlarida uchta tomon qatnashishi majburligi belgilab qo'yilayapti. Bu holat sohaga bag'ishlangan boshqa ilmiy adabiyotlarda ham uchrab, lizing munosabatlarida «uchta va undan ortiq subyekt qatnashadi: uskunalarni yetkazib beruvchi, lizing (moliya) kompaniyalari va foydalanuvchilar» tahriridagi ta'riflar sifatida lizing mohiyati yoritiladi. Ammo bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan lizing turlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning hammasida ham uchta tomon ishtirok etmasligining guvohi bo'lish mumkin. Masalan, qaytarma lizingni oladigan bo'lsak, unda ikki tomon ishtirok etadi. Ana shunday holatda aylanma mablag'larga muhtojlik sezgan korxona va mablag' ta'minotchisi (moliya tashkiloti, ya'ni lizing beruvchi) ishtirok etadi. Korxona o'z mulkining talab qilinadigan aylanma mablag' summasiga teng qismini lizing beruvchiga shartnoma asosida beradi. Natijada korxona aylanma mablag'ga ega bo'lish orqali ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishga erishadi va shartnomaning amal qilish muddati tugagandan so'ng lizing beruvchidan mulkni sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Bu esa yuqoridagi ta'rifga ko'ra lizingning bunday, ya'ni ikki xo'jalik subyekti o'rtasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan turi chetlab o'tilayotganidan dalolat beradi, deyish mumkin.

Lizing iqtisodiy atamasiga baho berish uchun, eng avvalo, uning iqtisodiy mohiyatini to'g'ri tushunish talab etiladi.

Lizing o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri investitsiyaga xosdir, ya'ni lizing munosabatlarida faqatgina xo'jalik subyektlari faol qatnashib, bevosita davlat aralashuvi talab etilmaydi. Unga ko'ra, lizing oluvchi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni tashkil

etish jarayonida ko'rsatgan xizmatlari uchun lizing beruvchiga pul yoki moddiy ko'rinishda investitsiya xarajatlarini va mukofot puli to'laydi. Shu jihatdan lizing tadbirkorlik faoliyatining bir ko'rinishidir.

Lizing faoliyati o'zida ma'lum muddat foydalanilmay turgan yoki jalb qilingan moliyaviy resurslarni investitsiyalashni gavdalandirib, moliyaviy ijara (lizing) lizing beruvchi shartli mulkiy shartnoma asosida ishlab chiqaruvchi mulkiga ega bo'lish va bu mulkni lizing oluvchiga tadbirkorlik maqsadida vaqtinchalik to'lov sharti asosida taqdim etishni ifodalaydi. Lizing beruvchi ishlab chiqaruvchiga taqdim etiladigan mulkni o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirishi mumkin. Bu O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Lizing to'g'risida»gi Qonunining 8-moddasida ham o'z ifodasini topgan.

Lizing shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida mulk lizing beruvchining mulkiy huquqi ostida bo'ladi. Lizing oluvchi esa undan vaqtinchalik foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Bu jarayon shartnomada ko'rsatilgan pul mablag'i lizing oluvchi tomonidan to'liq to'langan yoki shartnoma shartlari bajarilgunga qadar davom etadi. Amaldagi qonunchilikda ham «lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizing beruvchiga tegishlidir» deb belgilab qo'yilgan.

Lizing shartnomasi tugagach, lizing oluvchi kelishilgan narx (to'lov) hisobiga lizing obyektiga ega bo'lishi, lizing shartnomasi muddatini uzaytirishga erishishi yoki uni egasiga qaytarishi mumkin.

Odatda, lizing munosabatlarida uchta tomon, ya'ni lizing beruvchi, lizing oluvchi va mulkni sotuvchi (yetkazib beruvchi) ishtiroki ko'zda tutiladi. Ba'zi holatlar

da ular soni qisqarishi yoki aksincha, ko'payishi mumkin. Masalan, sotuvchi va lizing beruvchi yoki sotuvchi va lizing oluvchi bir shaxs bo'lganda, lizing munosabatlari ishtirokchilari soni ikkitani, yirik miqdordagi investitsiyani jalb qilishni talab etadigan loyihalarni amalga oshirishda esa moliyaviy manbalarga ega bo'lgan (banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsion fondlar va hokazo) xo'jalik subyektlarini jalb qilish hisobiga lizing beruvchilar soni ko'payishi natijasida lizing munosabatlari ishtirokchilari soni bir qanchani tashkil etishi mumkin.

Aksariyat adabiyotlarda lizingga ijara shakli sifatida ta'rif beriladi. Masalan, «lizing deganda ko'char va ko'chmas obyektlarga egalik qilishning alohida ijara munosabatlariga asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy-huquqiy, shu jumladan, kredit-moliyaviy munosabatlar majmuyi va mulkiy huquqlarning yig'indisini tushunmoq kerak», «lizing – moliya-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalar tomonidan mashina, asbob-uskuna va shunga o'xshashlarni uzoq muddatli ijaraga olinishini anglatadi» yoki «lizing ijara munosabatlarining alohida shakli» kabilar. Ammo ular o'rtasida farq qiluvchi jihatlar to'liq ochib berilmagan. Shundan kelib chiqqan holda, «lizing» va «ijara» munosabatlari o'rtasida farqni ochib berish yuzasidan shaxsiy fikrlarimizni bayon qilamiz.

Ijara munosabatlari mulk egasi va ijaraga oluvchi o'rtasida amal qilib, mulkdan foydalanish bilan bog'liq asosiy mas'uliyat ijaraga oluvchi zimmasiga yuklatiladi. Lizing munosabatlarida esa ijaradan farqli o'laroq, lizing oluvchi lizing beruvchiga nisbatan passiv rol o'ynaydi. Sotuvchi esa mustaqil faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lmaydi, ya'ni u mulkni bevosita shartnomada ko'rsa-

tilgan manzilga (lizing oluvchiga) yetkazib berish bilan shug'ullanadi.

Ijara munosabatlarida ijaraga beruvchi ijarachi oldida mulkdan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi barcha kamchiliklar yuzasidan javobgarlikni shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olishga majbur bo'lsa, lizing munosabatlarida esa lizing beruvchi lizing oluvchi oldida lizingga berilgan mulk nuqsonlari, undan foydalanish jarayonida kishilarning sog'lig'i va hayotiga yetkazilishi mumkin bo'lgan ziyonlar uchun lizing oluvchi va sotuvchi oldida javobgar emas. Faqatgina obyekt lizing beruvchi tomonidan yoki uning tavsiyasiga ko'ra tanlangan vaziyatlarda lizing oluvchiga yetgan zararni qoplash lizing beruvchi zimmasiga tushishi mumkin. Lizing beruvchi lizingga berilayotgan mulkda kuzatilishi mumkin bo'lgan nosozlikni bartaraf qilish yuzasidan javobgarlikni ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) ga yuklashga harakat qiladi. Bu, o'z navbatida, lizing oluvchiga qabul qilib olingan mulkda nosozlik kuzatilgan vaqtda to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqaruvchiga talabnoma bilan murojaat qilish imkoniyatini yaratadi. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, mulkni ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq mas'uliyat shartnoma shartlariga asosan, lizing beruvchi, lizing oluvchi yoki sotuvchi zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Shunga qaramasdan lizing shartnomasida ko'zda tutilgan muddatda obyekt lizing beruvchi mulkiy huquqi ostida bo'lib, lizing oluvchi esa ijaradan farqli o'laroq, lizing beruvchi oldidagi to'lov intizomini to'liq ado etish orqali mulkiy huquq bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Ijara munosabatlarida barcha xavf-xatar ijaraga beruvchi zimmasida bo'lib, ijaraga oluvchi ixtiyoriy vaqtda shartnomani bekor qilishi mum-

kin. Lizing munosabatlarida esa lizing shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish lizing oluvchi tomonidan shartnoma shartlari to'liq bajarilmaganligi munosabati bilan lizing beruvchi yoki aksincha, lizing oluvchi tomonidan talab qilingan taqdirda, ikkinchi tomon lizing to'lovini hamda shu bilan birga, ba'zi hollarda jarima to'lashga ham majbur bo'ladi.

Umuman olganda, lizing ijaraga nisbatan keng tushuncha bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar mas'uliyatini kengaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy tadbirkorlik faoliyati ko'rinishidir.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, lizing va mulk sotib olish uchun foydalaniladigan kredit munosabatlari o'rtasida ham o'xshashliklar mavjud. Lizingga «ko'char va ko'chmas asbob-uskunalarni ijaraga berish shartnomasida uning ijarachiga sotilishi mumkinligini ko'zda tutuvchi professional kreditning bir shaklidir» ko'rinishida berilgan ta'rif fikrimiz tasdig'idir.

Asosiy fondlar kredit resurslari hisobiga sotib olinganda, kreditor (qarzdor yoki tadbirkor) qarzni uzish uchun o'rnatilgan muddatda belgilangan miqdordagi pul mablag'ini to'lab boradi. Mavjud holatda bank kredit mablag'ining qaytarilishini ta'minlashning kafolati sifatida kreditor tomonidan kredit majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar mulkiy huquqni to'liq o'zida ushlab turadi. Bundan tashqari, bank kredit qaytarilmaslik xavfini qisqartirish maqsadida sotib olinayotgan mulkni kredit summasining to'liq qiymatida qabul qilmaydi (asosan, umumiy kredit summasining 80 foizi miqdorida hisobga oladi). Lizing munosabatlarida ham lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasida ko'zda tutilgan shartlar to'liq bajarilgunga qadar mulkiy huquq lizing beruvchida saqlab qolinadi. Lizing va kredit munosabat-

lari o'rtasidagi mavjud o'xshashlik lizingning moliyaviy turiga xosdir. Shuni e'tiborga olgan holda, lizingga ba'zi manbalarda «bank krediti yoki uning shakli» sifatida baho beriladi. Shunday ta'riflardan biri quyidagicha bayon etilgan: «Lizing – mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga beruvchida mulkiy huquq saqlanishini ko'zda tutuvchi uzoq muddatli ijaraga berishning yangi maxsus shakli bo'lib, kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish bank kreditining muqobil shaklidir».

Zamonaviy lizing xizmatlari bozori lizingning ko'plab turlarini, ularni amalga oshirish yuzasidan turli xildagi shartnomalar va lizing operatsiyalarini tartibga solishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'zida aks ettiradi.

Lizingning muhim turlaridan biri **moliyaviy** lizing bo'lib, u lizing shartnomasi davrida mulk (amortizatsiya) qiymatining to'liq yoki asosiy qismi to'lanishini ko'zda tutadi. Bu asosan, mulkning lizing oluvchiga o'tishi (agar shartnomada boshqa maqsadlar ko'zda tutilmagan bo'lsa) va lizing beruvchi esa mavjud moliyaviy operatsiyadan foyda olishini nazarda tutadi.

Lizingning **tezkor** (operativ) turi esa bir martalik lizing shartnomasi bilan mulkning lizing oluvchiga o'tishini ta'minlamaydi va lizing beruvchining mulkka egalik qilish bilan bog'liq barcha xarajatlarini qoplash imkoniyatini bermaydi, ya'ni mulk qiymatini to'liq shakllantirish va ma'lum miqdordagi daromadga ega bo'lish uchun lizingga beruvchi mulkni bir necha bor ijaraga berishi lozim bo'ladi. O'z navbatida, «lizing kompaniyasi tezkor lizingda mulkni olar ekan, undan aniq kim foydalanishini bilmaydi, shuning uchun u lizing mulki bozorining konyunkturasini yaxshi bilishi kerak».

Tezkor lizing shartnomasi mulkning jismoniy eskirishiga nisbatan qisqa muddatga tuzilib, lizing oluvchi ixtiyoriy muddat shartnomani to'xtatish yuzasidan taklif kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mulk yuzasidan asosiy javobgarlik lizing beruvchida bo'lib, uning ishga yaroqliligini ta'minlab turishi talab etiladi. Bu lizing to'lovlarining moliyaviy lizingga nisbatan ancha yuqori bo'lishini ta'minlaydi. «Tezkor lizing obyekti hisoblanuvchi mulkni lizing kompaniyalarining o'zi sug'urtalab, ta'mirlash masalalari bilan shug'ullanadi».

Bugungi kunda jahon amaliyotida lizing operatsiyalarining umumiy investitsiyalardagi ulushi pastligi (o'rtacha 15 foiz) saqlanib qolayotgan bo'lib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar bir qator rivojlangan va rivojlantirayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida esa uning ulushi juda pastligicha saqlanib qolmoqda.

Lizingning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rniga baho berish uchun, eng avvalo, mavjud munosabatlarning rivojlanishini taqozo qilgan omillar mohiyatini atroflicha tahlil qilish zarur.

Lizing – mulkka egalik qilish bilangina cheklanishdan emas, balki undan samarali foydalanishdan iborat ekanligini ham isbotlab kelmoqda.

Lizingning tub mohiyati mulkiy huquq, kapital, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi kabi ishlab chiqarish munosabatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, mulkdordan mulkiy huquq bosqichma-bosqich undan foydalanuvchiga o'tib borishi yoki mavjud faoliyat davrida mulk subyekti o'zgarishi lizing munosabatlarining o'ziga xosligidan dalolat beradi. Ya'ni lizing munosabatlari jarayonida lizing oluvchi o'z mablag'i va mehnatini asosiy fondlarning sifat va son jihatidan yax-

shilanishiga qaratishi oqibatida foydalanuvchidan egalik qiluvchiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. U, o'z navbatida, tadbirkor – mehnatkash – mulkdor sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat investitsion qo'yilmalari, kredit resurslari va xorijiy investitsiyalar u yoki bu faoliyat sohasi, mulkchilik shaklini ustun sanab, imtiyozli shartlar joriy qilishni ko'zda tutsa, lizing munosabatlari uchun esa ularning barchasi bir xil mavqega ega.

Umuman olganda, lizingning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati mulkiy munosabat, hamkorlikdagi iqtisodiy faoliyat va mulkiy huquq o'zgarishining hayotda o'z ifodasini topishi bilan baholanadi, deyish mumkin.

Lizingning ishlab chiqarish funksiyasi fan-texnika jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda tez fursatlarda ma'naviy eskirishi mumkin bo'lgan asbob-uskunalar sotib olish hisobiga emas, balki nisbatan qisqa muddatda vaqtinchalik foydalanish sharti asosida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Bu ishlab chiqarishni texnik jihatdan qurollantirishning samarali usuli bo'lish bilan birga, fan-texnikaning oxirgi yutuqlaridan manfaatdor bo'lishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, lizing oluvchi ishlab chiqaruvchi yoki lizing beruvchi tomonidan texnik xizmat ko'rsatish, sug'urta qilish, xomashyo bilan ta'minlash, ishchi kuchi malakasini oshirish kabi qator xizmatlardan ham foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Lizing asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar ochish imkoniyatini beradi. Agar bugungi kunda fan-texnikaning so'nggi yutuqlari asosida tayyorlangan mashina va asbob-uskunalar ancha qimmat hisoblanib, ularning, asosan, rivojlanayotgan, rivojlanish darajasi past bo'lgan (yoki sotib olish imkoniyati chek-

langan) hududlar ishlab chiqarishi uchun talab qilinishini e'tiborga oladigan bo'lsak, lizing faoliyati imkoniyatlarini yuqori baholash mumkin.

Lizing faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari 2006-yilda ham davom ettirilib, 2006-yil 17-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 325-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2006-yil 1-apreldan boshlab lizing xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilingan.

Amalga oshirilgan lizing operatsiyalari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy ulushni qishloq xo'jalik texnikalari tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin (5.1.1-jadval).

Demak, respublikada amalga oshirilayotgan lizing operatsiyalarining katta qismi qishloq xo'jalik texnikalari sotib olishni moliyalashtirishga qaratilayotgan bo'lib, «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi asosiy ulushga ega.

Lizing operatsiyalarining rivojlanishida soliq va amortizatsiya ajratmalaridan beriladigan imtiyozlar muhim ahamiyat kasb etib, ulardan foydalanish quyidagi bir qancha xususiyatlarga ega:

- lizingga olingan mulkning shartnoma kelishuviga ko'ra lizing oluvchi yoki lizing beruvchi balansida aks etishi;

5.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2010–2012-yillarda lizingga berilgan mulklar tarkibi

mln. AQSH dollari

Soxalar bo'yicha asbob-uskunalar	2010-yil		2011-yil		2012-yil	
	lizing bitim-lari soni	sum-ma	lizing bitim-lari soni	sum-ma	lizing bitim-lari soni	sum-ma
Yengil sanoat	26	540	4	2152	38	5626
Poligrafiya sanoati	5	940	9	3301	30	3619
Kompyuter va o'rgtex-nikalar	52	756	36	1307	28	953
Qishloq xo'jaligi	2493	30527	3422	46157	5022	61337
Yuk avtotrans-porti	2	221	10	888	24	1700
Passajir avtotrans-porti	80	1552	242	5489	274	7019
Ko'chmas mulk	16	2702	38	2352	49	8917
Boshqalar	12	426	33	1356	47	8222
Jami:	2686	37664	3794	63002	5512	97393

• lizing to'lovlarining ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatlar tannarxiga kiritilib, soliqqa tortiladigan bazadan chegirilishi;

- tezlashtirilgan amortizatsiya usulini qo'llash imkoniyatining berilishi;

- lizing beruvchilar daromadi (foydasi)ni imtiyozli soliqqa tortish tizimining amal qilishi.

Respublikamiz lizing bozorida 2012-yilga qadar faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarning hammasi ham lizing faoliyati bilan shug'ullanishda davlat tomonidan taqdim etilgan soliq imtiyozlaridan bir xilda foydalanish imkoniyatiga ega emas edilar. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2004-yil 26-aprelda qabul qilingan «Lizing xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 199-sonli qarorda belgilangan soliq imtiyozlaridan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi korxonalar foydalanish huquqiga ega bo'lib, yagona soliq to'lovchi xo'jalik subyektlari undan mahrum edi. Chunki qonun hujjatlari yagona soliq to'lovchi xo'jalik subyektlari uchun mol-mulk solig'ini to'lash va tezlashtirilgan amortizatsiya usulini qo'llash imkoniyatini bermasdi. Ushbu holat yagona soliq to'lovchi xo'jalik subyektlarining lizing operatsiyalarida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida yagona soliq stavkasini lizing to'lovini amalga oshirish muddatida ma'lum miqdorga qisqartirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjat qabul qilishni talab etar edi. Mavjud muammo O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-martdagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3860 sonli Farmoni bilan o'z yechimini topdi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarni respublikamiz lizing bozori amaliyotiga joriy etish orqali lizing faoliyatining rivojlanishiga, uning ko'lamini kengayishiga, korxonalarda ishlab chiqarishning rivojlanishiga va yangi

texnika-texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish sikli qisqarishiga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

Lizingning *ijtimoiy ahamiyati* – davlat mulki xususiylashayotgan bir sharoitda uning ma'lum qismiga egalik qilish, qayta jihozlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi talabga nisbatan bir necha bor ortib ketgan sharoitda uning tartiblanishiga ko'maklashish, import o'rni bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Siyosiy ahamiyati esa o'rta mulkdorlar qatlami shakllanishi, moddiy ta'minot yaxshilanishi natijasida amalga oshirilayotgan islohotlardan mamnuniyat hissining kuchayishi bilan bog'liqdir.

5.2. Lizing to'lovlari summasini aniqlash

Lizing to'lovi – lizing loyihasi moliyaviy qismining yalpi umumlashgan ko'rinishi bo'lib, lizing beruvchi uchun faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq (lizing obyektni sotib olish, yetkazib berish, ishga yaroqliligini ta'minlash kabi) xarajatlarni qoplash va daromad olish imkoniyatini aniqlovchi hamda lizing oluvchi olishi mumkin bo'lgan (yoki olgan) daromadning bir qismini qayta taqsimlovchi moliyaviy ko'rsatkichdir.

Lizing beruvchi va oluvchining lizing to'lovlari tarkibi bir-biridan farqlanadi. Lizing beruvchining lizing to'lovi tarkibi 2004-yil 14-aprelda qabul qilingan «Lizing to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasiga asosan aniqlanadi. Lizing to'lovini iqtisodchi olim Yuldashev M.A. quyidagi formula yordamida hisoblashni taklif etadi.

$$L_i = L_{st} + K_i + L_{eb} + L_{yax} + L_{bd}$$

L_{st} – lizing obyektini sotib olish xarajatlari;

K_i – kredit resurslaridan foydalanish bilan bog'liq to'lov;

L_{eb} – lizing obyektini yetkazib berish xarajatlari;

L_{yax} – lizing obyektini yaroqli holda ushlab turish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

L_{bd} – lizing beruvchi daromadi.

Lizing oluvchining lizing to'lovi tarkibini esa quyidagi formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$L_i = A_a + K_n + L_{st} + M_p + S_i$$

A_a – amortizatsiya ajratmalari miqdori;

K_n – kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov;

L_{st} – qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov;

M_p – lizingga beruvchi oladigan mukofot puli;

S_i – sug'urta to'lovi.

Yuqorida lizing beruvchi va lizing oluvchining lizing to'lovlari tarkibini formula ko'rinishida ifodalashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi PF-3122 sonli «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan, lizing obyekti bojxona bojidan va mol-mulk solig'idan ozod qilinganligi bois mazkur jihatlar e'tiborga olinmadi.

Ushbu Farmonda berilgan imtiyozlarni e'tiborga olmaganida, lizing to'lovi qiymati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

$$L_{iq} = A_q + K_i + L_{be} + L_{ba} + Q_{qr}$$

A_q – amortizatsiya ajratmalari qiymati;

K_r – kredit resurslaridan foydalanish bilan bog'liq to'lov;

L_{bz} – lizing beruvchining komission to'lovi (marjasi) miqdori;

L_{bx} – lizing beruvchining boshqa xarajatlari;

Q_{qs} – qo'shilgan qiymat solig'i.

Lizing to'lovlarini mulkka egalik qilish huquqini beruvchi mulk oldi-sotdisining iqtisodiy shakllaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Lizing beruvchi mulkni lizingga berayotganda uning qiymati qo'shimcha daromad bilan belgilangan foizlar shaklida qaytib kelishini maqsad qiladi.

Masalan, qishloq xo'jalik mashinasi lizing asosida berilganda, lizing to'lovi quyidagi tartibda hisoblanadi: lizing kompaniyasi tomonidan umumiy qiymati o'rtacha 18 mln. so'm bo'lgan qishloq xo'jalik texnikasi 7 foizli stavka bilan 7-yil (84 oy)ga lizingga berilgan. Lizing oluvchidan lizing obyektining 15 foiz qiymati miqdorida bo'nak to'lovi amalga oshirilib, bu 2,7 mln. so'mni tashkil qiladi. Lizing muddatida lizing oluvchi tomonidan lizing obyekti qiymati, ya'ni 15,3 mln. so'm va foiz stavkasi to'lanishi talab etiladi. Lizing to'lovi har 6 oyda teng ulushda taqsimlangan holda 1092,86 ming so'mni tashkil etib, lizing to'lovi ilk davridan boshlab foiz stavkalari bilan birga asosiy qarz summasi ham to'lab borilganligini kuzatish mumkin.

Asosiy qarz summasini topish uchun umumiy qarz summasini lizing to'lovi muddati (oylar soni)ga bo'lindi yoki

$$A_q = Q_s / L_{sz}$$

Bu yerda: A_q – asosiy qarz summasi;

Q_s – umumiy qarz summasi;

L_m – lizing to'lovlari muddati.

Foiz to'lovlari summasini topish uchun esa asosiy qarz summasi foiz stavkasiga ko'paytirilib, yil kunlarini oy kunlari ko'paytmasiga bo'linganiga tengdir. Uni formula yordamida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$F_n = A_q \times F_s / 365 \times O_k$$

Bu yerda: F_n – foiz to'lovi summasi;

A_q – asosiy qarz summasi;

F_s – foiz stavkasi;

O_k – oy kunlari soni.

Jami lizing to'lovlari summasi,

$$L_l = A_q + F_n$$

Lizing oluvchi tomonidan 19093,13 ming so'm lizing to'lovi to'lanishi talab etilib, shundan 80,1 foizi asosiy qarz summasiga to'g'ri keladi. Lizing kompaniyasi foiz ko'rinishida 3793,13 ming so'm yoki asosiy qarz summasining 24,8 foizi miqdorida marja olishi namoyon bo'lmoqda. Umumiy marja summasining 35,7 foizi lizing kompaniyasiga tegishli bo'lib, umumiy marja summasining 50 foizi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga, qolgan 14,3 foizi esa «Agrobank»ga o'tkazib boriladi.

Qishloq xo'jalik texnikasi 7 yil yoki 84 oyga lizingga berilganda, amortizatsiya qiymatining 81 foizini tashkil qilib, ishlash normasi 9112,5 moto/soatni tashkil etishi ko'zda tutiladi. Demak, bu lizing to'lovini nafaqat muddat, balki ishlagan moto/soati bilan ham bog'lash

zaruratini tug'diradi. Masalan, tekshirish natijalari 2012-yil 1-iyul holatiga 1900 moto/soat yoki 20,9 foizni tashkil qilishini ko'rsatsa, to'lov summasi 3186,6 ming so'm o'rniga 3981,0 ming so'm bo'lishi lozimligini bildiradi. Uni aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi:

Lizing to'lov summasi = $(19093,13 \times 20,9\%) = 3981,0$ ming so'm.

Bu lizing to'lovlari jadvaliga qishloq xo'jalik texnikasi ishlashi lozim bo'lgan moto/soatlarni ham kiritib borish lozimligini ko'rsatadi. Moto/soatni nazorat qilib borishdan asosiy maqsad esa lizingga oluvchi tomonidan lizing shartlari o'z vaqtida bajarilmagan, ya'ni lizing obyektni qaytarib olishga zarurat tug'ilganda hisob-kitobni to'g'ri amalga oshirish va boshqa lizingga oluvchiga berishda qoldiq qiymatini aniqlashda foydalanishdan iboratdir.

Bugungi kunda respublika lizing amaliyotida lizing to'lovlarini hisoblashning yuqorida «O'zqishloq-xo'jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi misolida keltirilgan kabi, asosan, moliyaviy renta (annuitetlar) usulidan foydalanib kelinmoqda.

5.3. Xorijiy investitsiyalar va u orqali amalga oshirish tartibi

Har bir alohida mamlakatning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rnini va salohiyati uning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Har qanday davlatning taraqqiyotida xorijiy investitsiyalar muayyan o'rin tutadi. Shuning uchun ham xorijiy investitsiyalarni o'z iqtisodiyotiga jalb qilishning oqilona yo'llarini tanlash O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib

chiqib, jahonda investitsiyalar uchun qat'iy raqobatli kurash davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, respublika iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan o'tkazish, mablag'larni mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir. O'zbekistonda iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishda turli mulk shakllari vujudga kelishining shart qilib qo'yilishi, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotida davlat, xususiy, shirkat mulk shakllari bilan bir qatorda, aralash mulk shakli ham faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratdi. Aralash mulk shaklining klassik ko'rinishi bo'lib xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi. Aksariyat rivojlangan davlatlarda vujudga kelgan moliyaviy tanglikdan chiqishda ushbu turdagi xo'jalik subyektlaridan foydalanilganligini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda, uni bosqichma-bosqich yuksaltirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati xususida: «Mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish – bu nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ayni paytda – bu, avvalo, yangi zamona-viy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish, shu asosda ishlab chiqaradigan mahsulotlarimizning yuksak sifatini ta'minlashga qaratilgan», deb ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, O'zbekiston milliy

iqtisodiyotini yuksaltirishda xorijiy investitsiyalarning o'rnini va ahamiyatini kun sayin oshib bormoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga va uning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga keng yo'l ochdi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning moliya-kredit mexanizmidagi muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi ushbu korxonalar faoliyatini tashkil etishda ayrim jiddiy kamchiliklarning mavjudligi; mamlakatimizga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning mintaqaviy notekis joylashganligi; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning mamlakatimiz iqtisodiyotini ustuvor tarmoqlarida yetarli darajada faoliyat ko'rsatmayotganligi; investitsiya salohiyatini shakllantirishda va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning samarali faoliyat yuritishida soliq tizimidagi o'zgarishlarning ta'sirini sezilarligi nisbatan zaifligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar «...ayniqsa, to'g'ridan to'g'ri kelayotgan sarmoyalar oqimi har bir kishi, umuman jamiyat hayoti uchun suv va havodek zarur» ligidan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tadqiq etish, ularni bartaraf qilish yo'llarini belgilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Respublikadagi barqaror siyosiy va iqtisodiy vaziyat, puxta o'ylangan siyosat hamda Prezident va hukumatning xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab ish olib borayotganligi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish tartibi mukammalligi tufayli qo'shma korxonalar, chet el firmalari, ularning shu'ba korxonalari, filiallari,

vakolatxonalari hamda tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi xalqaro birlashmalarning tashkil etilishi kun sayin ko'payib bormoqda.

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni barpo etish masalasida Prezident I.A. Karimovning: «Eng muhimi, chetdan imtiyozli sarmoyalarni olib kelish – bu pirovard natijada mamlakatimizda raqobatga bardoshli, kuchli iqtisodiyotni barpo etish va jahon bozorida o'z munosib o'rnimizni egallashga qodir bo'lish demakdir. O'ylaymanki, bugungi kunda bu haqiqatni hech kimga isbotlab o'tirishning hojati yo'qdir» deb bildirgan fikrlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashi-shini nazarda tutadi. Ochiq bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G'arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda. Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jalb etmoqda.

Hozirgi davrda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; sherik tanlash; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona barpo etish haqida qaror qabul qilish. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining, asosan, uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin: ichki, tashqi va strategik.

Ichki sabablar tarkibi quyidagilardan iborat:

- yaratilgan investitsiya muhitidan foydalanish;
- boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish;

- zamonaviy va eng qulay tartibga erishish;
- mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish;
- xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish;
- ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish;
- xodimlar malakasini oshirish.

Tashqi sabablar tarkibi quyidagilardan iborat:

- jahon bozoriga chiqish;
- sog'lom va samarali raqobat muhiti;
- siyosiy keskinlikning yumshashi;
- mahalliy hukumatning talablari.

Strategik sabablar tarkibi quyidagilardan iborat:

- mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati;
- mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish;
- texnologiyalar transferti;
- ishlab chiqarishni kengaytirish.

Test topshirig'i

1. «Lizing to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?
 - A. 1999-y 14-aprel
 - B. 1998-y 18-aprel
 - C. 2000-y 10-dekabr
 - D. 2005-y 10-mart
2. Lizing operatsiyalarining qanday turlari mavjud?
 - A. Moliyaviy, operativ, qaytariluvchan

- B. Operativ, moliyaviy
 - C. Qaytariluvchan, operativ
 - D. Operativ
- 3. Qaytariluvchan lizing qo'llanilganda, kimlar xaridor sifatida namoyon bo'lishi mumkin?**
- A. Sug'urta kompaniyalari; tijorat banki; firma; yakka investor
 - B. Sug'urta kompaniyalari; tijorat banki
 - C. Firma, yakka investor
 - D. Tijorat banki; yakka investor
- 4. Jahon amaliyotida lizingning nechta turi mavjud?**
- A. Moliyaviy; operativ; qaytariluvchan
 - B. Moliyaviy; operativ
 - C. Operativ; qaytariluvchan
 - D. Moliyaviy; qaytariluvchan
- 5. Moliyaviy lizingning o'ziga xosligini nimadan bilsa bo'ladi?**
- A. Ijaraga olingan mol-mulkka, ijaraga beruvchi hech qanday xizmat ko'rsatmaydi, ijarani muddatidan oldin to'xtatishga yo'l qo'yilmaydi, moliyaviy lizing to'liq amortizatsiyalashtirilgan hisoblanadi
 - B. Muddatidan oldin to'xtatishga yo'l qo'yilmaydi
 - C. Moliyaviy lizing to'liq amortizatsiyalashtirilgan hisoblanadi
 - D. Ijarani muddatidan oldin to'xtatishga yo'l qo'yilmaydi, moliyaviy lizing to'liq amortizatsiyalashtirilgan hisoblanadi

«Blits-so'rov» savol va topshiriqlari

1. Lizing tushunchasiga ta'rif bering.
2. Lizing faoliyatini amalga oshirishni kafotlaydigan respublikamizda qanday me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilgan?
3. Lizing munosabatida qanday tomonlar ishtirok etadi?
4. Lizingning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
5. Lizing ijaradan qanday farqlanadi?
6. Lizingning qanday turlari mavjud?
7. O'zbekistonda lizingni rivojlantirish to'g'risida ma'lumot bering.
8. Lizing to'lovlari qanday hisoblanadi?
9. Lizingning ijtimoiy ahamiyatini ta'riflang.
10. Lizingning siyosiy ahamiyatini ta'riflang.

«Aqliy hujum» usulidan foydalanish uchun savol va topshiriqlar

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Xorijiy investitsiyalarning zaruratini asoslab bering.
3. Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni me'yoriy-huquqiy asoslari qay darajada ta'minlangan?
4. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mohiyatini tushuntiring.
5. Xorijiy investitsiyalar asosida iqtisodiyot sohalarida barpo etilgan korxonalar haqida ma'lumot bering.
6. Xorijiy investorlarga qanday soliq imtiyozlari berilgan?

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida»gi Qonuni, 1991-yil 19-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi Qonuni, 1999-yil 14-aprel.
3. *Бернар И., Колли Ж.-К.* Толковый экономический и финансовый словарь Французская, русская, немецкая, испанская терминология: В 2-х тт. – Т1: Пер с фр. – М.: Международные отношения, 1994. – 507 с.
4. *Васильев Н.П., Катырин С.Н., Лене Л.Н.* Лизинг как механизм развития инвестиций и предпринимательства. – М.: ИКК «ДеКА», 1999. – 185 с.
5. *Газибеков Д.Г., Сабиров О.Ш.* «Лизинг и его развитие в Узбекистан». – Т.: «Молия», 2001. – 68 с.
6. *Газман В.Д.* Лизинг: теория, практика, комментарии. – М.: Фонд «Правовая культура», 1997. – 30 с.
7. *Жуков Е.Ф.* Банки и банковские операции: – М.: Банки и биржи «ЮНИТИ», 1997. – 128 с.
8. *Mallikov T.S.* Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: «Akademiya». 2002. – 153-b.
9. Рынок. Бизнес. Коммерция. Экономика. Толковый терминологический словарь. -4е изд., исправ. и доп. – М.: Информационно – внедренческий центр «Маркетинг». 1998. – 356 с.
10. *Хайдаров Ш.У.* Лизинг: Признание, оценка и учет /Хайдаров Ш.У., Ортиков Х.А., Туксанов Х.А. – Ташкент: ООО «NORMA», 2006. – 240 с.11.
G'ozibekov D.G', Sabirov O.Sh. va boshqalar. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, «Fan va texnologiya», 2004. – 308 b.
12. *G'ozibekov D.G'.* Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2004. – 308-b.
13. *Yuldashev M.A.* Lizing – iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy vositalaridan biridir. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2007. № 1.

VI BOB

INVESTITSION TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISH USULLARI

6.1. Tavakkalchilikni baholashning asosiy mezonlari va uning uslublari

Investitsion faoliyatni amalga oshirishda investitsiya tavakkalchiligi tushunchasini bilishning o'zi yetarli emas. Bunda tavakkalchilik, avvalo, korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir etishini va uni pasaytirish yo'llarini bilish muhimdir. Odatda, tavakkalchilikni pasaytirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi.

- Tavakkalchilikning vujudga kelishini kamaytirish;
- Tavakkalchilikning korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini kamaytirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida real investitsiyalarning barcha turlari turli shakldagi tavakkalchiliklar ta'sirida bo'ladi. Bunga asosiy sabab iqtisodiyotdagi turli o'zgarishlarning mavjud bo'lishi, investitsiya bozori kon'yunkturasining o'zgarib turishi, turli shakldagi real investitsion loyihalarni vujudga kelishi va ularni moliyalashtirish shakllarini turlicha bo'lishligidadir. Loyihalarni baholashda tavakkalchilik darajasi investitsion xarajatlar hajmi va sof pul oqimi summasidan keyin uchinchi o'rinda turadi.

*Real investitsion loyiha*ning tavakkalchiligi, bu – investitsion loyihalarni amalga oshirishga tahdid soluvchi

va ularning hisoblangan samaradorligini pasaytiruvchi imkoniyatlar tushuniladi.


Korxonani loyihaviy tavakkalchiligi ko'p qirrali bo'lib, ularni samarali boshqarish maqsadida quyidagi xususiyatlarga qarab tasniflash lozim (6.1.1- rasm).

Korxonaning investitsion loyihasi tavakkalchiligi tasnifi quyidagi yettita guruhdan iborat:

- turi bo'yicha;
- loyihani amalga oshirish bosqichlari bo'yicha;
- vujudga kelish manbalari bo'yicha;
- vaqt bo'yicha namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra;
- moliyaviy yo'qotishlar darajasi bo'yicha;
- ko'ra bilish imkoniyati bo'yicha;
- sug'urtalash darajasi bo'yicha.

Bu guruhlar, o'z navbatida, har biri yana turli xususiyatlarga qarab guruhlanadi.

Bugungi kunda tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha yetarli darajada yaxshi tarkib topgan faoliyat mavjuddir. Bu faoliyat quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.





6.1.1 rasm. Korxonaning loyihaviy tavakkalchilik tasnifi

1. Identifikatsiya;
2. Tavakkalchiliklarni baholash;
3. Tavakkalchilik boshqaruvida maqsad va instrument tanlash;
4. Tavakkalchilikning oldini olish va nazorat qilish;
5. Tavakkalchilikni moliyalashtirish;

6. Natijalar bahosi.

Birinchi va ikkinchi yo'nalishlar **tavakkalchilik tahlili**, deyiladi. Tavakkalchilik identifikatsiyasi sifat tahlili bo'lsa, tavakkalchilik bahosi miqdoriy tahlildir. Tavakkalchilik tahlillari ichida eng ko'p uchraydigan tavakkalchilikning nazariy boshqaruvi bo'lib statistik usullar hisoblanadi.

6.2. Tavakkalchilikni boshqarish va tavakkalchilik darajasini pasaytirish yo'llari

Tavakkalchilik ta'sirini kamaytirishda ikkita bir-birini to'ldiruvchi yo'llar mavjud:

- shartnomalarni bajarish bosqichida ularni bajarilishini ta'minlovchi chora-tadbirlar;
- loyihani amalga oshirish jarayonida boshqaruv qarorlarining nazoratini samarali tashkil etish.

Birinchi yo'l dunyo amaliyotida quyidagicha amalga oshiriladi:

- sug'urtalash;
- qarzdorning mulkini ushlab turish yoki kafilligini ta'minlash;
- loyihani moliyalashtirish jarayonini bosqichlarga bo'lgan holda tasdiqlash;
- investitsiyani diversifikatsiyalash.

Ikkinchi yo'l, ya'ni loyihani amalga oshirish jarayonida boshqaruv qarorlarining nazoratini samarali tashkil etish quyidagi uslublar asosida amalga oshiriladi:

- kutilmagan xarajatlarni qoplash maqsadida mablag'larni zaxiralash;
- kreditlarni restrukturalashtirish;

Loyihaviy tavakkalchiliklarni kamaytiruvchi uslublarning bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Investitsion tavakkalchiliklarni kamaytiruvchi uslublarning eng muhimlaridan biri, bu – ***diversifikatsiyalash*** hisoblanadi. Har qanday investitsion loyihalarni qabul qiluvchi shaxs investitsion loyihaga bog'liq bo'lgan boshqa loyihalarni ham birgalikda ko'rib chiqadi. Tavakkalchilikni kamaytirishda shunday mahsulotlarni ishlab chiqarish rejalashtirilishi lozimki, unga bo'lgan talab qarama-qarshi yo'nalishda o'zgarsin.

Loyihaviy tavakkalchilikning loyiha qatnashchilari orasida taqsimlanishi uni kamaytirishning eng maqbul uslublaridan hisoblanadi. Bunda tavakkalchilikning alohida holatlarini investitsion loyiha qatnashchilari orasida taqsimlanishi nazarda tutiladi.

Tavakkalchilikning taqsimlanishi loyihaning moliyaviy rejasini ishlab chiqishda hisobga olinadi va shartnoma hujjati ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Kutilmagan xarajatlarni qoplash maqsadida mablag'larni zaxiralash – investitsion loyihalarning tavakkalchiligini kamaytiruvchi keng tarqalgan uslublardan biri hisoblanadi. Bunda loyihani amalga oshirishda vujudga keladigan tavakkalchiliklarni kamaytirish maqsadida loyiha qiymatining ma'lum qismi zaxiralashtiriladi. Dunyo amaliyotida loyiha qiymatini fors-major holatlari uchun 7–12 foiz ko'paytirishga ruxsat beriladi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi alohida tavakkalchiliklar ta'sirini yo'qotish yoki yumshatish uchun bir qancha usullar qo'llaniladi.

1. Tavakkalchilikdan qochish. Qochish deganda tavakkalchilik bilan bog'liq tadbirlardan shunchaki og'ish tushuniladi. Tavakkalchilikni pasaytirishning bu usuli mukammal ko'rib chiqilmaydi.

2. Tavakkalchilikni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash (tavakkalchilikning bir qismini hamkor-

larga berish). Tavakkalchilikni taqsimlash loyiha-ning moliyaviy rejasini va aniq hujjatlarini ishlab chiqishda amalga oshiriladi.

3. Tavakkalchilikni sug'urtalash. Tavakkalchilikni sug'urtalash, mantiqan olganda, muayyan tavakkalchiliklarni sug'urta kompaniyalariga berishni anglatadi. Uning mohiyati investorning tavakkalchilikdan qutulish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechishi orqali aks ettiriladi. Bunda investorning tavakkalchilik darajasini «nol»ga tushirish uchun to'lovni amalga oshirishga tayyor ekanligini tushunish mumkin. Ko'p hollarda, sug'urta kompaniyalari moliyaviy tavakkalchiliklarni sug'urtalash bilan tavakkalchilik darajasini pasaytirishga to'liq erishishga xizmat qiladilar.

4. Tavakkalchilikni pasaytirish (ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira mablag'larini tashkil etish yo'li bilan yo'qotishlar hajmini qisqartirish). Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira mablag'larini tashkil etishdagi asosiy muammo tavakkalchiliklarning jiddiy oqibatlarini baholash hisoblanadi. Buning uchun loyiha qiymatini boshlang'ich baholashni hisobga olish lozim. Bu esa zaxira summasini aniqlashga katta yordam beradi.

Tavakkalchilikni pasaytirishning aniq vositasini tanlashda investor quyidagi tamoyillarga asoslansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- ortiqcha tavakkal qilish kerak emas;
- tavakkalchilik oqibatlari to'g'risida o'ylash lozim;
- kam narsa uchun tavakkalchilik qilish kerak emas.

Birinchi tamoyilning amalga oshirilishi investor kapitalni qo'yishdan oldin:

- ushbu tavakkalchilik bo'yicha mumkin bo'lgan zarar-ning maksimal hajmini aniqlab olishi;

- uni barcha xususiy moliyaviy mablag'lari bilan taqqoslashi va ushbu kapitalning yo'qotilishi investorning bankrot bo'lishiga olib kelish-kelmasligini aniqlashi lozim.

Kapital qo'yilmasidan ko'rilgan zarar hajmi ushbu kapital hajmiga teng, undan katta yoki kichik bo'lishi ham mumkin. Xususan, bevosita investitsiyalardagi zarar hajmi, odatda, inflyatsiya omilini hisobga olgan holdagi ventchur kapitali hajmiga tengdir.

Ikkinchi tamoyilning amalga oshirilishi investorning tavakkalchilik ehtimolligi miqdori va oqibatlarini aniqlab olgan holda tavakkalchilikni pasaytirish usullari to'g'risida qaror qabul qilinishini talab etadi.

Uchinchi tamoyilning amal qilinishi loyihadan ko'riladigan zarar hajmi nisbatan yuqori bo'lgan holda tavakkalchilikdan bosh tortish zarurligi bilan anglashiladi.

Investor uchun uning manfaatiga mos bo'lgan loyiha uni amalga oshirishdagi yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarning to'liq bartaraf etilganidir. Loyiha iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muqobil loyihalarni taqqoslama tahlil etishning ahamiyati juda kattadir. Loyihalarning taqqoslama tahlili, hatto, ularning qaysi biri eng kam tavakkalchilikli, yuqori foydali, tez qaytimli, kafolatlangan daromadli, hayotiyligi ishonchli investitsiya loyihasi ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunday tahlil investorning moliyalashtirishga loyiq haqiqiy raqobatbardosh loyihani aniqlashi va tanlashiga imkon yaratadi.

Test topshirig'i

1. Iqtisodiy tavakkalchiliklar – bu...

- A. Iqtisodiy omillarning o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklar
- B. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq tavakkalchiliklar
- C. Investitsiyalanayotgan korxonalarning ishchilari ta'siri ostida rejalashtirilmagan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish
- D. Investitsiyalanayotgan obyektlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli xil ekologik ofatlar va fojialar

2. Mavjud bo'lish xususiyatiga ko'ra tavakkalchiliklar:

- A. Tijorat, ishlab chiqarish, moliyaviy tavakkalchiliklar
- B. Moddiy-texnika ta'minoti
- C. Tizimsiz tavakkalchiliklar
- D. Tizimli tavakkalchiliklar

3. Tavakkalchilikni pasaytirishning aniq vositasini tanlashda investor qaysi tamoyillarga asoslanadi?

- A. Ortiqcha tavakkal qilish kerak emas
- B. Tavakkalchilik oqibatlari to'g'risida o'ylashi lozim
- C. Kam narsa uchun tavakkalchilik qilish kerak emas
- D. A, B va C

4. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi alohida tavakkalchiliklar ta'sirini yo'qotish yoki yumshatish uchun qanday usullar qo'llaniladi?

- A. Tavakkalchilikdan qochish
- B. Tavakkalchilikni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash
- C. Tavakkalchilikni sug'urtalash, tavakkalchilikni pasaytirish
- D. Barcha javoblar to'g'ri

«Blits-so'rov» savol va topshiriqlari

1. Tavakkalchiliklarning turlarini ayting
2. Tavakkalchiliklar qanday tasniflanadi?
3. Iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning tavakkalchilikka qanday ta'siri bor?
4. Kutilmagan xarajatlarni qoplash maqsadida mablag'larni zaxiralash deganda nimani tushunasiz?

«Aqliy hujum» usulidan foydalanish uchun savollar:

1. Investitsiya tavakkalchiliklarini aniqlash usullari
2. Tavakkalchilikni boshqarish va tavakkalchilik darajasini pasaytirish yo'llari nimalardan iborat?
3. Tavakkalchiliklarni sug'urtalash qanday amalga oshiriladi?

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2002-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14-aprel 2001-yildagi «Korxonalar investitsion faolligini rag'batlantirish chora-tadbirlari haqida»gi 184-sonli Qarori.
3. *Abdullaeva Sh.Z.* Bank risklari va kreditlash. T.: – Moliya, 2002.
4. *Glazunov V.P.* Финансовый анализ и оценка рисков реальных инвестиций. М.: – Финстатинформ. 2002.
5. *Shodmonov Sh., Jo'raev T.* Iqtisodiyot nazariyasi. T.: TDIU, 2001. – 527 b.

Iqtisodiy atamalar izohi (glossariy)

Avtonom investitsiya – sof daromad (foyda) shakllanishiga bevosita bog'liq bo'lmagan kapital qo'yilmalarni ifodalaydi. Masalan, texnologik jarayonlarni takomillashtirish uchun yo'naltiriladigan investitsiya.

Aralash investitsiya – investitsiya obyektlariga xususiy va davlat kapitali qo'yilishini ifodalaydi.

Bevosita investitsiya – kapital qo'yilmalarni investor tomonidan to'g'ridan to'g'ri investitsion obyektlarga yo'naltirilishi nazarda tutiladi.

Bilvosita investitsiya – vositachi moliyaviy tashkilotlar orqali investorlar tomonidan kapital qo'yilmalarning qo'yilishi tarzida ifodalaniladi.

Bir-birini inkor etuvchi investitsiya – amalga oshirish maqsadida o'xshash texnologiyalarni, mahsulot turlarini tanlashda muqobillikni talab etishni ifodalaydi.

Bog'liq bo'lmagan investitsiya – investitsion dastur doirasidagi investitsion loyiha tarkibiga kiruvchi o'zaro bog'liq bo'lmagan obyektlarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

Davlat investitsiyasi – davlat budjeti va budjetdan tashqari davlat fondlari hamda davlat korxonalari tomonidan kapitallar qo'yilishini ifodalaydi.

Daromadsiz investitsiya – investor tomonidan foyda olmaslik maqsadida investitsion obyektlarni investitsiyalashni ifodalaydi. Odatda, bunday investitsiyalardan ijtimoiy, ekologik va boshqa noiqtisodiy samara olish maqsad qilib qo'yiladi.

Daromadning ichki me'yori – investitsiyadan pul oqimini, kelajakdagi qiymatini diskont stavkasi bilan belgilangan

investitsion mablag'larni hozirgi qiymatiga keltirilgan aniq bir investitsion loyihaning daromadlilik darajasini ifodalaydi.

Dastlabki investitsiya – o'zining mablag'i hamda qarz shaklidagi moliyaviy resurslar hisobiga investitsion maqsadlar uchun qayta shakllangan kapital ishlatilishini ifodalaydi.

Dezinvestitsiya – investitsion maqsadlar uchun qayta ishlatmaslik sharti bilan ilgari kiritilgan investitsion kapitalni investitsion oborotdan ajratib olish jarayonini ifodalaydi. Masalan, korxona ko'rgan zararini qoplash uchun yo'naltirilgan investitsiya.

Diskontlangan qoplash muddati – investitsion loyihaning amalga oshirilishidan boshlab, iqtisodiy ijobiy samaraga erishgunga qadar bo'lgan qisqa vaqt intervali.

Investitsiya – kapitalning barcha shakllarini xo'jalik faoliyatining turli obyektlariga foyda olish maqsadida kiritilishi hamda bozor tamoyillariga asoslangan tavakkalchilik, likvidlik va vaqt omiliga bog'liq bo'lgan iqtisodiy yoki noiqtisodiy samara olishdir.

Investitsion jozibadorlik – investitsiya obyektlarini tasniflash va baholash, reyting orqali taqqoslashni amalga oshirish, turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va darajasidagi xo'jalik hamda investitsion jarayonlarni qiyoslash orqali tahlil qilish.

Investitsion loyiha – ma'lum harakatlarni amalga oshiruvchi, ya'ni kelgusida foyda olish maqsadida kapital qo'yilishiga asoslangan, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob-kitob hujjatlari tizimi.

Investitsion muhit – korxona, tarmoq, hududda investitsion jozibadorlikni ta'minlovchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarning obyektiv jamlamasi.

Investitsion tavakkalchilik – noaniq holatdagi investitsion faoliyatda kutilmagan yo'qotishlarning vujudga kelishi ehtimoli.

Intellektual investitsiya – patentlar, litsenziyalar, nou-xaular, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga investitsiyalarning yo'naltirilishi.

Ichki investitsiya – mamlakat ichida turli shakldagi kapitallar qo'yilishini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish investitsiyasi – jamg'arish va iste'mol orqali sof daromad (foyda) olish dinamikasini ifodalaydi.

Kam daromadli investitsiya – investitsiyaning sof investitsion foyda darajasi uning o'rtacha me'yoridan kam bo'lgan investitsiya obyektlariga yo'naltirilishini ifodalaydi.

Kapital qo'yilma – asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, qurish, kapital ta'mirlash, kengaytirish hamda yaratish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi.

Lizing – mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga beruvchida mulkiy huquq saqlanishini ko'zda tutuvchi uzoq muddatli ijaraga berishning yangi maxsus shakli bo'lib, kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish bank kreditining muqobil shaklidir.

Lizing to'lovi – lizing loyihasi moliyaviy qismining yalpi umumlashgan ko'rinishi bo'lib, lizing beruvchi uchun faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq (lizing obyektni sotib olish, yetkazib berish, ishga yaroqliligini ta'minlash kabi) xarajatlarni qoplash va daromad olish imkoniyatini aniqlovchi hamda lizing oluvchi olishi mumkin bo'lgan (yoki olgan) daromadning bir qismini qayta taqsimlovchi moliyaviy ko'rsatkichdir.

Milliy investitsiya – korxonalar yoki davlat tashkilotlarining kapitalini mamlakatimizdagi turli investitsion obyektlarga qo'yilishini ifodalaydi.

Moliyaviy investitsiya – daromad olish maqsadida investitsiyalarni turli qimmatli qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar, banklarning depozit sertifikatleri va boshqalar) qo'yilishi nazarda tutiladi.

Moliyaviy lizing – lizing shartnomasi davrida mulk (amortizatsiya) qiymatining to'liq yoki asosiy qismi to'lanishini ko'zda tutadi. Bu asosan, mulkning lizing oluvchiga o'tishi (agar shartnomada boshqa maqsadlar ko'zda tutilmagan bo'lsa) va lizing beruvchi esa mavjud moliyaviy operatsiyadan foyda olishini nazarda tutadi.

Nolikvidlik investitsiya – alohida amalga oshirish imkoniyati bo'lmagan va investitsion bozorlarda barcha mulk tarkibida birgalikda amalga oshiriladigan investitsiyalar kiritiladi.

Past tavakkalchilik investitsiya – o'rtacha bozordagi xavf-xatar darajasidan past bo'lgan investitsion obyektlarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

Past likvidlik investitsiya – o'zining joriy bozor qiymatini yo'qotmagan holda, uzoq muddatdan keyin (yarim yil va undan ko'p) pul shakliga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lgan investitsion obyektlarga kiritilishi.

Real investitsiya – asosiy vositalarni vujudga keltirish, tovar-moddiy boyliklar zaxirasini oshirishga qo'yiladigan kapital, ya'ni korxonalarni bunyod etish hamda ularning bir maromda ishlashini ta'minlash uchun yetarli miqdorda xomashyo zaxiralarini barpo etishga yo'naltirilishi.

Reinvestitsiyalar – investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

Renovatsiya investitsiyasi – asosiy vositalarni qayta tiklashga qo'yiladigan kapital hajmini ifodalaydi. Miqdoriy jihatdan renovatsiya investitsiyasi ma'lum davrdagi amortizatsiya ajratmalari summasiga tenglashtiriladi.

Rentabellik indeksi – loyiha bo'yicha investitsion xarajatlar hajmi bilan kutilayotgan sof pul oqimi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash.

Sof investitsiya – asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun investitsiyalanadigan kapital hajmini ifodalaydi. Miqdoriy jihatdan sof investitsiya ma'lum davrdagi yalpi investitsiyadan barcha turdagi amortizatsiyalanadigan kapitallarni amortizatsiya ajratmasi summasining ayirmasi sifatida hisoblanadi.

Sof joriy qiymati – muayyan vaqt oralig'ida daromad va kapital qo'yilmalar orasidagi diskontlangan farqni ifodalaydi.

Strategik investitsiya – strategik investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltiriladi.

Tavakkalchiliksiz investitsiya – hisoblangan real sof investitsion foyda olish kafolatlangan yoki kapitalni yo'qotish xavfi bo'lmagan investitsion obyektlarga mablag'larning qo'yilishini ifodalaydi.

Tashqi investitsiya – kapital boshqa korxonalarining real aktivlariga qo'yilishini ifodalaydi.

Tashqi omillarga bog'liq bo'lgan va ta'sir etuvchi investitsiya – o'zaro bog'liq bo'lib, ular inflyatsiya darajasi, ijtimoiy infrastruktura, ishlab chiqarishning mavjudligiga va boshqa omillarga bog'liq bo'lgan kapital qo'yilma.

Tezkor lizing (operativ) – bir martalik lizing shartnomasi bilan mulkning lizing oluvchiga o'tishini ta'minlamaydi va lizing beruvchining mulkka egalik qilish bilan bog'liq barcha xarajatlarini qoplash imkoniyatini bermaydi, ya'ni mulk qiymatini to'liq shakllantirish va ma'lum miqdordagi daromadga ega bo'lish uchun lizingga beruvchi mulkni bir necha bor ijaraga berishi lozim bo'ladi.

Tijorat investitsion tavakkalchiligi, bu – tadbirkorlik tavakkalchiligining bir turi bo'lib, investitsion faoliyat bilan bog'liq investitsion loyiha, tijorat faoliyatining amalga oshirilishi bilan bog'liq tavakkalchilik bo'lib, hamkorlarning mas'uliyatsizligi, asossiz texnik va texnologik yechimlar, muvaffaqiyatsiz marketing natijasidagi yo'qotishlarni anglatadi.

Uzoq muddatli investitsion loyiha, bu – turdagi loyihani amalga oshirish muddati uch yildan ko'p bo'lib, bu davrda yangi yirik qurilish ishlari yoki korxonada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida to'la rekonstruksiya ishlari bajariladi.

Xalqaro investitsiya yoki (xalqaro bozordagi investitsiya) – mamlakatdagi turli shakldagi kapitalarni uning tashqarisida qo'yilishini ifodalaydi.

Xorijiy investitsiya – chet ellik investorlar foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shayotgan mulkiy boyliklarning va ularga nisbatan huquqlarning, shuningdek, intellektual mulkka

nisbatan huquqlarning barcha turlari chet el investitsiyalari hisoblanadi.

Xorijiy investitsiya – respublikamizdagi investitsion obyektlarga xorijdagi yuridik yoki jismoniy shaxslarning kapitali qo'yilishini ifodalaydi. Bunday investitsiyalar davlat tomonidan kafolatlangan yoki to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar shaklida kiritiladi.

Xususiy investitsiya – jismoniy shaxslar, shuningdek, nodavlat mulk shakliga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan kapitallar qo'yilishini ifodalaydi.

Yuqori daromadli investitsiya – investitsion bozorlardagi o'rtacha foyda me'yorida kutilayotgan yuqori sof investitsion foyda darajasini ta'minlovchi loyihalarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

Yuqori tavsakalchilikli investitsiya – o'rtacha bozordagi xavf-xatar darajasidan yuqori bo'lgan investitsion obyektlarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

Yuqori likvidlik investitsiya – o'zining joriy bozor qiymatini yo'qotmagan holda, qisqa muddat ichida (odatda bir oygacha) pul shakliga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lgan investitsion obyektlariga kiritiladi.

Yalpi investitsiya – ma'lum davr ichida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni vujudga keltirish uchun sarflanadigan investitsion kapitalning umumiy hajmini ifodalaydi.

Yakka tartibdagi investitsiya – korxonaning joriy faoliyati davomida yangi ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish uchun ishlatiladi.

Yakka holda ajratilgan investitsiya – boshqa investitsiyaga ehtiyoj qoldirmaydigan qo'yilma.

O'zaro bog'liq bo'lgan investitsiya – kapitalni ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan va ishlatilishi o'zaro bog'liq bo'lgan investitsion obyektlarga qo'yilishini ifodalaydi.

O'rta daromadli investitsiya – investitsion bozorlarda shakllangan foyda me'yoriga mos keladigan sof investitsion foydani olish imkoniyatini beradigan loyihalarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

O'rta likvidlik investitsiya – o'zining joriy bozor qiymatini yo'qotmagan holda, (odatda bir oydan olti oygacha) bo'lgan muddat ichida pul shakliga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lgan investitsion obyektlariga kiritiladi.

O'rta muddatli investitsion loyiha – bu turdagi loyihani amalga oshirish muddati bir yildan uch yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, asosan, korxonaning texnik vositalarini modernizatsiyalash, uni rekonstruksiyalash, yaxlit mulklarni tayyorlash va unga egalik qilish ishlarining amalga oshirilishini ifodalaydi.

O'rta tavakkalchilikli investitsiya – o'rtacha bozordagi xavf-xatar darajasiga mos keladigan investitsion obyektlarga kapital qo'yilishini ifodalaydi.

Qisqa muddatli investitsion loyiha – bunday loyiha bir yilgacha muddatda amalga oshirilib, asosan, ma'lum turdagi yangi dastgohlarni sotib olish, innovatsiyani investitsiyalash, moddiy aylanma aktivlar zaxirasi o'sishini investitsiyalash bilan bog'liq.

Qoplash muddati – amalga oshirilgan investitsiyaning (kapital qo'yilmaning) qaytarilishi kutilayotgan yili sifatida ifodalaniladi.

Aqliy hujum – bevosita jamoa bo'lib «fikrlar hujumi»ni olib borish. Bu usulning maqsadi – mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlashdan xoli qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

Bahs-munozara usulida guruh a'zolari biror muammoni yechish (yoki bilimlarni oshirish yoxud mavzuni tushunish) maqsadida o'z g'oyalarini og'zaki taklif etadilar. Usuldan samarali foydalanish uchun ishtirokchilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishlari lozim.

Blits – o'yin usuli – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etish, mantiqiy fikrlashga, o'rganilayotgan fanning predmeti asosida ko'p xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan keraklisini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

Boshqaruv texnologiyasi – o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda talablarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

Bumerang texnologiyasi – talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda dars davomida barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Veyer texnologiyasi murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Intervyu texnologiyasi – o'quvchi-talabaga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

Ierarxiya texnologiyasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

Interfaol – inglizcha so'z bo'lib, «interact», «inter»- o'zaro va «act» – harakat qilmoq, ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

Keys-Stadi, bu – uslub aniq vaziyat, hodisaga asoslangan o'qitish uslubi hisoblanadi.

Muloqot texnologiyasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

Skarabey – interaktiv texnologiya bo'lib, u talabalarga fikriy bog'liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va

erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon beradi.

Talaba treningi – talabalar bilan individual holda ishlash, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

Tarmoqlar (Klaster) usuli – talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishga o'rgatishga qaratilgan.

O'qituvchi shaxsi trening – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

3x4 usuli – talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 15-son, 167-modda; 2013-y., 12-son, 150-modda)

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning Huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada, respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingga ko'proq korxona tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko'proq asosan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollari qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar

bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag'batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida:

1. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki, respublika qonunchiligi tomonidan 1-ilovaga¹ muvofiq xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun keng ko'lamdagi kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar tizimi yaratilgan.

2. Belgilab qo'yilsinki, xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10-yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar.

¹ 1-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

3. Shunday tartib o'ratilsinki, unga muvofiq qiymati 50 million AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012-yilning II choragidan boshlab:

2-ilovaga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida faoliyat yuritayotgan;

Toshkent shahri va Toshkent viloyati istisno etilgan holda, respublikaning barcha mintaqalarida joylashtiriladigan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga tatbiq etilsin.

5. Vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, tijorat banklari tomonidan xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha talablar va cheklovlar o'rnatilishi qat'iy qat'iyan taqiqlansin va bu hol qonunga xilof deb hisoblansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy investorlarning, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquq va kafolatlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari so'zsiz rioya etishlari ustidan qattiq nazorat o'rnatilsin hamda qonunchilik buzilishining oldini olish va aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rsin.

6. Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender (tanlov) savdolarini o'tkazish bo'yicha Davlat komissiyasiga (R.S. Azimov) xorijiy investorlarning buyurtmanomalari bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo

etish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining balansida bo'lgan past likvidli obyektlarni aniq investitsiya majburiyati ostida investor bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish yo'li bilan tanlov o'tkazmasdan «nob» xarid qiymati bo'yicha sotish Huquqi berilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining buyurtmanomalari bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashayotgan xorijiy kompaniyalarning mansabdor shaxslari va mutaxassislariga 12 oy muddat bilan kirish vizalari hamda ko'p martalik vizalar rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bankni jalb etgan holda xorijiy investorlarga o'zlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari uchun Davlat budjeti va uning ijrosi, pul-kredit siyosati, tashqi savdo hamda boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlardan tizimli asosda belgilangan tartibda keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan birgalikda xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun berilgan kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklarga doir qonun hujjatlarining amalda ro'yobga chiqarilishi yuzasidan tizimli monitoring o'rnatish hamda berilayotgan imtiyozlar va afzalliklarga vazirliklar, idoralar va boshqa ijrochilar tomonidan rioya etilmasligi holatlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga har chorakda axborot kiritib borsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son Farmoniga 2-ilovaga muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. KARIMOV.

Toshkent sh., 2012-yil 10-aprel, PF-4434-son.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil
10-apreldagi PF-4434-son Farmoniga 2-ilova*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan
to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni
rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar
to'g'risida» 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son
Farmoniga kiritiladigan**

O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR

1, 2-bandda:

a) ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«mazkur korxonalarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatini istisno qilgan holda, respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlarida joylashtirish»;

b) to'rtinchi xatboshidagi «50 foizni» so'zlari «33 foizni» so'zlari bilan almashtirilsin;

v) beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

g) oltinchi va yettinchi xatboshilar tegishli ravishda beshinchi va oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

d) oltinchi xatboshidagi «daromadni» so'zi «daromadning kamida 50 foizini» so'zlari bilan almashtirilsin.

2. Ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun
beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot
tarmoqlari**

RO'YXATI

1. Radioelektron sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

2. Yengil sanoat:

– tayyor ip gazlama, jun gazlama va aralash gazlamalar, shuningdek, trikotaj gazlama ishlab chiqarish;

– tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to'qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish;

– tabiiy terilar ishlab chiqarish, ko'n-galantereya sanoati, poyabzal sanoati.

3. Ipakchilik sanoati:

– shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.

4. Qurilish materiallari sanoati:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 24-martdagi PF-3586-sonli Farmoni 1a-ilovasida ko'rsatilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

5. Parranda go'shti va tuxumni sanoat miqyosida yetishtirish.

6. Oziq-ovqat sanoati:

– mahalliy xomashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).

7. Go'sht-sut sanoati:

– go'sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog', shuningdek, hayvonlarning ichki organlaridan qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarish.

8. Baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash hamda konservalash.

9. Kimyo sanoati.
10. Neft-kimyo sanoati.
11. Tibbiyot sanoati, shuningdek, veterinariya uchun dori vositalarini ishlab chiqarish.
12. Qadoqlash materiallarini ishlab chiqarish.
13. Muqobil energiya manbalari negizida elektr stansiyalari qurish.
14. Ko'mir sanoati:
 - ko'mirni boyitish;
 - ko'mir briketlarini ishlab chiqarish;
 - slanets sanoati.
15. Ishlab chiqarishga mo'ljallangan elektroferrosplav va metall buyumlarni ishlab chiqarish.
16. Mashinasozlik va metallga ishlov berish:
 - mashinasozlik;
 - traktor va qishloq xo'jalik mashinasozligi;
 - qurilish, yo'l va kommunal mashinasozlik;
 - yengil va oziq-ovqat sanoati hamda maishiy asboblarni mashinasozligi.
17. Stanoksozlik va asbobsozlik sanoati.
18. Shisha va chinni-fayans sanoati.
19. Mikrobiologiya sanoati.
20. O'yinchoqlar ishlab chiqarish.

**Respublikamizning hududlarida 2013–2015-
yillarda yengil sanoat sohasida amalga
oshiriladigan loyihalar**

(qisqartirilgan ko'chirma)

№	Mahsulot turlari	Korxona nomi	Yillik quvvat	Loyiha qiymati, % shu jumladan:		Yangi ish o'rinlari, kishi	
				o'z mablag'i	bank krediti		
Qoraqalpog'iston Respublikasi							
I. Yangi loyihalar							
1	Ip kalava ishlab chiqarish	«Astera tekstil» MCHJ	ming t	5,2	12,2	87,8	150
	Gazlama ishlab chiqarish	«Astera tekstil» MCHJ	mln. kv.m	22,5	–	100,0	150
2	Ip gazlama ishlab chiqarish	«Elit Star tekstil» MCHJ	mln. kv.m	22,5	–	100,0	150
3	Ip kalava ishlab chiqarishni tashkil qilish	«Amudaryo tekstil» MCHJ	ming t	8,0	82,6	17,4	250
	Gazlama ishlab chiqarish	«Amudaryo tekstil» MCHJ	mln. kv.m	5,2	100,0	–	105
4	Tayyor tikuv mahsulotini ishlab chiqarish	«Xurziya-Raziya» MCHJ	ming dona	700	24,4	75,6	50

5	Tayyor tikuv mahsulotini ishlab chiqarish	«Saxra Universal biznes» MCHJ	ming dona	1 700	20,0	80,0	25
II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Ip kalava, jinsi matosi va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni tiklash	«Global national textile» MCHJ	ming tn	2,0	28,6	71,4	300
			mln. kv.m	3,2			
			ming dona	1 500			
2	Ip kalava ishlab chiqarish	«To'rtko'l Asaka tekstil» MCHJ	ming t	4,0	100,0	—	120
Andijon viloyati							
I. Yangi loyihalar							
1	Trikotaj mato	«Kray Tekstil» MCHJ	tonna	500	16,7	83,3	200
2	Paypoq mahsulotlari	«Oltinko'l to'qimachilik sanoati» MCHJ	ming juft	1600	33,5	66,5	140
3	Trikotaj mato	«Kezar Tekst» MCHJ	tonna	3100	20,1	79,9	130
	Trikotaj mahsulotlari		ming dona	700			
4	Trikotaj mahsulotlari	«Al Xakim» XK	ming dona	500	74,7	25,3	100
5	Ip kalava	«Trust rest servis» MCHJ	ming tonna	1,2	100,0		160

II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish

1	Trikotaj mahsulotlari	MCHJ «Royal Silk»	ming dona	500	–	100,0	100
2	Trikotaj mahsulotlari	«Nil Granit» MCHJ	ming dona	5000	66,7	33,3	200
3	Ip kalava	«Asaka Tekstil» MCHJ	ming tonna	1,6	–	100,0	120
	Sochiq mahsulotlari		ming tonna	0,6	–	100,0	100
4	Ip kalava	XK «Skorton Tekstil»	ming tonna	4,2	24,8	75,2	120
5	Trikotaj mahsulotlari	«Xonobod Oltin vodiy tekstil» MCHJ	ming dona	1000	100,0	–	200
	Trikotaj mato		tonna	250	68,8	31,3	50

Buxoro viloyati**I. Yangi loyihalar**

1	Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Meridian Servis Buxara» MCHJ	ming dona	2000	37,5	62,5	80
2	Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«I. Fozilov» MCHJ	ming dona	5000	25,0	75,0	200
3	Ip kalava ishlab chiqarish	«Indorama Industries» (Singapur)	ming t	18	100,0	–	700
4	Ip kalava ishlab chiqarish	«Madaniyat Arteks» QK	ming t	1	20,0	80,0	70
5	Ip yigiruv korxonasini tashkil etish	«Buxoro teks» AJ	ming t	2,5	30,0	70,0	150

II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Kalava ip ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish	«Tekstil Spektrum Kolors» QK	ming t	2,5	20,7	79,3	100
2	Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish	«OFS» MCHJ	ming dona	50	100,0	–	35
3	Kalava ip ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish	«Umidteks» MCHJ	ming t	2,5	28,6	71,4	100
4	Ip gazlama ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish	«Buxoro naturprodukt» MCHJ	mln. kv.m.	1,8	50,0	50,0	50
5	Tikuvchilik faoliyatini tiklash	«Almaz Oil» QK	ming dona	1500	–	100,0	100
Jizzax viloyati							
I. Yangi loyihalar							
1	Ip kalava ishlab chiqarish	«Jizzax Kenteks» MCHJ	ming t	7,5	37,6	62,4	150
2	Ip kalava ishlab chiqarish	«Elegans teks» MCHJ	ming t	5	–	100,0	100
3	Ip kalava ishlab chiqarish	«Sangzor tekstil» MCHJ	ming t	3	28,6	71,4	80
4	Ip kalava ishlab chiqarish	«Jizzax Plastteks» MCHJ QK	ming t	12	43,6	56,4	700

5	Trikotaj mato ishlab chiqarish	«Jizzax Plastteks» MCHJ QK	ming t	6,1	43,2	56,8	350
II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Ip kalava ishlab chiqarish	«Jizzax Plastteks» MCHJ QK	ming t	12	26,7	73,3	150
2	Paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish	«Mir Ulug'bek MX» MCHJ	mln. juft	2	38,9	61,1	40
Qashqadaryo viloyati							
I. Yangi loyihalar							
1	Ip kalava ishlab chiqarish	«Qarshi yig'ma temir- beton» MCHJ	ming t	5	100,0	–	200
2	Ip kalavani bo'yash sexini tashkil qilish	«SN INVEST» MCHJ	ming t	5	28,6	71,4	50
3	Mato ishlab chiqarish	«SN INVEST» MCHJ	t	2500	25,9	74,1	100
4	Tayyor kiyim- kechak ishlab chiqarish	«Kotton roud» QK	ming dona	150	100,0	–	100
5	Sochiq va paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish	«Kasbi Seul» MCHJ	ming juft	1	100,0	–	51
II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Ip kalava ishlab chiqarish	«Oqsaroy- tekstil» MCHJ	ming t	4	100,0	–	50
2	Ip kalava ishlab chiqarishni kengaytirish	«Yakka- bog'teks» MCHJ	ming t	1	100,0	–	40

3	Ip kalava ishlab chiqarish	«Yakkabog' Humo teks» MCHJ	ming t	0,6	61,5	38,5	25
4	Ip kalava ishlab chiqarish	«Kitob ip yigiruv» OAJ	ming t	3,5	30,0	70,0	100
5	Kiyim-kechak ishlab chiqarishni kengaytirish	«Sado» MCHJ	ming dona	100	50,0	50,0	20
Navoiy viloyati							
I. Yangi loyihalar							
1	Gazlama ishlab chiqarish	«Edem Tekstil» MCHJ	mln. kv/m	0,5	89,0	11,0	20
2	Aralash mato, odevial va pled ishlab chiqarish	«Navoiyazot» OAJ	mln. kv/m	0,21	100,0	-	60
			ming dona	46,6			
			ming dona	35,4			
3	Tayyor trikotaj mato ishlab chiqarish	«Fort pro impeks» MCHJ	ming t	2	100,0	-	60
4	Kalava ip ishlab chiqarish	«Navbahor Tekstil» MCHJ	ming t	5,4	63,6	36,4	240
5	Tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqarish	«Navoiy kvarts tosh» MCHJ	ming dona	100	50,0	50,0	25
II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Ip kalava ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish	«Baxt tekstil» QK	ming t	2	3,2	96,8	40

2	Ip kalava (sintetik) ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish	«Elmurod O'lmas» ICHF	t	150	25,0	75,0	5
3	Tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish	«Triumf gornyak» MCHJ	ming dona	400	40,0	60,0	30
4	Gilam mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish	«Ishonch gilam» ICHF	mln. kv.m	0,625	17,1	82,9	20

Namangan viloyati

I. Yangi loyihalar

1	Ip kalava, tayyor gazlamalar, trikotaj mato va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish	«Namimpeks Tekstil» MCHJ	ming t	2,6	29,9	71,1	450
			mln. kv.m.	8			
			t	1000			
			ming t	1,2			
2	Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Yanteks» MCHJ	ming dona	280	11,9	88,1	80
3	Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish	«Pop qo'rg'oni» X.K	ming dona	50	50,0	50,0	50
4	Ip kalava ishlab chiqarish	«Aziz-94» X. K	ming t	1,2	100,0	–	60
5	Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish	«Mos transh montaj» MCHJ	ming dona	800	21,6	78,4	37

II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish	«Asadbek Chorkesar» X.K	ming dona	400	20,0	60,0	85
2	Momiq sochiq ishlab chiqarishni tashkil etish	«AISHA HOME TEXTILE» QK	ming t	1,2	100,0	–	100
3	Ipkalava ishlab chiqarish	«Nam Teks» MCHJ	ming t	0,6	–	100,0	30
4	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	«Golden Xello Trade» MCHJ	mln. kv.m.	1,1	40,9	59,1	15
5	Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Olmos Nisora bonu» XK	ming dona	650	20,2	79,8	75
Samarqand viloyati							
I. Yangi loyihalar							
1	Ip kalava ishlab chiqarish	«Jomboy Teks» MCHJ	ming t	2,0	50,0	50,0	120
2	Ip kalava ishlab chiqarish	«Maroqand sifat servis» MCHJ	ming t	3,0	47,2	52,8	350
	Ip kalava (aralashma) ishlab chiqarishni tashkil etish			1,5	33,3	66,7	
3	Ip kalava ishlab chiqarish	«Sam universal teks» MCHJ	ming t	3,0	14,0	86,0	150

4	Ip kalava ishlab chiqarish	«Narpay Nozimjon» fermer xo'jaligi negizida	ming t	3,0	100,0	–	200
5	Ip kalava ishlab chiqarish	«Oqdaryo Teks» MCHJ	ming t	4,5	20,4	79,6	250
	Gazlama ishlab chiqarish		mln. kv.m.	1,6			

II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish

1	Ip kalava ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish	«Artek interneshnb» QK	ming t	0,5	76,9	23,1	30
2	Ip kalava ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish	«Daka Teks» xorijiy korxonasi	ming t	2,0	9,1	90,9	70
3	Trikotaj mato ishlab chiqarish	«8-mart» MCHJ	t	825,0	–	100,0	40
	Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish		ming dona	1200	–	100,0	120
4	Trikotaj mato ishlab chiqarish	«Samarqand Texmat mato» MCHJ	t	1500	100,0	–	50

5	Ip gazlama ishlab chiqarish	«Amina Gold Invest» MCHJ	mln. kv.m.	5,0	47,4	52,6	32
Sirdaryo viloyati							
I. Yangi loyihalar							
1	Paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish	«Neo Sotton» MCHJ	mln. juft	20,0	100,0	–	120
2	Paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish	«Jam- shidbek» SICHK	ming juft	0,5	25,0	75,0	120
3	Ip kalava ishlab chiqarish	«Baxtteks- farm» MCHJ	ming t	3,3	100,0	–	120
4	Ip kalava ishlab chiqarish	«Neo Sotton» MCHJ	ming t	3,0	30,0	70,0	150
5	Gilam mahsulotlari ishlab chiqarish	«RED CARPET» MCHJ	mln. kv.m	1,2	22,6	77,4	60
II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish	«Baraka teks» HK «West FZE» (OAE)	mln. dona	2.0	33,3	66,7	150

2	Tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Habib teks» HK «Twenty First Century Trading» CO LLC (OAE)	ming dona	500,0	100,0	–	80
4	Tayyor bog'lama materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish (sterillangan salftka)	«Baxteks-farm» MCHJ	mln. dona	1,0	20,0	80,0	150
5	Tikuvchilik majmuasi tashkil etish	«BAYTEKS TIGARET» MCHJ	mln. p.m. mato	25,0	31,4	68,6	200
			mln. p.m. tayyor gaz-lama	15,0			
			mln. dona	10,7	–	100,0	510
Surxondaryo viloyati							
I. Yangi loyihalar							
1	Tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Zulay-hobonu Ibrahimov-na» xususiy korxonasi	ming dona	0,7	30,0	70,0	50
2	Ip kalava ishlab chiqarish	«Qumqo'rg'on mexanika zavodi» MCHJ	ming t	2,0	25,0	75,0	70

3	Ip kalava ishlab chiqarish	«Mo'min tekstil» MCHJ	ming t	3,5	18,8	81,3	100
4	Tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Boysun tekstil» XK	ming dona	0,4	33,3	66,7	40
5	Tikuvchilikni tashkil etish	«Aks Surxon» MCHJ	ming dona	0,6	44,4	55,6	50
II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Paxta ipli gazlamalar va trikotaj mato ishlab chiqarish va bo'yash	«TELA TEXTILE» QK	mln. kv.m	22,5	26,0 20,0	74,0 80,0	250
Toshkent shahri							
I. Yangi loyihalar							
1	Bolalar va o'smirlar uchun tayyor tikuv mahsulotlarini ishlab chiqarish	«RUTA» XTIF	ming dona	500	30,2	69,8	120
2	Tayyor tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«FAR-EKO-PLAST» MCHJ	ming dona	2000	100,0	–	150
3	Tayyor tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Royan Lux Exclusiva» MCHJ	ming dona	50	55,9	44,1	75

4	Bolalar uchun tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish	«Bultex Eurostar» MCHJ	ming dona	1400	100,0	–	250
5	Tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	«N-joy Garments» QK	ming dona	2500	100,0	–	150
II. Mavjud quvvatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish							
1	Tayyor tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish	«UNIKS STAR» MCHJ	ming dona	300	100,0	–	50
2	Ip kalava ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish	«BF Tekstile Produktion» XK MCHJ	ming t	0,372	100,0	–	300
3	Trikotaj mato ishlab chiqarishni kengaytirish	«ELEKTRO-TEST» MCHJ	t	1500	100,0	–	150
4	Noto'qima va vatin mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish	«TO'QIMACHI ABDULLON» MCHJ	t	500	100,0	–	175
5	Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish	«Savdo-energo» MCHJ	ming dona	4000	95,3	4,7	200

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining**

Q A R O R I

**Investitsiya loyihalarini tasdiqlash va
amalga oshirish monitoringi mexanizmlarini
takomillashtirish, muruvvat yordami yuklarini
va texnik ko'maklashish mablag'larini hisobga
olish va nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida**

*(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami,
2005-y., 46-son, 350-modda; 2006-y., 20-21-son,
180-modda, 33-son, 331-modda, 48-50-son, 484-modda;
2007-y., 1-2-son, 11-modda, 19-20-son, 196-modda,
23-son, 238-modda; 2009-y., 5-son, 41-modda,
43-son, 456-modda, 46-son, 498-modda; 2010-y.,
23-son, 182-modda; 2012-y., 36-son, 412-modda,
44-son, 507-modda, 45-son, 516-modda; 2013-y.,
37-son, 485-modda)*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida» 2005-yil 10-avgustdagi 192-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

(1-bandning ikkinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi 110-sonli qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan – O'R QHT, 2007 y., 23-son, 238-modda)

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Muruvvat yordami yuklari qabul qilinishi, hisobga olinishi, aniq yo'naltirilgan tarzda taqsimlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish tartibi hamda muruvvat loyihalari monitoringi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Loyiha takliflarini ishlab chiqish va kelishish, shuningdek texnik ko'maklashish mablag'lari monitoringi va ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish tartibi to'g'risidagi Nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

(1-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 8-noyabrdagi 319-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012 y., 45-son, 516-modda)

2. O'zbekiston Respublikasi hukumatining 5-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin, shuningdek ba'zi qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh., 2005-yil 15-noyabr, 251-son

*(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi 110-sonli qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan – O'R QHT, 2007-y., 23-son, 238-modda)
Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-noyabrda 251-son qaroriga 2-ilova*

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida

N I Z O M

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2005-yil 26-iyuldagi PQ-136-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizomning amal qilishi ular uchun qonun hujjatlarida amalga oshirish va monitoring olib borishning alohida tartibi belgilangan loyihalarga tatbiq etilmaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2007-yil 3-yanvardagi 5-son qaroriga muvofiq ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2007-y., 1-2-son, 11-modda)

2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi (keyingi o'rinlarda «Monitoring» deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini boshqarish va nazorat qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

3. Monitoring:

vazirliklar, idoralar tomonidan tashabbus ko'rsatilgan investitsiya loyihalari va takliflari yuzasidan – Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlari bilan birgalikda, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda xorijiy investitsiyalar jalb etilgan korxonalar tomonidan tashabbus ko'rsatilgan investitsiya loyihalari va takliflari yuzasidan – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan;

Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi Xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, yirik va strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari bo'yicha Idoralararo kengash (keyingi o'rinlarda Idoralararo kengash deb ataladi) – xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha.

(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-oktabrdagi 274-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2009-y., 43-son, 456-modda)

4. Quyidagilar:

- respublika investitsiya dasturiga kiritilgan va birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

- davlat boshqaruvi organlarining, investitsiya jarayoni boshqa qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning investitsiya loyihalarini, ular to'liq tugallangunga qadar, amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni o'z vaqtida hal etish yuzasidan javobgarligini oshirish;

- investitsiya loyihalari harakatiga ularni amalga oshirishning barcha bosqichlarida to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va o'rganish, ularni, shu jumladan investitsiya

loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan turli xil masalalarni ko'rib chiqish muddatlarini o'zgartirish yo'li bilan, bartaraf etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish;

- investitsiya loyihalari tasdiqlangan hajmlar va muddatlarga qat'iy rioya qilingan holda investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va vakolatli banklar tomonidan mablag'lar bilan o'z vaqtida ta'minlanishi ustidan nazorat qilish;

- investitsiya loyihasi bo'yicha xorijiy sheriklar oldida qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishiga ko'maklashish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar va takliflar bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantirish monitoringning asosiy vazifalari hisoblanadi.

5. Aniq dasturga va O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining tarkibiy qismi bo'lgan investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan investitsiya loyihalari monitoring obyekti hisoblanadi.

II. Investitsiya loyihalari bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish

6. Investitsiya dasturi belgilangan tartibda tasdiqlangan vaqtdan boshlab bir oy muddatda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi vazirliklar va idoralari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek investitsiya loyihalari tashabbuskorlari bilan birgalikda investitsiya loyihalarining aniq dasturiga, shuningdek investitsiya dasturining tarkibiy qismi bo'lgan ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan loyihalar bo'yicha ma'lumotlar bankini (keyingi o'rinlarda «Ma'lumotlar banki» deb ataladi) shakllantiradi.

7. Ma'lumotlar banki:

- investitsiya loyahasining tashabbuskori tomonidan tasdiqlangan investitsiya loyihalarining aniq dasturiga kiritilgan investitsiya loyihasi pasporti;

– har bir investitsiya loyihasini amalga oshirishning investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan reja-jadvallari;

– ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan investitsiya takliflari bo'yicha ishlab chiqiladigan yangidan boshlanayotgan ustuvor investitsiya loyihalarini olg'a surish chora-tadbirlari dasturi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihasi tashabbuskori tomonidan yilning har choragida taqdim etiladigan axborot asosida shakllantiriladi.

(7-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012-y., 44-son, 507-modda)

8. Investitsiya loyihasi pasporti mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha tuziladi va unda investitsiya loyihasi tashabbuskori, xorijiy sherik, loyihaning umumiy qiymati va barpo etilayotgan ishlab chiqarishning loyihadagi quvvati, mahsulotni eksport qilish, mablag' bilan ta'minlash manbalari va sxemasi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar, loyihaning qoplanish va qarz mablag'larni qaytarish muddatlari to'g'risidagi axborotlar, shuningdek, zarurat bo'lganda, xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxona bo'yicha ma'lumotlar bo'ladi.

9. Reja-jadval mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha tuziladi va unda yangi tashkil etilayotgan korxonaning texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish (zarurat bo'lganda), asosiy kontrakti tuzish va ro'yxatdan o'tkazish, investitsiya loyihasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorini kelishish va qabul qilish, kredit bitimlarini imzolash, loyihasmeta hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash, milliy va xorijiy valutada mablag' bilan ta'minlashni boshlash, ishlab chiqarish maydonlarini va infratuzilma obyektlarini qurish, texnologiya asbob-uskunalarini o'rnatish, korxonaning

loyihadagi quvvatga chiqishi bo'yicha aniq muddatlar to'g'risidagi axborotlar bo'ladi.

10. Chora-tadbirlar dasturi mazkur Nizomga 3-ilovaga binoan Xalqaro moliya va iqtisodiy institutlar hamda donor mamlakatlar ishtirokida Investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish reglamentiga muvofiq ishlab chiqiladi va investitsiyalashdan oldin investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini tasdiqlash va mablag' bilan ta'minlashning aniq manbalarini belgilashgacha bo'lgan ishlar kompleksini (ularni bajarishning prognoz muddatlarini ko'rsatgan holda) o'z ichiga oladi.

11. Investitsiya loyihasining tashabbuskori hisobot oyidan keyingi oyning 3-kunidan kechikmay yilning har choragida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga kelishilgan shakl bo'yicha investitsiya loyihasi amalga oshirilishi reja-jadvalining bajarilishi to'g'risida axborot taqdim etadi.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012-y., 44-son, 507-modda)

12. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi yilning har choragida:

(12-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012-y., 44-son, 507-modda).

– xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish to'g'risida Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan yig'ma statistika axboroti bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan;

– markazlashtirilgan investitsiyalardan, shu jumladan hukumat kafolati ostida jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan foydalanish bo'yicha – Moliya vazirligi va tijorat banklari tomonidan;

– xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha – Adliya vazirligi tomonidan;

– xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalari paketini xorijiy investorlarga sotish, mulkida davlat ulushi bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati bo'yicha – Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan;

(12-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 9-sentabrdagi 244-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2013-y., 37-son, 485-modda);

(12-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-iyundagi 105-son qaroriga asosan chiqarilgan – O'R QHT, 2010-y., 23-son, 182-modda);

– loyiha ko'rsatkichlari (loyihadagi quvvatni ta'minlash, eksportni ta'minlash, yangi ish o'rinlari barpo etish) investitsiya loyihasi tashabbuskori tomonidan bajarilishi yuzasidan – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan taqdim etiladigan axborotlar asosida Ma'lumotlar bankini yangilab boradi.

13. Ma'lumotlar bankiga Investitsiya dasturida nazarda tutilgan kapital qo'yilmalar hajmlari prognozi belgilangan tartibda aniqlashtirilish natijalari bo'yicha Idoralararo kengashning qarori bilan tuzatishlar kiritilishi mumkin.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-oktabrdagi 274-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2009 y., 43-son, 456-modda)

III. Monitoringni amalga oshirish

14. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlari, Moliya vazirligi (O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Moliya vazirligi qarz oluvchi sifatida ish ko'radigan qarzlar bo'yicha), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qabul qilingan qarorlariga, shuningdek tasdiq-

langan reja-jadvallarga muvofiq investitsiya loyihalari amalga oshirilishi ishlarining holatini, shu jumladan joyning o'ziga chiqib muntazam ravishda o'rganadi.

Bunday ishni tashkil etish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi turli vazirliklar va idoralar yoxud xalqaro tashkilotlar va konsultatsiya kompaniyalari mutaxassislarini jalb etishi mumkin.

15. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan monitoring:

investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etiladigan tasdiqlangan reja-jadvallarning bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risidagi yig'ma statistika axborotini;

– mavjud va potensial xorijiy investorlar faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ularning takliflarini o'rganish asosida vaqti-vaqti bilan tayyorlanadigan investitsiya muhiti sharhini;

manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan taqdim etiladigan tezkor axborotlarni;

– markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash masalalari bo'yicha axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

16. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringi Idoralararo kengash tomonidan:

(16-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-oktabrdagi 274-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2009-y., 43-son, 456-modda)

tasdiqlangan reja-jadvallar bajarilishini, loyihalarni amalga oshirish yuzasidan zarur ishlar kompleksini olib borishning texnologik izchilligiga rioya etilishini nazorat qilish;

texnik-iqtisodiy asoslashlarning asosiy qoidalarini ko'rib chiqish, loyihalarni amalga oshirish mumkinligi yuzasidan umumiy qarorlar qabul qilish;

alohida yirik loyihalar, shu jumladan, texnik-iqtisodiy asoslashlar ko'rsatkichlariga nisbatan loyihalarning qimmatlashishi yoki arzonlashishi mumkinligini hisobga olgan holda bazaviy loyihalashtirishni tasdiqlash;

markazlashtirilgan manbalar hisobiga ajratiladigan mablag'larning o'z vaqtida moliyalashtirilishini va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlash, hukumat kafolati ostida jalb etiladigan qarz mablag'larning o'z vaqtida qaytarilishi ta'minlanishini nazorat qilish;

manfaatdor vazirliklar va buyurtmachi idoralar tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyot qismlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlarini, shuningdek ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarga kirib borishi bo'yicha marketing dasturlarini ekspertizadan o'tkazish;

ayrim strategik muhim va yirik loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari, qurilishi amaldagi qonun hujjatlari buzilgan holda amalga oshirilayotgan loyihalarni mablag' bilan ta'minlashni to'xtatib qo'yish, shuningdek Investitsiya dasturi bajarilishi barbod bo'lishiga yo'l qo'yuvchi vazirliklar va idoralar, korxonalar va buyurtmachi tashkilotlarning rahbarlarini javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini o'z vaqtida ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi boshqa asosiy masalalarni ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi.

IV. Monitoring natijalarini ko'rib chiqish

17. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va vakolatli

banklardan olingan ma'lumotlar asosida investitsiya dasturining amalga oshirilishi to'g'risida yig'ma axborot tayyorlaydi.

Yig'ma axborotda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar bilan bir qatorda vazirliklar, idoralar va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda investitsiya loyihalari tashabbuskorlari bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan investitsiya loyihalari va takliflarini amalga oshirishning asosiy bosqichlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar:

- investitsiyalashdan oldingi tadqiqotlarning o'z vaqtida o'tkazilishi, texnik-iqtisodiy asoslashlar va loyiha-smeta hujjatlarining ishlab chiqilishi to'g'risida investitsiya loyihalari tashabbuskorlarida olingan axborot;

- texnik-iqtisodiy asoslashlar va loyiha-smeta hujjatlari vakolatli ekspertiza organlari tomonidan ekspertiza qilinganligi to'g'risidagi axborot;

- investitsiya loyihalarining mablag' bilan ta'minlashning tasdiqlangan sxemalariga muvofiq o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanishi to'g'risidagi axborot;

- qurilish-montaj ishlarini bajarish va obyektlarni ishga tushirish muddatlariga va texnologik izchilligiga rioya qilinishi to'g'risidagi axborot;

- hukumat kafolati ostidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan kredit mablag'laridan foydalanish va ularni qaytarish muddatlari va shartlariga rioya qilinishi to'g'risidagi axborot (banklar);

- investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan loyihalarni investitsiya loyihalarining aniq dasturiga kiritish uchun asos hisoblanadigan loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishida ifodalangan investitsiyalash shartlariga rioya qilinishi to'g'risidagi boshqa axborot;

Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni asoslagan holda takliflar mavjud bo'ladi.

18. Investitsiya dasturini amalga oshirishning yig'ma tahlili, shuningdek, qo'shimcha tahliliy axborot asosida, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi:

shakllanayotgan yo'nalishlarni o'rganib chiqadi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlarni aniqlaydi, xorijiy investorlar uchun mavjud imtiyozlar va preferensiyalar tizimining samaradorligini tahlil qiladi;

investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqadi;

investitsiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan hukumat qarorlarini tayyorlash ishlarini tashkil etadi;

Iqtisodiyot vazirligi tomonidan taqdim etiladigan axborot asosida iqtisodiyotning ustuvor sektorlari va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun eng muhim ishlab chiqarishlar ro'yxatini, shuningdek, jalb etilayotgan investitsiyalarni respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va mintaqalari bo'yicha maqbul joylashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi;

Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning muammoli masalalarini hal etish bo'yicha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan birgalikda takliflar tayyorlaydi;

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishuv bo'yicha qo'shimcha investitsiya loyihalarini Investitsiya dasturining aniq qismiga kiritish yoki yig'ma qismiga o'tkazish yuzasidan takliflarni ko'rib chiqish uchun Idoralararo kengashga kiritadi;

(18-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-oktabrdagi 274-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2009-y., 43-son, 456-modda)

investitsiya dasturini shakllantirish va uning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa ishlarni tashkil etadi.

19. Monitoring natijalari yilning har choragida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga, Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlariga va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga kiritiladi.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012-y., 44-son, 507-modda)

20. Zarur qarorlar qabul qilish uchun yilning har choragida:

(20-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012 y., 44-son, 507-modda)

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari majlislarida ko'rib chiqiladi;

monitoring natijalari Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy islohotlarning borishi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariga bag'ishlangan majlislarida

tinglanadi.

*O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga
kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga
oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risidagi
Nizomga 1-ilova*

Investitsiya loyihasi PASPORTI

(loyihaning nomi va joylashgan joyi)

1. Loyiha buyurtmachisi bo'lgan tashkilot –
2. Loyihaning maqsadi –
3. Loyihani investitsiyalash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori (agar zarur bo'lsa) –
4. hukumat kafolatlari –
5. Loyiha TIA holati –
6. Xorijiy sherik va investor (shu jumladan kreditor, bosh pudratchi) –
7. Loyihani amalga oshirish muddatlari, shu jumladan loyihadagi quvvatga chiqish muddati (yillar) –
8. Loyiha joylashgan joy –

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	TIA bo'yi-cha	Loyihani amalga oshirish-ning 2006-yil 1 yanvar-dagi amaldagi holati	Izoh
1.	Loyiha tashabbusi (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)				
2.	Loyihaning umumiy qiymati	mln. AQSH dollari			

	joriy narxlarda (sh. j. ekvivalent)				
	EMVda (ekvivalent)				
3.	EMVdagi xarajatlar, hammasi	mln. AQSH dollari			
	sh. j. asbob-uskunalar xarid qilish va boshqalar uchun				
3.1	Milliy valutatdagi xarajatlar, hammasi (ekvivalent)	so'm/ AQSH dollari			
	sh. j. qurilish-montaj ishlari va boshqalar uchun				
4	Moliyalashtirish manbalari	tegishli birliklarda			
	budjet mablag'lari				
	xorijiy kreditlar, hammasi				
	sh. j. hukumat kafolatlari ostida				
	boshqa manbalar:				
	to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, hammasi				
	sh. j. xorijiy sherikning ustav fondiga ulushi				
	o'z mablag'lari				
	tijorat banklari kreditlari				
	boshqa manbalar				
5	Band bo'ladiganlarning mo'ljallanayotgan soni	kishi			
6.	Qurilishning davom etishi, hammasi	oy			
	sh. j. qurilish boshlanadigan yil				

	qurilish tugallanadigan yil				
7.	Loyihaning o'zini qoplash muddati, hammasi	yil			
	sh. j. yillar bo'yicha				
8.	Qarz mablag'larini to'lash muddati, hammasi	yil			
	sh. j. yillar bo'yicha				
9.	sh. j valuta mablag'larini to'lash muddati, hammasi	yil			
10.	Qarz mablag'larini to'lashning holati, hammasi	tegishli birliklarda			
	sh. j. yillar va to'lash manbalari bo'yicha				
11.	sh. j. to'lovlarning muddati o'tkazib yuborilgan summasi, hammasi	tegishli birliklarda			
	sh. j. yillar va to'lash manbalari bo'yicha				
12.	Korxona quvvati (nomenklatura bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning yillik hajmi)	tegishli birliklarda			
13.	Olinadigan xomashyoning mavjudligi va hajmlari	tegishli birliklarda			
	sh. j. yillar bo'yicha				
14.	Loyihani mahalliyashtirish darajasi, hammasi	%			
	sh. j. yillar bo'yicha				

15.	Eksport hajmi (mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatlar eksporti hajmi) va uning nomenklaturasi	tegishli birliklarda			
16.	Mahsulotni sotishning mo'ljallanayotgan bozorlari:				
	ichki bozor	%			
	tashqi bozor	%			
17.	Loyiha bo'yicha vakolatli ekspertiza organlari xulosasi (xatlar tartib raqami)				
	1. Moliya vazirligi –				
	2. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi –				
	3. Iqtisodiyot vazirligi –				
	4. Bank –				

*O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga
kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga
oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risidagi
Nizomga 2-ilova*

«Tasdiqlayman»

Korxona rahbari (rais, direktor)

(F.I.O.)

200__ y. _____ «__»

Investitsiya loyihasini amalga oshirish

REJA - JADVALI¹

(loyiha nomi, tashabbuskor)

T/r	Loyihani amalga oshirish bosqichlari	Boshlash sanasi (yil, oy)	Tugatish sanasi (yil, oy)
1.	Loyiha tashabbusi (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)		
2.	Loyihaning TIA ni ishlab chiqish tasdiqlash		
3.	Xorijiy sherik, investor, bosh pudratchini va boshqalarni tanlab olish bo'yicha tender o'tkazish (sana va hujjatlar tartib raqami)		
4.	Yangi tashkil etilayotgan korxonani, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani (zarurat bo'lsa) ro'yxatdan o'tkazish (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)		

¹ I z o h. Mablag'larni manbalar (investitsiyalar, kreditlar, budjet mablag'lari va boshqalar) bo'yicha o'zlashtirish jadvali ilova qilinishi zarur.

5.	Asosiy kontraktni tuzish, kelishib olish va ro'yxatdan o'tkazish (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)		
6.	Moliyalashtirish shartlarini, shu jumladan mablag' bilan ta'minlovchi institutlar (banklar) bilan tuziladigan kredit bitimlari shartlarini belgilash		
7.	Loyiha bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorini qabul qilish (agar talab qilinsa)		
8.	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, kelishib olish va tasdiqlash		
9.	Milliy valutada mablag' bilan ta'minlashni boshlash		
10.	Xorijiy valutada moliyalashtirishni boshlash		
11.	Qurilish-montaj ishlarini bajarish		
12.	Texnologiya asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, yetkazib berish, o'rnatish va ishga tushirish-sozlash		
13.	Ishlab chiqarishni boshlash va loyihadagi quvvatga chiqish		

*O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga
kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga
oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risidagi
Nizomga
3-ilova*

**XMII va donor mamlakatlar ishtirokidagi
investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga
oshirish
REGLAMENTI**

T/r	Tayyorlash va amalga oshirish bosqichlari	Nazorat muddatlari	Mas'ul organ
<i>1. Loyihani amalga oshirish maqsadga muvofiqligini oldindan ishlab chiqish va asoslash – muddat 2 oygacha</i>			
1	Tarmoq va hududni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish	Reglamentga muvofiq	Vazirlik/idora (loyiha tashabbuskori)
2	Ayrim loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini oldindan ishlab chiqish		Vazirlar Mahkamasining mutasaddi axborot-tahlil departamenti
3	Dastlabki hisob-kitoblarni ishlab chiqish yuzasidan texnik topshiriqni idoralararo kelishib olish	1 hafta	Vazirlik/idora

4	Tashabbuskor tomonidan loyihaning dastlabki hisob-kitoblari tayyorlanishi va Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig'ma axborot-tahlil departamentiga va vakolatli ekspertiza organlariga (Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga) kiritish	1 oy	Vazirlik/idora
5	Loyihani ko'rsatib o'tilgan dastlabki shartlarda amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida vakolatli ekspertiza organlari xulosalarini olish	3 hafta (reglamentga muvofiq)	Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi
6	Tashabbuskor tomonidan kamchiliklarning bartaraf etilishi	Ekspertiza yakunlariga ko'ra	Vazirlik/idora

¹ Ishlar XMI/kreditor tartib-qoidalari bo'yicha loyihani boshqarish to'g'risidagi hujjatni tayyorlash bilan bir vaqtda olib boriladi.

II. TIA/ТИН ishlab chiqish – muddat 3 oygacha			
7	Loyiha TIANi ishlab chiqish bo'yicha moliyalashtirish manbalarini belgilash	3 oygacha	Vazirlik/idora
8	TIA/ТИНni ishlab chiqish yuzasidan texnik topshiriqni ichki idoraviy kelishib olish		Vazirlik/idora
9	Loyihaning yakuniy TIA/ТИНni tayyorlash		Vazirlik/idora
III. Loyihaning texnik-iqtisodiy parametrlarini ekspertizadan o'tkazish, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishib olish va tasdiqlash tartib-qoidalarini amalga oshirish – muddat 2 oygacha			
Ichki ekspertiza		1 hafta	Vazirlik/idora
10	Ma'qullash uchun Vazirlar Mahkamasining mutasaddi axborot-tahlil departamentiga kiritish		Vazirlik/idora
11	Kamchiliklarni bartaraf etish va Vazirlar Mahkamasining mutasaddi axborot-tahlil departamentining ma'qullashi	1 hafta	Vazirlik/idora

Tashqi ekspertiza			
12	Loyihalarning TIA/ТИH bo'yicha vakolatli ekspertiza organlaridan (Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, vakolatli bank) loyihani ishlab chiqilgan yakuniy shartlar bilan amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosani olish	3 H hafta	Vazirlik/idora
13	Tashabbuskor tomonidan TIA/ТИH bo'yicha kamchiliklarning bartaraf etilishi	Ekspertiza yakunlariga ko'ra	Vazirlik/idora
14	Loyiha TIA/ТИH parametrlarini vakolatli ekspertiza organlari bilan belgilangan tartibda kelishish	1 hafta	Vazirlik/idora
Loyihaning TIA ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi			
15	hukumat qarori loyahasini ishlab chiqish va vakolatli ekspertiza organlari bilan kelishib olish	10 kun	Vazirlik/idora

16	Loyihaning asosiy texnik-iqtisodiy parametrlarini tasdiqlash yuzasidan kelishilgan hukumat qarorining kelishilgan loyihasini Vazirlar Mahkamasining mutasaddi axborot-tahlil departamentiga kiritish	1 hafta	Vazirlik/idora
17	Loyihaning asosiy texnik-iqtisodiy parametrlarini tasdiqlash yuzasidan hukumat qarorini qabul qilish	Vazirlar Mahkamasi-ning Ish tartibiga muvofiq	Vazirlar Mahkamasining mutasaddi axborot-tahlil departamenti
IV. Loyihani amalga oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini qidirib topish va kelishib olish – muddat 3 oygacha			
18	Loyihani moliyalashtirish (zarurat bo'lganda qo'shimcha moliyalashtirish) manbalarini ishlab chiqish	1 Hafta (TIA/ TIHni ishlab chiqish bilan bir vaqtda)	Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi

T/r	Tayyorlash va amalga oshirish bosqichlari	Nazorat muddatlari	Mas'ul organ
20	Moliyaviy institutlar bilan moliyaviy qarz mablag'lari ajratish shartlarini ishlab chiqish	4 hafta (TIA/ TIHni ishlab chiqish bilan bir vaqtda)	Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi
21	Moliyaviy institutlarning baholash hisobotlari asosida tegishli dastlabki bitim (o'zaro anglash to'g'risidagi memorandum, umumiy bitim)ni imzolash	1 oy (TIA/ TIHni ishlab chiqish bilan bir vaqtda)	Vazirlar Mahkamasining mutasaddilik qiluvchi kompleksi rahbari yoxud vakolatli mansabdor shaxs
Asosiy moliyaviy institut			
22	Loyihani Moliyaviy institutning Direktorlar kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritishni ta'minlash yuzasidan muzokara jarayonini olib borish, shuningdek qarz bitimi, zarur bo'lganda loyiha va kafolat bitimi matnlarini kelishib olish	Moliyaviy institut tomonidan belgilangan muddatlarni hisobga olgan holda	vazirliklar va idoralar jalb etilgan holda Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti
23	Loyihani Direktorlar kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritish to'g'risida moliyaviy institutning dastlabki roziligini olish		Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi

Qo'shimcha moliyalashtiruvchi organ			
24	Loyihani Moliyaviy institutning Direktorlar kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritishni ta'minlash yuzasidan muzokara jarayonini olib borish, shuningdek qarz bitimi, zarur bo'lganda loyiha va kafolat bitimi matnlarini kelishib olish	Moliyaviy institut tomonidan belgilangan muddatlarni hisobga olgan holda	vazirliklar va idoralar jalb etilgan holda Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti
25	Loyihani Direktorlar kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritish to'g'risida moliyaviy institutning dastlabki roziligini olish		Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi
26	Loyihaning XMII Direktorlar kengashi tomonidan ma'qullanishi	Moliyaviy institut Direktorlar kengashining navbatdagi yig'ilishi	

<i>V. Loyihani amalga oshirish to'g'risidagi hukumat qarorini kelishib olish va qabul qilish – muddati 1 oygacha</i>			
27	Vazirlar Mahkamasining loyihani amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori loyihasini tayyorlash	1 hafta	Vazirlik/idora
28	Vazirlar Mahkamasi qarorini vakolatli vazirliklar va idoralar bilan kelishib olish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish	2 hafta	Vazirlik/idora
29	Vazirlar Mahkamasining loyihani amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorini qabul qilish		
30	Qabul qilingan hukumat qarorini bajarish bo'yicha nazorat rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash	3 kun	Vazirlar Mahkamasining mutasaddi axborot-tahlil departamenti
<i>VI. Moliyiy bitimlar tuzish – muddat 1 oygacha</i>			
31	Moliyaviy institut bilan qarz bitimini imzolash	Moliyaviy institut bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha	Vazirlar Mahkamasi kompleksi rahbari/ Moliya vazirligi
32	Zarurat bo'lganda, loyiha va kafolat bitimlarini imzolash	Moliyaviy institut bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha	Moliya vazirligi, vakolatli bank Vazirlik/idora

VII. Tender savdolari tartib-qoidalarini bajarish, moliyalashtirishni, investitsiya jarayonini va moliyaviy mablag'larni o'zlashtirishni boshlash – muddat 3 oygacha			
33	Loyihani Investitsiya loyihasining aniq qismiga kiritish	Reglamentga muvofiq	Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi
34	Tender hujjatlarini tayyorlash va tasdiqlash	1 oy	Vazirlik/idora
35	Yetkazib beruvchilarni tanlab olish bo'yicha tender o'tkazish		Vazirlik/idora
36	Tender natijalarining XMII/kreditor tomonidan ma'qullanishi	Moliyaviy institutlar tartib-qoidalarini hisobga olgan holda	
37	Amalga oshirilayotgan loyiha doirasida kontraktlar tuzish	2 hafta	Vazirlik/idora
38	Loyiha doirasida import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazish va xulosa berish	2 hafta / reglamentga muvofiq	Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Davlat bojxona qo'mitasi, vakolatli bank
39	XMII tomonidan moliyalashtirish (qo'shimcha moliyalashtirish) boshlanishi va davlat budjeti mablag'lari ajratish	Kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish yakunlariga ko'ra	Moliya vazirligi (budjet mablag'lari qismi bo'yicha)

Izohlar:

1. Loyihani tayyorlash va amalga oshirishning har bir bosqichida ijro etuvchi agentlik Vazirlar Mahkamasining mutasaddi departamenti bilan kelishgan holda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga investitsiya loyihalari amalga oshirilishi monitoringi tizimining yagona kompyuterlashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish va unga o'zgartirishlar kiritish maqsadida loyihaning joriy holati to'g'risidagi axborotni taqdim etadi.

2. Loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishning majburiy bosqichlari cheklangan muddatlari Vazirlar Mahkamasining mutasaddi departamenti bilan kelishgan holda tuzatishlar kiritilishi mumkin.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. «INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH» FANINING PREDMETI VA MAZMUNI	8
1.1. Investitsiyaning iqtisodiy tushunchasi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni	8
1.2. Investitsiyani nazariy va iqtisodiy mazmuni va investitsiyalarning zarurligi. Investitsiyaning shakllari ...	12
1.3. Davlat investitsion siyosati	24
II BOB. INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGI VA VAQT KONTSEPTSIYASI ASOSIDA INVESTITSION DAROMADLARNI HISOBLASH	37
2.1. Investitsiyalarni muqobil variantlarini joriy etishda NPV-sof joriy qiymatni taqqoslash usuli	38
2.2. Investitsiyalarni muqobil variantlarini joriy etishda daromadning ichki me'yori asosida taqqoslash usuli – IRI (Internal Rate Index)	44
2.3. Investitsiyalarni muqobil variantlarini joriy etishda loyihani qoplash muddati usuli – PP (Payback Period)	46
2.4. Inflyatsiya. Inflyatsiya sharoitida kelgusida pulning qadrini hisoblash	49
2.5. Inflyatsiya sharoitida keltirilgan qiymatni hisoblash usuli	52
2.6. Investitsion qarorlarni baholashni taqqoslash usuli (WACC usuli)	54
2.7. Annuitet va uning turlari	55
2.8. Annuitetni kelgusi qiymati va keltirilgan qiymatini hisoblash usullari	56
Mustaqil ish uchun topshiriq	59

III BOB. QAT'IV BELGILANGAN DAROMAD KELTIRUVCHI INSTRUMENTLARNING BOZOR QIYMATINI ANIQLASH	71
3.1. Kuponli obligatsiyalar daromadlilik turlari va ularning bozor bahosini aniqlash qoidasi. Nominal bahoda sotiladigan kuponli obligatsiyalar daromadlilik	71
Mustaqil ish uchun topshiriq	81
IV BOB. INVESTITSION LOYIHA VA UNING TAHLILI	86
4.1. Investitsion loyihaning biznes rejasi asosiy qismlarining tuzilishi. Investitsion loyihaning hayotiy tsiklga egaligi	86
4.2. Ishlab chiqarish rejasi	104
4.3. Sotish rejasi	109
4.4. Mahsulot tannarxini hisoblash	115
4.5. Moliyaviy rejani hisoblash	120
4.6. Texnik iqtisodiy asosni hisoblash tartibi	123
4.7. Loyihaning muqobil variantlarini taqqoslash usullari	134
4.8. Zararsizlik nuqtasi	143
Mustaqil ish uchun topshiriq	146
V BOB. INVESTITSION LOYIHANI MOLIYALASHTIRISH MANBASI VA TARTIBLARI	151
5.1. Moliyalashtirish manbalari va ularning tuzilishi	151
5.2. Lizing to'lovlari summasini aniqlash	163
5.3. Xorijiy investitsiyalar va u orqali amalga oshirish tartibi	167
VI BOB. INVESTITSION TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISH USULLARI	175
6.1. Tavakkalchilikni baholashning asosiy mezonlari va uning uslublari	175
6.2. Tavakkalchilikni boshqarish va tavakkalchilik darajasini pasaytirish yo'llari	178
IQTISODIY ATAMALAR IZOHI (Glossariy)	184

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	5
ГЛАВА I. ПРЕДМЕТ И СОДЕРЖАНИЕ «ОРГАНИЗАЦИЯ И ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ»	8
1.1. Экономическое понятие об инвестиции и её роль в развитии экономики	8
1.2. Теоретическое и экономическое содержание инвестиции и её востребованность. Формы инвестиции	12
1.3. Государственная инвестиционная политика	24
ГЛАВА II. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ И ИСЧИСЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРИБЫЛЕЙ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ ВРЕМЕНИ	37
2.1. Метод сравнения чистого приведенной стоимости – при внедрении альтернативных вариантов инвестиции	38
2.2. Метод сравнения внутренней нормы прибыли – при внедрении альтернативных вариантов инвестиций	44
2.3. Метод срока окупаемости проекта –	46
2.4. Инфляция. Расчёт покупательной способности денег в условиях инфляции	49
2.5. Метод расчёта стоимости при условиях инфляции	52
2.6. Метод сравнения оценки инвестиционных решений (метод WACCA)	54
2.7. Аннуитет и его виды	55
2.8. Метод исчисления будущей и приведенной стоимости аннуитета	56
ГЛАВА III. ВЫЯВЛЕНИЕ РЫНОЧНОЙ СТОИМОСТИ КОНКРЕТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ ПРИБЫЛИ	71
3.1. Виды прибыльности купонных облигаций и правило определения их рыночной стоимости	71
Задание для самостоятельной работы	81

ГЛАВА IV. ИНВЕСТИЦИОННЫЙ ПРОЕКТ И ЕГО АНАЛИЗ	86
4.1. Структура составных частей бизнес-плана инвестиционного проекта. Обладание инвестиционного проекта определённым жизненным циклом	86
4.2. Производственный план	104
4.3. План реализации	109
4.4. Расчёт себестоимости продукции	115
4.5. Расчёт финансового плана	120
4.6. Порядок расчёта технико-экономической основы	123
4.7. Методы сравнения альтернативных вариантов проекта	134
4.8. Точки без убыточности	143
Задание для самостоятельной работы	146
ГЛАВА V. ИСТОЧНИКИ И ПОРЯДОК ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЕКТА	151
5.1. Источники финансирования и их структура	151
5.2. Расчёт сумм лизинговых платежей	163
5.3. Иностранные инвестиции и порядок их использования	167
ГЛАВА VI. МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РИСКОВ	175
6.1. Основные критерии и методы оценки риска	175
6.2. Пути и методы управления рисками и понижения их степени	178
ГЛОССАРИЙ	184

CONTENTS

Introduction	5
CHAPTER I. THE SUBJECT AND CONTENT OF «THE MANAGEMENT AND FINANCING INVESTMENTS»	8
1.1. An economic concept of investments and its role in economic development	8
1.2. Theoretical and economic content of investments and their importance. Forms of investments	12
1.3. State investment politics	24
CHAPTER II. AN EFFICIENCY OF INVESTMENTS AND INVESTMENT INCOME ACCOUNTING BASED ON TIME CONCEPTION	37
2.1. Method of comparison Net Present Value NPV in introduction alternative versions of investment	38
2.2. Method of comparison Internal Rate Index- IRI in introduction alternative versions of investment	44
2.3. Method of Payback Period PP (Payback Period)	46
2.4. Inflation. The monetary purchasing power counting in a period of inflation	49
2.5. Method of counting value in a period of inflation	52
2.6. Method of comparison rating investment decisions (WACC)	54
2.7. Annuity and its forms	55
2.8. Method of analysing future and represented price of annuity	56
Tasks for an individual work	59

CHAPTER III. REVEALING A COMMERCIAL VALUE OF CONCRETE OF PROFIT INSTRUMENTS	71
3.1. Forms of profitability of coupon bonds and commercial value determination rules for them	71
Tasks for an individual work	81
CHAPTER IV. INVESTMENT PROJECT AND ANALYSIS FOR IT	86
4.1. The formation of business plan components of investment project. Definitive life cycle of investment project	86
4.2. Plan of production	104
4.3. Realization plan	109
4.4. Counting a cost of product	115
4.5. Financial plan counting	120
4.6. The calculating system of technical and economic basis	123
4.7. Methods of comparison alternative ways of project	134
4.8. Points without profitability	143
Tasks for an individual work	146
CHAPTER V. SOURCES AND RULES OF FINANCING INVESTMENT PROJECT	151
5.1. Sources of finance and their structure	151
5.2. Leasing payments amount counting	163
5.3. Foreign investments and using rules for them	167
CHAPTER VI. METHODS OF MANAGING INVESTMENT RISKS	175
6.1. Basic criteria and methods of risk rating	175
6.2. Ways and methods of managing risk and reduction it's degree	178
GLOSSARY FOR ECONOMIC TERMS	184

A.A. XASHIMOV, S.H.A. MADJIDOV,
N.M. MUMINOVA

INVESTITSİYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH

O'quv qo'llanma

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2014

Muharrir *R. Boyto'ra*
Badiiy muharrir *F. Basharova*
Texnik muharrir *R. Boboxonova*
Sahifalovchi *L. Soy*
Musahhah *Sh. Xurramova*

Nashr litsenziyasi: AI № 201 28.08.2011.

Terishga berildi 19.07.2014. Bosishga ruxsat etildi 27.10.2014. Bichimi
84x108^{1/2}, «Times New Roman» garniturası. Shartli bosma tabog'i 13,02.
Nashriyot-hisob tabog'i 11,97. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 3635
Bahosi shartnoma asosida.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi boshmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.



ISBN 978-9943-26-122-8



9 789943 261228